

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI  
MAGISTRATURA BO'LIMI**

*Qo'lyozma huquqi asosida*  
*UDK:811512.133:82.282*

**NORMUHAMMEDOVA AMMAGUL OTABEKOVNANING  
SURXONDARYO SHEVALARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI**

70230101-Lingvistika: (o'zbek tili) mutaxassisligi bo'yicha magistr akademik  
darajasini olish uchun yozilgan

**DISSERTATSIYASI**

**Ilmiy rahbar:**

**f.f.f.d. (PhD) N. Amonturdiyev**

**Termiz-2023**

**Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining  
2022-yil \_24-yanvardagi N-T/M sonli buyrug'i asosida tasdiqlangan.**

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti "O'zbek tilshunosligi"  
kafedrasida tayyorlangan.

Magistrlik dissertatsiyasining elektron nusxasi Termiz davlat universitetining  
rasmiy sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manziling QR kodi:



Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs  
markazida tanishish mumkin ☎-raqam bilan ro'yxatga olingan. Manzil: Termiz  
shahri, Barkamol avlod ko'chasi 43-uy).

**Ilmiy rahbar:**


**Kafedra mudiri:**

**Magistratura bo'lim boshlig'i:**

**f.f.f.d. (PhD) N. Amonturdiyev**

**f.f.f.d. (PhD) N. Amonturdiyev**

**p.f.f.d. (PhD) A. Narbayev**



**Termiz davlat universiteti 70230101-Lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi magistranti Normammedova Ammagul Otabekovnaning "Surxondaryo o'zbek shevalarining lingvistik xususiyatlari" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi**  
**ANNATATSIYA**

**Tadqiqot obyekti:** Tadqiqot obyekti sifatida jahon va o'zbek adabiyotida yaratilgan badiiy asarlardan ayrim namunalar, o'zbek tilidagi ilmiy izlanish natijasi asosida yaratilgan ilmiy asarlar hamda maqola va o'quv qo'llanmalari asos bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqotning maqsadi:** Ilmiy ishda Surxondaryo o'zbek shevalari ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, uning omonimlik, sinonimlik, polisemiya kabi tomonlarini ochib berish, ularning tarqalish darajasi va o'zlashtirish darajalarini chuqurroq o'rganish tadqiqotning asosiy maqsadi hisoblanadi.

**Tadqiqot metodlari:** Tadqiqotda qo'llangan asosiy metod qiyosiy va tahlil metodi hisoblanadi. mavzuni yoritishda tomonlararo ishlatiladigan shevaga oid so'zlarni yig'ib, ularning yangilanishi va ma'no tomonlarining o'xshashligini o'rganish, qiyoslash va solishtirish orqali yoritib beradi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilar:**

- Surxondaryo o'zbek shevalarining leksik-semantik xususiyatini o'rganadi;
- hududlararo shevadagi so'zlar yig'ildi;
- yig'ilgan so'zlarning tarixiy-tadrijiy tomonlari o'rganildi;
- dialektal so'zlarning omonim va sinonimlik tomonlari misollar orqali o'rganildi;
- to'plangan yangi so'zlar va shevaga oid so'zlarning polisemik va monosemik tomonlari aniqlandi.

**Amaliy ahamiyati:** Tadqiqotdagi materiallardan o'rta maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji va oliy o'quv yurtlarining o'zbek filologiyasi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalariga "Dialektologiya" fanining "Surxondaryo shevalari" mavzusini yoritib berishda foydalanish mumkin.

**Tadbiq etish darajasi:** Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot natijalaridan "Dialektologiya" fanida yangi yo'nalishlar, yani shevalarda polisemiya, omonimiya, sinonimiya bo'limlarimlarini o'qitishda keng foydalanish mumkin.

**Qo'llanilish sohasi:** Tilshunoslikning birqancha sohalarida, jumladan, dialektologiya, etnografiya, etnolingvistika, pragmalolingvistika va yana ko'plab sohalarida qo'llash.

**70230101-master of linguistics (Uzbek language) specialist  
Normammedova Ammagul Otabekovna's "Surkhandarya Uzbek master's  
thesis on the topic" linguistic features of dialects'**

**ANNOTATSIYA**

**The purpose of the study:** to bring Surkhandarya on Uzbek dialects in scientific work study of scientific research, its survival, synonymy, polysemy, reveal aspects such as the degree of their distribution and appropriation a deeper study of the levels is the main objective of the study.

**Research methods:** the main method used in the study is the comparative and analysis methods words regarding shheva which are used interchangeably in the coverage of the topic collecting, studying their renewal and similarity of the sides of meaning, illuminates by comparing and comparing.

**The scientific novelty of the study is as follows:**

- Surkhandarya studies the lexical-semantic nature of Uzbek dialects;
- words collected in the regional dialect;
- the historical and evolutionary aspects of dialectal words were studied through examples;
- polysemic and monosemic of collected new words related to the dialect the sides were determined.

**Practical significance:** high school from materials in research, academic Lucuem, vocational college and education in the direction of Uzbek Philology of the oliyukov lands "Surkhandarya dialects" of the science of "Dialectology" to its students it can be used when highlighting its subject.

**Implementation level:** the practical importance of research is that research from the results of New Directions in the science of "Dialectology", namely in dialects polysemia, homonymy, synonymy sections, widely used in the training my can.

**Field of application:** in several areas of linguistics, including, dialectology, ethnography, ethnolinguistics and many more application in areas.

## MUNDARIJA

**KIRISH..... 3-8-betlar**  
**I BOB. O‘ZBEK TILI SHEVALARI TILSHUNOSLIK OBEKTI**

### **SIFATIDA.**

1.1. O‘zbek shevalarining tilshunoslikdagi tadqiqi..... 9-11.  
1.2. Surxondaryo o‘zbek shevalarining o‘rganilishi va tasnifi.....11-25  
Bob bo‘yicha xulosalar.....25-26

### **II BOB. O‘ZBEK SHEVALARINING LEKSIK XUSUSIYATLARI.**

2.1. Shevalarda polisemiya va omonimiya hodisasi.....27-  
39.  
2.2. Shevalarda sinonimiyaning yuzaga kelishi.....39-  
45.  
Bob bo‘yicha xulosalar.....45-46

### **III BOB. SURXONDARYO O‘ZBEK SHEVALARIDA LEKSIK QATLAMNING NAMOYON BO‘LISHI.**

3.1. Surxondaryo o‘zbek shevalarida umumturkiy leksik qatlam.....47-52  
3.2. Shevalarda o‘zlashma leksik qatlamning o‘rni.....52-72  
Bob bo‘yicha xulosalar.....72-73  
**UMUMIY XULOSALAR.....74-75.**  
**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....76-.80**  
**ILOVALAR.....81-83**

## KIRISH

### **Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.**

Tilga muhabbat har bir kishiga ona suti, ona allasi kabi go'daklik chog'idan singib boradi. Shoir aytganidek, insonning o'lgan ruhiga jon bag'ishlaydigan va uni qayta hayotga qaytaruvchi ham ona tilidir. O'z ona tilini, millatini asray olmagan xalq eng g'arib va eng qashshoq xalqqa aylanib qoladi. Mamlakatimiz mustaqilikka erishgandan so'ng, "O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida" gi qonunnining qabul qilinganligi o'zbek tili va adabiyotiga bo'lgan munosabatni oshirishga ilk qadam bo'ldi. Bundan tashqari, Ona tilini qadr-qimmatini ko'tarish va uni yanada rivojlanishi yo'lida bir qancha izlanishlar olib borilishi uchun bugungi kunda davlatimizda keng miqyosda chora-tadbirlar ko'rilmoqda va qonun-farmonlar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-584-son Qarori, 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilini davlat tili sifatida nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6084-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan ta'lim va fanning barcha sohalarida axbarot texnologiyalarini joriy etish haqidagi takliflari mazkur faoliyatga tegishli barcha me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni, 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son "Ma'naviy-marifiy ishlar samadorligini oshirish va sohani rivojlantirish" gi da ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi<sup>1</sup>. Yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda xalq og'zaki ijodining, hadisnavis

---

<sup>1</sup>Raimnazarova N.X. O'zbek tilining izohli lug'atida shevaga oid so'zlarning berilishi. -Termiz, 2022-yil.3-5 b.

allomalarning va buyuk mutaffakkirlarimizning qoldirgan boy meroslarining o'zni beqiyosdir. O'zbek tilshunosligida tilni o'zbek xalqining urf-odatlari, tarixiy an'analari va ma'naviy olami bilan bog'liq ravishda o'rganishga bo'lgan qiziqish kuchayib bormoqda. Zero, tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlarga qoldirish, davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. 1.O'zbek xalqi g'oyat murakkab va turli bosqichlarni o'zining tarixiy taraqqiyoti jarayonida o'z boshidan kechirdi. O'zbek tilining lug'at va so'zlik tarkibi uzoq davrning mahsuli bo'lib, shu xalqning barcha a'zolari uchun tushunarli, ijtimoiy-iqtisodiy turmushda ko'p qo'llaniladigan, aniq ma'no bera oladigan, so'z yasash va grammatik ma'no berish uchun asos bo'ladigan juda boy so'z, frezaologik birliklarga egadir. O'zbek shevalarida boshqa turkiy xalqlar dialektlaridan boyligi va serqirraligi bilan ajralib turad. O'zbek dialektologiyasi o'zbek tilshunosligining eng muhim yo'nalishlaridan biridir.

Keyingi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida dialektologiya sohasiga oid monografiyalar nashr etildi, dissertatsiyalar yozildi, lug'atlar tuzildi. Shunga qaramasdan, o'zbek tilshunosligining ushbu sohasini barqarorlashtirishda bir qator murakkab va dolzarbmasalalar haligacha o'z yechimini topgan emas. Xususan, Surxondaryo o'zbek shevalarini lingvogeografik usulda o'rganish shunday muommalardan biridir. Ushbu usulda shevalarni tadqiq etish uchun esa mazkur region shevalarini fonetik, morfologik va leksik sathda tadqiq etgan olimlarning ilmiy ishlarini chuqur o'rganish talab etiladi. Biz mazkur ishimizda Surxondaryo o'zbek shevalarining lug'at xususiyatlari haqida fikr yurita turib, boshqa viloyat shevalari bilan ham taqqoslab o'rganishga harakat qildik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha Oliy ta'limtizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-584-son Qarori, 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5850-son Farmoni,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrida “Mamlakatimiz o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6084-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan ta‘lim va fanning barcha sohalarida axborot texnologilarini joriy etish haqidagi takliflari, mazkur faoliyatga tegishli bo‘lgan boshqa ma‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Ilmiy ishimiz mavzusi shevashunoslik bo‘yicha bo‘lib, hududimiz shevasining leksik tadqiqiga bag‘ishlanadi. Avvalo, dialektologiya (yunoncha-dialektos-sheva so‘zidan) tilshunoslikning bir sohasi bo‘lib, u biror tilning mavjud dialektlarini, ya‘ni mahalliy sheva va lahjalarni o‘tganadi<sup>2</sup>.

Jahon tilshunosligida dialektologiya yo‘nalishi o‘zining o‘zining taraqqiyoti bosqichlariga egadir. Shevalarni o‘rganish turkologiyada Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atut-turk” asaridan boshlangan. Dialektologiya fan sifatida XVII asrning oxirlarida Germaniyada shakllangan. Nemis tili dialektlari tarkibiga G‘arbiy Germaniya, Niderlandiya tillari bilan uyg‘unlashgan. Dialektlarni o‘rganish va ilmiy njihatdan asoslash ishlari XIX asrning ikkinchi yarmida “Yosh grammatikachilar” tomonidan amlalga oshirilgan. Rossiya hududida, ana shunday katta hududni qamrab olgan mamlakatda Kaliningraddan Vladivostokga qadar hech muommosiz (so‘zlarning talaffuzida: tez va sekin (a)lovchi farqlar bo‘lishi mumkin, ammo bir-birini tushunadi, shuningdek, O‘zbekiston hududida yashovchi aholi bir-birini so‘zsiz (shevalarda blingvizm ta‘siridagi sheva, qipchoq, o‘g‘uz; qarluq lahjalari vakillari hududda istiqomat qilsa-da) tushunadi<sup>3</sup>.

O‘zbek tilshunosligida ushbu sohaga oid tadqiqotlar XX asr boshlarida boshlangan edi. E. D. Polivanov, K. K. Yudaxin, I. I. Zarubin kabi rus olimlar tomonidan qilingan ishlar mavjudki, ular bu sohaning rivojlanishi uchun ta‘sir

---

<sup>2</sup> Йўлдошева Т. Тожикистондаги ўзбек шевалари морфологияси. -Тошкент, Фан-1986-yil.54-б.

<sup>3</sup> Xolova A.M. O‘zbek lingvistikasida dialektologiya masalalari. –Termiz. 2022yil, 5-6-b..



etmay qolmagan. Rus olimlari ilmiy ishlarida o'zbek adabiy tilini me'yorga keltirish, ularning shevalarini atroflicha o'rganish orqali amalga oshishi mumkinligini aytib o'tganlar. O'zbek tilshunosligida shevalarning fonetik, leksik, grammatik xususiyatlariga oid T. Yo'ldoshev, S. Ibragimov, Q. Muhammadjonov, N. Rajabov, Olim X. Doniyorov o'zbek xalqining shakllanishida qipchoqlar asosiy o'rinni egallagan deb hisoblaydi.

**Tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan. Bugungi kunda o'zbek tilining rivojlanishi, takomillashishi va rivojlangan tillar qatoridan joy olishi kabi masalalar alohida ahamiyat kasb etib turivchi vaqtda o'zbek tilining boyishi bevosita shevalar bilan bog'liqdir. Ushbu dissertatsiya uchun tanlangan mavzuni o'rganilishi ancha qadimiydir. Bu mavzuga oida dastlabki fikrlar, eng avvalo, Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit-turk" asarida yoritib o'tilgan. Turkiy xalqlarning mushtarak asari hisoblangan ushbu manba turkiy xalqlar leksikasi haqida mukammal ma'lumot beradi.

Hozirgi o'zbek tilshunosligida dialektologiyaning bu sohasini rivojlantirishda E. D. Polovanov, K. K. Yudaxin, V. V. Reshetov, G'ozil Olim Yunusov, Sh. Sh. Shoabdurahmonov, F. Abdullayev, X. Doniyorov, A. Ishayev, B. Jo'rayev, A. Shermatov, A. Jo'rayev, A. To'raqulov kabi yetakchi shevashunoslarning xizmati beqiyosdir. Shu bilan birga o'zbek tili xalq shevalari leksikasini o'rganishga o'z hissasini qo'shgan S. Rahimov, Q. Muhammadjonov, Sh. Nosirov, T. Nosirov, T. Sodiqov, T. Quدراتov, T. Mirsoatov, S. Ibrohimov kabi shevashunos olimlarning ishlari ham ahamiyatliligi bilan farqlanib turadi.

Ushbu olimlar tomonidan shevalar leksikasiga oid o'nlab dissertatsiyalar himoya qilingan, bir qancha monografiyalar va lug'atlar nashr etilgan.

Shuni qayd etish lozimki, Surxondaryo viloyati dialektlari ham bir qancha olimlar tomonidan ishlangan. Bular qatoriga biz X. Fayziyeva, N. Raimnazarova, M. Xolova va boshqalarni aytishimiz mumkin.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Surxondaryo o‘zbek shevalarining leksik xususiyatlarini lingvistik omillar yordamida qiyosiy tadqiq qilish va ilmiy umumlashtirishdir.

**Tadqiqotlar qo‘llangan metodlar.** Shevalar leksikasi boy va xilma -xilligi bilan ajralib turadi. Shu sababli faqatgina bir usul yordamida tadqiq qilish o‘rinli emas. Shunga ko‘ra, ishda leksik-semantik, fonetik hamda grammatik usullardan foydalanildi.

Ishdagi ba‘zi murakkab muammo va nazariy masalalarni hal qilishda dialektologiya sohasida erishilgan ilmiy-nazariy yutuqlarga tayangan holda ish ko‘rildi.

**Tadqiqotning obykti va manbalari.** Tadqiqotning asosiy obykti sifatida Surxondaryodagi (j)lovchi, (y)lovchi o‘zbek shevalari asos qilib olindi. Bu kabi ishlarni amalga oshirishda mavjud dialektologik asarlar, tilshunoslikka oid boshqa manbalardan, sheva vakillari nutqidan olingan yig‘ma materiallaridan keng va samarali foydalanildi. Ishda chet el dialektologik olimlar (rus olimlar) ning asarlari, O‘zbekiston, shu jumladan, Surxondaryo shevalari bo‘yicha yozilgan maqolalar, dissertatsiya, shuningdek, o‘zbek dialektologiyasining asarlari, lug‘atlar ilmiy-nazariy baza vazifasini o‘tadi.

**Ishning ilmiy yangiligi.** Surxondaryo va boshqa viloyatlar shevalari leksikasini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy ishlarni o‘rganish va qiyoslash natijasida umumiy xulosalarni bayon etish, ushbu ishlarda berilgan shevaga oid misollarni lingvistik tahlil qilish va yangi yig‘ilgan shevaga xos so‘zlarni leksik-semantik tahlildan o‘tkazishdan iboratdir.

**Ishning nazariy va amaliy ahamiyati.** Ushbu ishning ilmiy nazariy xulosalari va tadqiq usullaridan sheva leksikasi haqida tadqiqot olib borayotgan talabalar, magistrantlar, olimlar foydalanishi, o‘zbek dialektologiyasida darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari yaratishda, shuningdek, oliy o‘quv yurtlarida

dialektologiya bo'yicha maxsus nazariy kurslar tashkil etishda samarali foydalanishi mumkin. **Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.** Tadqiqot ishining tuzulishi quyidagicha tavsiflanadi: kirish, uch asosiy qism, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

# **I BOB. SURXONDARYO O'ZBEK SHEVALARINING ILMIIY JIHATDAN TASNIF QILINISHI**

## **1.1 O'zbek shevalarining tilshunoslikdagi tadqiqi**

Shevalar har bir xalqning umumiy milliy tili tarkibiga kiruvchi boy xazina desak also mubolag'a bo'lmaydi. To'g'ri, ular milliy adabiy tildan o'zining bir qator jihatlari bilan (fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari) farq qilishi mumkin, ammo har bir xalqning tilini asl qadriyatlari-yu, boy merosini, so'zlardagi jilosi shu xalq tilining shevasida saqlanib asrlar mobaynida og'izdan og'izga o'tib keladi. Sheva milliy adabiy tilning bir tarmog'i hisoblanib, adabiy shevalardan oziqlangan holda rivojlanib, sayqallanib boradi. O'zbek adabiy tilini o'zbek xalq shevalar boyitadi, lekin ukar bir-birida ma'lum fonetik, leksik, morfologik, so'z yasalishi va sintaktik jihatdan ozma-oz farq qiladi. Hozirgi o'zbek tilshunosligida dialektologiyaning bu sohasini barqarorlashtirishda I. I. Zarubin, E. D. Polivanov, K. K. Yudakin, B. B. Reshatov, A. K. Borovkov kabi rus turkologlari va G'ozi Olim Yunosov, Sh. Sh. Shoabduraxmonov, F. Abdullayev, X. Donyorov, B. Jo'rayev, A. S. Shermatov, A. Jo'rayev, A. To'raqulov kabi yetakchi shevashunoslarning xizmatlari beqiyosdir<sup>4</sup>. Shu bilan birga, o'zbek tili xalq shevalari leksikasini o'rganishga o'z hissasini qo'shgan S. Rahimov, Q. Muhammadjonov, Sh. Nosirov, T. Sodiqov, I. Rajabov, V. Egamov, T. Qudratov, A. Aliyev, M. Mirzayev, E. Sheraliyev, A. Shermatov kabi shevashunos olimlarning ishlari ham ahamiyatliligi bilan farqlanib turadi. O'zbek tili shevalarning uyg'unlashishi yo'li bilan tashkil topgan bo'lib, hozirgi o'zbek tili uch asosiy guruh shevalarining, ya'ni qipchoq, qorluq, o'g'uz shevalarining o'zaro qo'shilishidan paydo bo'lgan. O'zbek tilining dialekt va shevalarin ing boshqa turkiy xalqlardan farqli jihati shundaki, u bir necha guruhlarga bo'lingan. Ana shuning uchun ham o'zbek tili boshqa turkiy xalqlarga nisbatan shevaga boydir. O'zbek shevalari 2 xil tavsif etilgan bo'lib:

---

<sup>4</sup> Enazarov T.J., Karimjonova V.A., Ernazarova M.S, Mahmadiyev Sh.S. , K.G'.Rixsiyeva. "O'zbek dialektalogiyasi". Toshkent, 2012-yil. 37-bet.

- 1) shevalarning umumiy tasnifi (mamlakat yoki davlatlar nuqtai nazaridan);
- 2) shevalarning xususiy tavsifi (voha yoki viloyat doirasida).

Zarubin o'zbek shevalarini to'rtta asosiy guruhga bolib tavsif qildi: 1. Xiva. 2. Farg'ona. 3. Toshkent. 4. Samarqand-Buxoro kabi guruhlar.

Yudaxin esa ko'proq shevalarimizning tojik tili bilan o'zaro munosabati tahliliga, ulardagi singarmaniz hodisasiga diqqatini qaratdi. Zarubin tasnifiga qo'shimcha qilib: qipchoq-j guruhni va shimoliy o'zbek shevalari guruhini qo'shdi (Samarqand-Buxoroni olmadi)<sup>5</sup>. Ammo keyinchalik mufassil tanishgan holda shevalarni 5 guruhga: 1. Toshkent. 2. Farg'ona. 3. Qipchoq. 4. Xiva (Xiva o'g'uz). 5. Shimoliy o'zbek shevalariga bo'lib, Boysun shevasini qipchoq guruhiga ajratadi<sup>6</sup>.

Professor E. D. Polivanovning o'zbek tili shevalari tasnifi eng mayda detallarigacha tavsif va tahlil etilgan. Uning tavsifida metisatsiya (qardosh tillar chatishuvi) va gibridizatsiya (qardosh bo'lmagan tillar chatishuvi) kabi holatlar ham tavsif qilingan. Polivanov tavsifida eronlashgan va eronlashmagan shevalar tahlil etilgan (Samarqand va Buxoro eronlashgan); (Farg'ona qipchoq shevasi-eronlashmagan). Polivanov eronlashgan tillarning o'zini yetti tipga bo'lib o'rgangan: 1-tip: Samarqand-Buxoro shevalari, 2-tip: Toshkent shevalari. 3-tip: Qo'qon-Marg'ilon shevasi, 4-tip: Andijon-Shaxrihon shevalari, 5-tip: Uyg'urlashgan shevalar (Namangan, Chortoq), 6-tip: Shimoliy o'zbek shahar shevalari, 7-tip: Shimoliy o'zbek qishloq shevalari<sup>7</sup>. 1936-yildan boshlab, ya'ni Polivanov tavsifidan so'ng Professor G'ozim Olim Yunusov o'zbek shevalarini tavsif qildi. Olim o'zbek shevalarini uch lahjaga ajratib o'rgandi: 1) o'zbek-qipchoq lahjasi bo'lib, bu guruhga Zarafshon, Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo hududlarida yashovchi xalqning tili, bundan tashqari Xorazm, Andijon, Namangan, Qo'qon, Chimboy, Qo'ng'iro't tumanlari va Tojikiston va Afg'oniston shimolida o'zbeklar nutqi kiradi.

---

<sup>5</sup> Ernazarov M.S., Karamjonova V.A., Ernazarov T.J., Mahmadiyev Sh.S., Rixsiyeva K.G'. O'zbek dialektologiyasi. Toshkent, 2012-yil. 23-bet

<sup>6</sup> Xolova M.A. O'zbek milliy korpusi tadqiqi. Termiz-2022yil, 7-bet.

<sup>7</sup> Ernazarova M. S., Karamjonova V.A., Ernazarov T.J., Mahmadiyev Sh.S., Rixsiyeva K.G'. O'zbek dialektologiyasi. Toshkent, 2012- y.72-bet

II. Turk-barlos lahjasi Toshkent, Qo'qon, Namangan, Andijon, Marg'ilon shaharlari shevasi.

III. Xiva-Urganch lahjasi. Xiva, Xonqa, Kat, Toshhovuz, Eski-Yangi Urganch shaharlarining aholisi shevasi.

Professor G'. O. Yunusov Xivada singarmanizmning saqlanishida alohida urg'u beradi, ya'ni "q" o'rnida "k" kelishi.

Professor Borovkov o'zbek sheva vakillarini ikki asosiy guruhga ajratdi<sup>8</sup>, ya'ni o-lovchi va a-lovchi guruh vakillari. Borovkov dialekt vakillarini to'rtga bo'lib o'rgandi: 1. O'rta o'zbek dialekti. 2. Shayboniy-o'zbek dialekti, dj-lovchi. 3. Janubiy-Xorazm dialekti. 4. Alohida guruh o'zbek shevalari dialekti<sup>9</sup>.

---

<sup>8</sup> Аширбойев С. Ўзбек тили. Сурхондарё ўзбек шевалари. Тошкент, 1985, 25-б

<sup>9</sup> Enazarov T.J., Karimjonova V.A., Ernazarova M.S., Mahmadiyev Sh.S., Rixsiyeva K.G'. O'zbek dialektologiyasi. -Toshkent. 2012. 27-bet

## 1.2 bob Surxondaryo o'zbek shevalarining o'rganilishi

Surxondaryo o'zbek shevalarining tasnifi masalasi doimo olimlar e'tiborida bo'lib kelgan. Shunga ko'ra, bir qator yirik dialektologlarimiz o'z asarlarida mazkur hududga oid tavsiviy qarashlarini yoritishgan. Surxondaryo o'zbek shevalariga oid ilk tasnifiy ma'lumotlar E. D. Polivanov va A. K. Borovkov asarlarida uchrasa-da, viloyat shevalarini ilk marotaba amaliy jihatdan o'rganishni boshlagan olim A. Mahmudqulovdir. Sherabod tuman "juqchilar" shevasi yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan olim 1960-yilda "Sherabod juqchilar shevasi" mavzusida dissertatsiyasini himoya qiladi. Sherabod "j-lovchi" shevalarida "ravish kategoriyasi", Sherabod "j-lovchi" shevalarida "ko'plik kategoriyasi" ("O'zbek tili adabiyoti masalalari" jurnali 4-son 1960-yil), "Sherabod juqchilar shevalarida fe'l materiallari", "Sherabod juqchilar shevasida undoshlarning temasi" kabi ilmiy maqolalar o'sha davr uchun muhim voqea sifatida odamlar e'tiborini jalb qilgan edi.

A. Mahmatqulov bir tuman doirasida ilmiy izlanishlar olib borgan bo'lsa-da, buning yaratgan asarlari Surxondaryo o'zbek shevalarini o'rganishiga asos bo'ldi.

Surxondaryo shevalarini keng mavzuda o'rgangan olim bu Saidmuso Rahimovdir. Bevosita mavzumizga aloqador bo'lgani sababli olimning ilmiy ishlariga kengroq to'xtalamiz. Saidmuso Rahimovning nomzodlik dissertatsiyasi Surxondaryo viloyatidagi o'zbek shevalari leksikasini o'rganishga bag'ishlangandir.

Ishda qayd etilishicha, o'zbek dialektologiyasida u yoki bu shevalarning fonetik va morfologik xususiyatlari koproq o'rganilgan bo'lib, shevalar leksikasini tadqiq etish masalasi birmuncha oqsoqdir.

Avvalo, shuni qayd etishimiz lozimki, ishning kirish qismida Surxondaryo viloyatining aholisi to'g'risida tarixiy ma'lumotlar beriladi va shevalarga xos ayrim xususiyatlar yoritiladi.

Dissertatsiyaning asosiy qismi (tadqiqot obekti boblariga bo'linmay ayni shu tarzda o'rganilgan) da birinchi navbatda Surxondaryo shevalariga xos leksik

birliklar semantik-morfologik guruhlar bo'yicha tasnif qilinadi. S. Rahimovning nomzodlik dissertatsiyasida<sup>10</sup> Surxondaryo shevalarini ikki guruhga ajratadi: 1) y-lovchi (shahar tip) shevalar, 2) j-lovchi qipchoq shevalar. Qayd etilishicha, o'rganilgan shevalar ishida qorluq y-lovchi va qipchoq j-lovchi shevalar leksikasi tadqiqot obekti qilib olingan leksik sistemasida butunlay o'zbek adabiy tiliga xos bo'lmagan qator so'z va atamalar mavjud. Ishda bunday leksemalar garchi, adabiy tilda qo'llanmagan bo'lsa-da, o'zbek tilining tayanch shahar shevalarida ishlatilishi ishonarli misollar bilan tasdiqlangan. (Surxondaryoda: adag', adoq, tom, adag', adabiy orfografik *axir, so'ng*), shuningdek, tadqiqotda qadimgi yozma yodgorliklarda qayd etilgan, o'rganilgan shevalarda saqlanib qolgan, biroq, tilda qo'llanmayotgan leksemalar haqida batafsil fikr yuritiladi. Ishning qiymatini oshirgan omillardan biri shundaki, unda qayd etilgan guruhga oid morin, marin; kelik, kulik; alang, arasi, arasichi kabi qirqqa yaqin shevalarda hamda ayrim turkiy tillarda qo'llanayotgan, lekin adabiy tilda muqobili bo'lmagan leksik birliklarning mavjud ekanligini ko'rsatib berishdan iboratligidadir. Mazkur bo'limning ikkinchi qismida Surxondaryo o'zbek shevalaridagi dialektal so'zlar morfologik tarkibiga ko'ra o'rganib chiqilgan. Chunonchi, unda adabiy tilda paralleli bo'lgan *dap* (doira), *kadi* (qovoq), *o'r* (o'rta), *tati* (hech) singari va adabiy tilda paralleli bo'lmagan *qabachoq, qovachaq, qabichaq* ("*pust*", "*puchoq*" ma'nolarida) kabi leksemalar tadqiqot obekti qilib olingan. Shuningdek, unda shevaga xos yasama va qo'shma so'z hamda terminlar ham ayni shu tarzda tahlil qilib chiqilgan. Surxondaryo o'zbek shevalarining tasnifi masalasi ham doimo olimlar e'tiborida bo'lib kelgan. Shunga ko'ra, bir qator yirik dialektologlarimiz asarlarida mazkur regionga oid tavsifiy materiallar atroflicha yoritilgan. Prof E. D. Polivanov tasnifiga ko'ra<sup>11</sup> Surxondaryo o'zbek shevalari uchinchi dialekt qipchoq lahjasining beshinchi tipidagi janubiy o'zbek j-lovchilar guruhiga kiritiladi. E. D. Polivanov o'zbek dialektlarini tasnif qilar ekan, singormanizm xususiyatining bor yoki yo'qligiga

---

<sup>10</sup> Рахимов С. Сурхондарё областидаги ўзбек шевалари лексикаси. Филология фанлари номзоди дисс-Тошкент, 1974. 20-б.

<sup>11</sup> Поливанов Е. Д. Диалектология. -Тошкент. 1993. 72-б.



katta e'tibor beradi. Shu nuqtai nazardan Surxondaryo shevalarini singormanizm xususiyatlarini o'zida saqlagan qipchoq yokida sof o'zbek shevalari guruhiga kiritiladi.

Professor A. K. Borovkovning o'zbek dialekt va shevalari orasidagi munosabatlar hamda tarixiy lingvistik hodisalarini hisobga olgan holda, berilgan keyingi tasnifida Surxondaryo o'zbek shevalari j-lovchilar dialekti deb ko'rsatiladi. U o'zining "O'zbek shevalarining klassifikatsiyasi masalalari" nomli asarida j-lovchilar dialekti o'tmishda ko'shmanchi yoki yarim ko'chmanchi holda yashagan, turli urug'- qabilalarga mansub o'zbeklar, chunonchi, mang'it, nayman, ming, yuz, qirq kabi urug'lar shevasini o'z ichiga oladi. Bu shevada so'zlashuvchi o'zbeklar XVI asrdan boshlab O'zbekistonning turli hududlariga: shimoliy Xorazm, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari va Fargona vodiysining ayrim joylarida hamda Tojikistonning g'arbiy-janubiy qismida joylashganligini yozadi. Bu dialektning asosiy xususiyatlari Professor A. K. Barovkov tomonidan quyidagicha izohlanadi: birinchidan, bu shevalarda unlilar soni 8ta va birinchi bo'g'inglarda uchraydigan hamda o'zlashayotgan (e) unlisi bilan 9 tadir. Shuningdek, so'z boshida talaffuz qilinadigan tovushlar (y)-(dj) bilan aytiladi: etol ("yol", etamon (yomon) kabi. So'z oxirida keng unlilardan keyin kelgan q, g' tovushlari v tarzida (tov-tog'), (bov-bog') talaffuz etiladi; so'z oxiridagi k, g, q, g' tovushlari unlilardan keyin kelganda tushib qoladi: kichi<kichik, sari < sariq kabi.

A. K. Barovkov o'z shevalari tasnifining, asosan, 2 -variantini tavsiya etgan. U o'z tasnifining birinchi variantida asos qilib, fonetik belgilarning j-lashish, y-lashish, o-lashish va a-lashish xususiyatlarini ko'rsatar ekan. Surxondaryo qipchoq shevalarini a-lovchi guruhining j-lovchi shevalariga kiritadi.

Professor G'ozil Olom tasnifi bo'yicha mazkur shevalar o'zbek-qipchoq lahjasiga kiritilgan: Bu lahjaga Ohangaron vodiysida, Mirzacho'lda, Samarqand, Zarafshon, Buxoro atroflarida va Qashqadaryo, Surxondaryoda yashovchi o'zbeklar va Xorazm, Andijon, Qo'qon, Namangan hududlarida,

Qoraqalpog‘istonning Qipchoq, Chimboy, Qo‘ng‘irot tumanlarida, Tojikiston, Afg‘onistonning shimolidagi o‘zbek shevalari kiradi”- deb ko‘rsatilgan.

Prof. G‘ozi Olim Yusupov shevalarini tasnif qilganda ularning fonetik va morfologik xususiyatlariga ko‘proq e‘tibor bergan. Chunonchi, fonetik belgilar: so‘z boshida “dj” lashish hodisasi, y >dj, yer>djer, k >g, ek>egin, e-v, tug‘>tuv, g>g‘, tegdi>tiydi.

Morfologik belgilarga: *jo‘nalish kelishigi* qo‘shimchasi o‘zakning qattiq-yumshoqligiga ko‘ra: ge-ke, ea, qa-a, >e. *Tushum kelishigi* -n, -ni, -ni, -tv, -ti, -di, -di. *Qaratqichi kelishigi*: nng-ning, -tng, -ting-dng, ding shaklida. *Ko‘plik affikslari* lor-lir, har-dar, der, tar-ter. *Hozirgi davom fe‘li* -yatir, -djatir shaklida qo‘llanilishi asos deb hisoblaydi. Olim mazkur hududdagi Boysun shevasi haqida fikr yuritar ekan shunday yozadi: “Shahar va kasabalarda yashovchi turli xalqlar, turlicha so‘zlashuvchi tojik, arab, afg‘onlar va qorluq qabilasining burungin jonli shevasida so‘zlashadilar”. Muallif shu shevaning til xususiyatlari nimalardan iborat, qanday belgilariga ko‘ra Boysun shevasi qorluq shevasiga kirishishi to‘g‘risida aniq ma‘lumot bermaydi. Olim o‘zbek shevalarini o‘rganish sohasida shahar tipidagi, xususan, qorluq lahjasiga kiruvchi shevalarni ilmiy asosda chuqur o‘rganish bilan qipchoq shevalarini ham dialektologik tekshirish obyektini qilib oldi va shu shevalar haqida bir qancha asarlar yozdi.

Akademik V. V. Reshetov hozirgi O‘zbekiston hududida mavjud bo‘lgan o‘ziga xos etnolingvistik jarayon hamda qardosh va qardosh bo‘lmagan xalqlar tilining bir-biriga ta‘sirini nazarda tutar ekan, tarixiy lingvistik jihatdan umumxalq o‘zbek tili uchta katta guruhdan, 1) qorluq-uyg‘ur, 2) qipchoq, 3) o‘g‘uz lahjalaridan tashkil topganligini ko‘rsatadi. Olim o‘zbek shevalarini tasnif qilishda hududiy joylashish, etnik belgi va til xususiyatlarini e‘tiborga oladi. Ana shu tasnifda Surxondaryo o‘zbek shevalari hududiy jihatdan shimoliy-g‘arbiy guruhga, etnik belgisiga ko‘ra qipchoq va til xususiyatlariga ko‘ra a-lovchi guruhdagi “j” lashgan shevalar orasida beriladi. U qipchoq lahjasini juda katta hududga tarqalgan.

O‘zbekistonning barcha viloyatlarida mazkur shevalarning vakillari bor. Sirdayo, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlari aholisining ko‘pchilik qismi qipchoq lahjasi vakillaridir. Bugina emas, o‘zbek tili qipchoq lahjasining shevalari Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston Respublikalari hududlarida ham bor”. Darhaqiqat, dialektolog olim S. Rahimov o‘tkazgan tekshirishlar Surxondaryo aholisining ko‘pchilik qismi qipchoq lahjasi vakillari ekanligini ko‘rsatgan. Akademik V. Reshetov bu shevalarning eng muhim lingvistik xususiyatlari sifatida fonetik jihatdan ”kontrast” ya’ni, juft unililar (o-o, y-i, a-e) ning mavjudligi, natijada singormonizm qonunining saqlanishi, so‘z boshida kelgan yuqori o‘rta ko‘tarilishdagi unilarning (i-e, u-o, u-e) tarzida diftonglashuvi, qisqa uzun unilarning farqlanmasligi, so‘z boshida y>dj, so‘z oxirida e>v tovushlarining kelishi, kelishik shakli magon, sag‘on, ug‘on va hozirgi zamon davom fe‘lining -djatur formasi yasalishi, hozirgi-kelasi zamon sifatidosh to‘g‘on shaklida kabi hodisalarni ko‘rsatadi.

Ko‘rib o‘tkanimizdek, tasniflarning hammasida ham Surxondaryodagi o‘zbek shevalari “j” lovchi guruhga kiruvchi qipchoq dialektining bir tarkibiy qismi sifatida qayd qilinadi. S. Rahimov j-lovchi o‘zbek shevalaridagi morfologik belgilarning turlarini ko‘rsatib quyudagilarni yizadi: “Minor, Boymoqli G‘o‘rjak, Kallamozor, Istara kabi qishloq shevalarida -lar ko‘plik affiksi fe’llarni tuslaganda, ikkinchi shaxsning ko‘plik formasi *aq*, *iner*, *ner* shakllarida ishlatiladi. Masalan, boringizaq, kengizaq<sup>12</sup>. Bu narsa esa olimlarimizning mazkur hududni atroflicha o‘rganganligidan dalolat beradi. Surxondaryo o‘zbek shevalarini alohida o‘rgangan olim S. Rahimov ushbu jarayonda shunday munosabat bildiradi. “Albatta, bu fikrlar to‘g‘ri, lekin bu hududda boshqa shevalarning mavjudligini uchratmaymiz”<sup>13</sup>.

O‘zbek tili xilma-xil dialekt va shevalarni o‘z ichiga olishi bilan harakterli ekanligi tilshunos olimlarimiz tomonidan aytilgan. Shu nuqtai nazardan

---

<sup>12</sup> Fayziyeva X.Q. O‘zbek tili Boysun-Sho‘rchi guruh shevalarining lug‘at xususiyati. -Termiz-2023yil.21-22-b.

<sup>13</sup> Раҳимов С. Сурхондарё вилоятидаги ўзбек шевалари лексикаси. -Тошкент. 1985. 63-б.

Surxondaryodagi o‘zbek aholisining tili ham yaxlit bir butun shevani tashkil etmaydi. Chunki bu yerda turli shevalarni uchratish mumkin<sup>14</sup>.

Shundan kelib chiqib olim Surxondaryodagi o‘zbek shevalarini quyidagicha tasnif qiladi:

- 1) j-lovchi o‘zbek shevalari (qipchoq lahjasiga xos shevalar);
- 2) y-lovchi o‘zbek shevalari (qorluq lahjasiga xos shevalar);
- 3) Ikki tilda so‘zlashuvchi shevalar <sup>15</sup>.

J-lovchi o‘zbek shevalarining hammasi o‘zining til xususiyatlari jihatidan butun hudud bo‘yicha bir xil emasligini inobatga olish, muallif qipchoq lahjasiga xos shevalarni ham ikki guruhga bo‘ladi.

Birinchi guruh sheva vakillari hududiy jihatdan viloyatning janubiy-g‘arbiy va shimoliy -g‘arbiy tomoni: *Boysun tumanidagi* Rabot, Yomchi, Pitov, Kofrun, Bandixon (o‘sha vaqt Boysun tumaniga qaragan), Tuda Xo‘jabulg‘on, Munchoq, Tillakamar, Chilonzor, Kallamozor, G‘orjak, Xo‘jao‘lkon, Dashtig‘oz, Pulhokim, Pudina, Sarkamish, Tangimum, Xomkon, Padang, Besherkak; *Jarqo‘rg‘on tumanidagi* Minor, Oqtepa, Ismoiltepa, Qizilmozor, Cho‘pon, Quyun, Booymoqli, Chinobod; Qumqurg‘on tumanidagi Azlarsoy, Elbayon (hozirda Sho‘rchi tumaniga qarashli hudud) Yantoqli, Achamoyli, Qorsaqli, Xo‘jamulki, Zarkamar, Lalmikor, Yangiyer, Bo‘ston, Guliston, Qumqurg‘on, Sayhon, Paypan, Paxtakor, Ulus; *Angor tumanidagi* Tallimaron, Takiya, Gilambob, Angor; *Sherabod tumanidagi* Qulliqsho, G‘orjak, Xo‘jakiya, Chuqurko‘l, Talashqon, Yangiyo‘l, G‘o‘rin, Achamoyli, Loyliq, G‘ambur, Tug‘uz, Oqqo‘rg‘on, Bobotepa; *Termiz tumanidagi* Dehqon, Ozod, Yangiariq; *Muzrabot tumanidagi* Beshqo‘ton kabi qishloq va aholi manzilgohlarida yashovchi kishilarni kiritadi. Shu guruhdagi shevalarda singarmonizm hodisasi (tanglay garmoniyasi) kuchli ekanligini ta‘kidlaydi, so‘z va so‘z shakllarining o‘zak-negiziga qarab affikslarning qattiq-yumshoqligi,

---

<sup>14</sup> Раҳимов С. Ўзбек тили сурхондарё шевалари. –Тошкент. 1985. 53-б.

<sup>15</sup> Раҳимов С. Сурхондарё областидаги ўзбек шевалари лексикаси. -Тошкент.1974.13-б.

o'zgarishini aytadi. Masalan, Munayaqqa (bu yoqqa), barg'anakan (borgan ekan), jarteke (hazilga) kabi.

Bu guruhdagi shevalarda (u), (i) kabi lablanuvchi unlilar o'rnida (y), (i) singari lablanmagan unlilarni ishlarish harakterlidir-deya quyidagi misollarni keltiradi: *bo'lamo'q* (*bo'lamo'q*-atalaning sut aralashtirib pishirilgan xili), *shipirtki*>*shivirki* (supurgi), *shubaq* (suvoq).

Qipchoq lahjasiga xos ikkinchi guruh sheva vakillariga esa viloyatning shimoliy-sharqiy qismi: *Sariosiyo tumanining* Chimildiq, Boybo'ri, Bakati, Konikon, Fayzobod, Oqostona, Qo'rg'oncha, Bobotog', Malik, Oqmasjid hozirda Uzun hududiga mansub), Tolto'g'ay, Xursan, Galamulla, Qo'lmaykan, Jarabod: *Denov tumanidagi* O'zgarish, Oqtosh, Yangiqishloq, Baxt, Shamolli, Eshako'ldi, Zartepa, Chuqurqishloq, Saksontepa, G'alaba, Hayrabod, Qizilsuv; *Sho'rchi tumanidagi* Epoq, Mo'minqul, Obishir, Mirshodi (Hozir bu qishloqlar Oltinsoy hududiga kiradi). Obodon, Qatag'an, Qizilgul qishloqlarida yashovchi aholini kiritgan.

Muallif bu guruhdagi shevalarda singarmonizm saqlangan bo'lsa-da, ayrim o'rinlarda bu jarayon buzilganligini ta'kidlaydi. Birinchidan, so'z boshida (j)o'rnida ko'pincha (y) ishlatishga urinish seziladi. Masalan: jezze > yazne (pochcha), jamaq > yamaq(yaloq). Ikkinchidan, adabiy tilda (j-bilan aytiladigan so'zlar (jun), (yun) singari shevada juq-yuq tarzida talaffuz holatini uchratish mumkin. Uchinchidan, "emoq" to'liqsiz fe'lidan yasalgan komponentlarga singarmonizm ta'sir etmaydi: bore ken (bor ekan), boruduk (borgan edik), kelemish (kellar emish). To'rtinchidan, qaratqich va tushum kelishigi o'rin-payt va jop'nalish kelishigini farqlamasdan qo'llash kabi holatlar mavjudligini qayd etadi.

Y-lovchi shevalarni S. Rahimov ikki guruhga ajratadi: 1. Termiz-Sariosiyo. 2. Xatak-Xonim guruh shevalari<sup>16</sup>. Y-lovchi qorluq lahjasiga xos shevalar aksariyat viloyatning shimolida joylashganligini aytgan. Bu sheva vakillari

---

<sup>16</sup> Fayziyeva X.Ch., O'zbek tili Boysun-Sho'rchi guruh shevalarining lug'at xususiyati". -Termiz-yil 2023-yil.61-bet.

hududiy joylashuvi Sariosiyo tumanidagi Dashnobod, Qorasuv, Xokim, Uzun, Vordisoy, Turkqishloq, Gazarak, Denov tumanining Vaxshivor, (bu oltinsoy tumani); Sho'rchi tumanidagi Qorluq (Oltinsoy tumani); Sherabot tumanidagi Xatak, Laylagon, Xujanqo, Maydon, Qorabog', Novbog', Chig'atoy va Termiz atrofidagi hududlarda istiqomat qiladi. Bu sheva vakillari etnik jihatdan turkbarlos, chigatoy, qatag'on, elbegi urug'laridir. Bu shevalarning bir qismi, chunonchi, Xatak, Laylagon, Xujanqo kabi qishloq shevalari xususiyatlariga ko'ra Quyi Qashqadaryodagi g'unlisi shevalariga ancha yaqinlashadi<sup>17</sup>.

**O'ziga xos xususiyatlari.** Adabiy tildagi *tomon, somon, yomon*, so'zlarining birinchi bo'g'inida ko'p hollarda (a) unlisi ishlatiladi: *tamon, samon, yamon* kabi.

Ayrim qishloqlarda (Gazarak, Qorasuv, Xonim) adabiy-orfografik (o) unlisi bir guruh so'zlarda til o'rta (o')ga o'tib lablanadi: *o'ta* (ota), *o'na* (ona), *o'pa*(opa)

Ikki va uch bo'g'inli so'zlarning oxirgi bo'g'inidagi I unlisi Samarqand- Buxoro tilidagi shevalarga o'xshash u tarzda talaffuz qilinadi: *ovsun* (ovsin), *etuk* (etik), *xotun* (xotin), *ayttuk* (aytdik).

Bu shevalarning ko'pchiligida adabiy orfografik a, o unilari o tarzida juda oldingi qatorda va ikki lab oldinga tomon cho'ziqroq talaffuz etiladi: *onor* (anor), *darvoze* (darvoza).

U, bu, shu kabi ko'rsatish olmoshlari yer so'zi blan qo'shilib qo'shma so'z hosil qilganda (u) unlisi (o)ga o'tib (e) tushuriladi va shunday qo'llaniladi: or, sher, bor.<sup>18</sup>

Biz yuqorida Surxondaryo o'zbek shevalari bo'yicha ish olib borgan olimlarimizning ishlari bilan tanishdik. Ayniqsa, mavzumizga bevosita aloqador bo'lgan S. Rahimovning uch bosqichli tasnifi Surxondaryo o'zbek shevalari haqida keng ma'lumot olishga imkon beradi. Hozirgi kunda til va nutqning ahamiyati yanada oshib ketdi. Bu esa umumxalq o'zbek tili mahalliy shevalarning

---

<sup>17</sup> Рахимов С. Сурхондарё областидаги ўзбек шевалари лексикаси. -Тошкент. 1974. 56-б.

<sup>18</sup> Рахимов С. Сурхондарё областидаги ўзбек шевалари лексикаси. -Тошкент. 1974. 67-70-б.

lugʻatini yaratish masalasini talab etadi. Prof. A. Gʻulomov dialektal lugʻat tuzish haqida fikr yuritib shunday degan edi: Oldin viloyatlar lugʻatini yaratib, keyin oʻzbek xalq shevalari lugʻatini yaratish kerakmi yoki avval oʻzbek xalq shevalari lugʻatini tuzib, keyin viloyatlar lugʻatini tuzish kerakmi? (Lugʻat haqida qoʻshimcha qilaman). Keyingi yillarda viloyatlardagi oʻzbek xalq shevalari leksikasini bir necha guruhlariga, qismlarga boʻlib oʻrganish dialektologiya sohasining talablaridan biriga aylandi. Surxondaryo oʻzbek shevalarini ham fonetik-morfologik va leksik sathlarda qismlarga boʻlib oʻrganish olimlarimiz oldidagi muhim masalalardan biri boʻlib turibdi. Masalan, “Sherobod rayon joʻqchilari shevasi” (A. Mamatqulov), “Janubiy Surxondaryo qipchoq shevalari morfologiyasi” (X. Alimurodov), “Surxondaryo oʻzbek shevalari leksikasi”, “Oʻzbek tili Surxondaryo shevalari”, “Surxondaryo oʻzbek shevalari lugʻati” (S. Rahimov) kabi asarlar shular jumlasidandir.

### **1. Qadimgi turkiy til hamda eski oʻzbek tilida qoʻllangan, faqat shevalarda maʼno va shakl jihatidan oʻzgarmay ishlatilayotgan soʻzlar**

Oʻzbek shevalarida shunday leksemalarni uchratish mumkinki, bu birliklar qadimgi turkiy yoki eski oʻzbek adabiy tiliga xosdir. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida uchramaydigan bu kabi leksemografni Surxondaryo oʻzbek shevalarida ham koʻrish mumkin. *Oʻmgan* (koʻkrak, toʻsh maʼnosida), *bovir* (jigar) kabi. Oʻzbek qipchoq shevalarining eski adabiy tiliga munosabatini va bu tilning shakllanish va keyingi taraqqiyotida qipchoq shevalarining ahamiyati dialektolog olim X. Doniyorovning “Eski oʻzbek tili va qipchoq dealektlari” nomli ishida aks etgan. Surxondaryo oʻzbek shevalarining asosiy qismini qipchoq guruhi tashkil etadi. X. Doniyorovning ilmiy ishida M. Qoshgʻariyning “Devonu lugʻatit-turk”, XV-XVI-asrlarda yashab ijod etgan oʻzbek mumtoz adabiyotining yetuk namoyondalari Lutfiy, A. Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, M. Solih va boshqa tarixiy yozma manbalarda qipchoq shevalariga oid koʻplab dalillar borligi faktlar asosida keltirilgan. Ishda M. Qoshgʻariyning devonida qayt etilgan koʻplab leksemalarni namuna tariqasida keltirib, ular bevosita qipchoq shevalarining mulki ekanligini isbotlab beradi. Keltirilgan misollar ichida Surxondaryo j-lovchi qipchoq

shevasida hozir ham qo'llanilayotgan ba'zi so'zlar muallif fikrini to'la tasdiqlaydi.

Jumladan, biz yuqorida aytib o'tgan *o'mgan* so'zlarni misol qilib keltirish mumkin:

1. *O'mgan* (ko'krak): jigitga o'xshab o'mganingni ko'tarib jur (Muzrabot).

2. *Burun* (ilgari, o'tgan): *Buringi* zamonda chirag'ding jorig'ig'a dars qilardiq (Boysun).

3. *Utmoq* (yutmoq, yutib olmoq) *ungur* (yeng) kabi.

Undan tashqari Surxondaryo o'zbek shevalarida iste'molda bo'lgan o'zbek adabiy tilida qo'llaniluvchi ba'zi misollarni ko'rishimiz mumkin:

*tog'i* (tag'in yana), *yarmak* (ergashmoq), *quriqshamoq* (suvi qochib qurib qalmoq), *kelbat* (ko'rinish, qomat, gavda bichim), *o'ra* (chuqurli), *o'r* (o'jar), hamma olmoshi o'rnida: bari, jovliq, joppa, tomamnay, putunnay, sho'po'ra, tekis kabi leksemalar qo'llanilgan.

Dialektolog olim N. Shoyimova ta'kidlashicha yuqoridagi leksemalarning ko'pchiligi Qashqadaryo o'zbek shevalarida ham aynan shu ma'noda qo'llaniladi

19 .

## **2. Adabiy tilda uchramaydigan faqat shevaga xos so'zlar**

O'rganilgan shevalarning lug'at tarkibida uchraydigan bir guruh so'zlarni adabiy til leksikasi bilan qiyoslaganda ularning adabiy tilda ishlatilmasligi aniqlandi. (prof. A. G'ulomov bunday so'zlarni "*leksik dialektizm*" deb ataydi).

Masalan, bunday so'zlarga *oracha*-urishayotgan ikki kishini ajratib qo'yimoq: *orachag'a* bir toyaq deganakanlar (Qumqurg'on).

S. Rahimovning nomzodlik disertatsiyasida ham ushbu leksema uchraydi va boshqa qardosh tillarda ma'no anglatishi aytib o'tilgan. Xususan, *aracho'* (oraga tushuvchi odam) xokas, *aracho'la* (qo'riqlamoq) kabi leksemalar ma'nolari bilan qo'llanilgan. Demak ko'rinadiki, *oracha* leksemasi ayrim turkiy tillarda fonetik o'zgarishga uchragan holda talaffuz etiladi. Faqatgina shevalardagina uchramiz. Qadimgi yozma yodgorliklarda *ko'luk*-ish hayvoni:

---

<sup>19</sup> Раҳимов С. Сурхондарё областидаги ўзбек шевалари лексикаси. -Тошкент. 1974. 83-б.



eski o‘zbek adabiy tilida: *ko‘luk-ot-ulov*, qirg‘iz: *ko‘luk-ish* hayvoni ma‘nolarini anglatadi.

Mazkur shevalar leksikasidagi shakl va ma‘no jihatdan adabiy tilda uchramaydigan leksemalarning ayrimlari qadimgi yozma yodgorliklarda qo‘llangan va hozirgi vaqtda ba‘zi turkiy tillarda ishlatiladi. Masalan, *kelik-minish* buchin yaroqli ot, ulov<sup>20</sup> va ushbu so‘z Surxondaryo o‘zbek shevalarida esa *yuk* va *odam* tashuvchi transport turiga nisbatan ishlatiladi.

O‘zbek xalq shevalaridagi dialektal so‘zlarning qo‘llanilishi jihatidan bir-biriga yaqinligi ular orasidagi munosabat qadimdan mavjudligidan dalolat beradi.

Shakl va ma‘noda farq qiladigan bir qator so‘zlar borki, ularni adabiy til me‘yorida ham undosh shevalardaham unday so‘zlarning tarqalish doirasi tor bo‘lib hatto bir-biriga yonma-yon bo‘lan shevalarning biridagi leksema ikkinchisi uchun tushunarli bo‘maydi.

Masalan, sutni uyitish uchun ishlatiladigan qatiq bo‘lagini Beshqo‘ton qishlog‘i shevasida *ko‘nargi* deb ataydi. Boshqa bir qishloqda esa shu ma‘noda *tomizg‘i*, *ko‘rluk* kabi leksemalar orqali ifodalangan. Boysun atrofidagi qishloqlarda qorako‘l qo‘yni dunbasi kichik turini- *digil* deb atashadi. Boshqa shevalarda esa qorako‘l qo‘yni *chubalang*, *chibalang*, *chuvalang* shaklida qo‘llaydilar.

Tandirning pastki shamol kiradigan yon teshigini katmon (Qumqurg‘on). Adabiy tilda uchramaydigan leksemalarning bir nechtasini ko‘rsatib o‘tamiz:

*xulul*-na‘matak, *xodana*, *dudana*-qattiq yog‘ochdan ipga tizilib beshikka taqiladigan bezak, *g‘org‘o‘l*-katta soy, *qoruv*-kuch, darmon.

### **3. Adabiy til bilan shevalarda shaklan bir xil bo‘lib ma‘noda farq qiladigan so‘zlar:**

Surxondaryo o‘zbek shevalarida ba‘zi so‘zlar borki, o‘zbek adabiy tili lug‘at tarkibidagi xuddi shunday so‘zlar bilan fonetik tuzilish jihatdan o‘xshash bo‘lib, ma‘no jihatdan qisman yoki to‘liq farq qiladi. Bunday hodisa turli tumanlikka ega bo‘lgan o‘zbek adabiy tilining har bir shevasiga xosdir. Shakli

---

<sup>20</sup> Девони луғотит-турк. -Тошкент. 1963.372-б.

umumxalq o'zbek adabiy tilidagi so'zlar bilan mos bo'lib ma'noda esa qisman yoki toliq farqlanuvchi so'zlar semantik dealektizmlar hisoblanadi.

Adabiy tildagi so'zga fonetik strukturasi o'xshash bo'lib ma'noda farq qiladigan so'zlarning ko'rinishi quyidagicha:

1. Adabiy tildagi ma'nolardan boshqa ma'nodagi ishlatiladigan so'zlar: masalan, adabiy tilda "*bosqich*" so'zining pog'ona, maktab (bosqichli) kabi ma'nolari bor, shevalarda bu ma'no qo'llanmaydi, balki 1) *siyoh*, *shimg'ich*, 2) *drakol*, 3) *o'tga shamol beradigan pichoqsozlar asbobi* kabi ma'nolarda qo'llanadi; Adabiy tilda bodi -haqorat ma'nosida ishlatiladi.

J-lovchi *ilvesin* 1) oyoq kiyimi, 2) ustki yopinchig' kiyim: avulg'a kiyip boratig'an ilvesinim djoq (Qumqo'rg'on). Adabiy tilda *ilvasin*-ovchi o'ljasi, yovvoyi qush va uning o'jasi.

Adabiy tilda *daxana* -biror narsaning ochiq tomoni, *hayot*-devor bilan o'rab olingan yer maydon, bog'. Adabiy tilda hayot-turmush yashash.

2. Adabiy tildagi so'zlardan qisman farq qiladigan so'zlar. Bunday so'zlar adabiy tildagi leksema bilan shaklan mos bo'lib, ma'noda biror jihati bilan yoki stilistik bo'yoqqa ega bo'lishi natijasida farq qiladi. Ular quyidagi ko'rinishlarga ega:

a) adabiy tildagi so'z bilan, aslida, bir xil ma'noni anglatib, shu so'zni kiyingi taraqqiyotiga yasama ma'noga bo'lgan so'zlar.

Masalan: j-lovchi *xelek*: y-lovchi *xalak*, 1. Sarsonlik, ovoralik. 2. Chillak o'yinining bir turi: quru *xelek* bog'anim qoldu (Xujabulg'on). O'rik shevada turshak ma'nosida, o'rik adabiy tilde meva, shevada esa o'rik o'rniga "zardoli" leksemasi qo'llaniladi;

b) adabiy til bilan bir xil ko'rinishga ega bo'lgan xuddi o'shanday so'zlarga qo'shimcha ma'no yuklanadi. Masalan, y-lovchi, abzal, opzal 1) ot anjomi; 2) yaxshi, a'lo, ustun; 3) oyoq kiyim. Adabiy tilda *abzal* ot aslahasi.

Y-lovchi, *movrit*, J-lovchi, *mevrit*-to'y, maraka, payt. Adabiy tilda *movrid*-o'rin, *payt*. J-lovchi *zat*, y-lovchi 1) zot-uloq o'yinida tashlanadigan mol, 2) zot -avlod, 3) zot -nav.

Bu qollag‘i *zatti* Norxon chobog‘on ayirdi (Chilonzor).

O‘rta Qashqadaryo o‘zbek qipchoq shevalarini tadqiq etgan olim N. Shoimovanning guvohlik berishicha *zot* so‘zi Qashqadaryo o‘zbek shevalarida ham aynan shu ma’noda qo‘llaniladi. Undan tashqari *zot* leksikasini qarta o‘yinidagi ko‘zir atamasi o‘rnida ishlatilishi ham aytilgan. *Adabiy tilda esa 1. Zot -urug‘ avlod, zurriyot, 2. Nasl, nav* ma’nosida.

Bu yil chorva xo‘jaligimizda zotdor (zotli) qoramollar soni ko‘paydi (gazetadan).

3. Adabiy tildagi so‘z bilan o‘xshash bo‘lgan leksema shevada ko‘chma ma’noda qo‘llanadi.

Masalan: y-lovchi *dirranda*: 1) *qipyalong‘och*, 2) *yirtiq kiyim*.

Adabiy tilda *darranda* – *yirtqich hayvon*, j-lovchi turum *-tuturuq, labz* degani ma’noni anglatadi.

Masalan, *Turumsiz* odame ishomma (Beshquton). Adabiy tilda turum-*eshik turumi*. J-lovchi *zulpik*, y-lovchi *zulp*-eshik xalqasi, zanjiri. Yeshiqting *zulpigi* julinib ketibdi (Beshquton).

4. Adabiy tilda stilistik bo‘yog‘i bilan farq qiladigan so‘zlar. Shevalardagi bir qancha so‘zlar nutq jarayonida adabiy tildagi xuddi shunday leksemalarni ijobiy yoki salbiy ma’no bilan qo‘llaydi, natijada bunday so‘zlar stilistik bo‘yoqqa ega bo‘lib adabiy metoddagi so‘zdan farqlanadi. Masalan, quyidagi so‘zlarda diqqat qaratamiz:

J-lovchi hunerment y-lovchi hunarmand-*mug‘ombir, ayyor, puxta* degan ma’noni anglatadi.

Juda *hunarmendsiz* meni joman bopladingiz (Xujabo‘lg‘on). Adabiy tilda hunarmand -hunarli, kasbli.

J-lovchi, *keyveni*, y-lovchi *kayvon*-har kimga o‘rgataveradigan, mahmadona: mengnge ko‘p keybeni qilma. Y-lovchi, *kayvoni* -har kimga o‘rgataveradigan, mahmadona; mengnge ko‘p keyvenlik qilib voturma o‘zim bilemen neme ish qilishdi (Qumqo‘rg‘on). Adabiy tilda *kayvoni -dasturxonchi* demakdir.

Demak, xalq shevalariga xos bunday leksek birliklarning mavjud bo'lishi so'z ma'nolarining taraqqiyoti bilan bog'liq hodisa deb qarash lozim. Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, jonli so'zlashuv tili o'ziga xos bir qator xususiyatlarga ega bo'lib, unda so'z boyligi, ifoda imkoniyatlarining xilma-xilligi cheksizdir.

### **Bob bo'yicha xulosalar**

Shevalar har bir xalqning milliy boyligi desak xato qilmagan bo'lamiz. Shevalar insonning tarixi, o'tmishidan, an'ana va qadriyatlarini namoyon etuvchi birlikdir. Tilda shevaga oid so'zlarning ko'pligi bu o'sha tilning boy til zaxirasiga ega ekanligidan dalolat beradi. Shevaning o'rganilishi qaysi xalq bo'lishidan qat'iy nazar millat tilining rivojlanishi, tarixi va kelajagini bog'lash uchun samarali yo'l desak adashmagan bo'lamiz. Aslida dialektologiya-tilshunoslikning bir sohasi bo'lib, bu sohadagi ishlar dastavval XI asrdayoq M. Qashg'ariyning "Devoni lug'atut-turk" asaridan boshlangan. Jahon miqyosida esa XVI asrda Germaniyada shakllandi. Bundan tashqari Niderlandiya, Rossiya davlatlarida ham bir qancha ishlar olib borilgan.

O'zbek tilshunosligida bu sohaga oid ilk tadqiqotlar XX asrning 20-30-yillarida boshlandi. Bu kabi ishlar E. D. Polivanov, K. K. Yudaxin, I. I. Zarubin singari olimlar tomonidan olib borildi.

Bundan tashqari G'ozi Olim Yunusov, Sh. Sh. Shoabdurahmonov, F. Abdullayev, X. Doniyorov, B. Jo'rayev, A. S. Shermatov A. Jo'rayev, A. To'raqulov kabi yetakchi shevashunoslarning xizmatlari beqiyosdir.

O'zbek tili shevalarining uyg'unlashishi yo'li bilan tashkil topgan bo'lib hozirgi o'zbek tili uch asosiy guruhdan tashkil topganligi va mana shu uch asosiy guruhga qaysilar kirishi, qaysi hududlar qanday sheva vakillarini o'zida qamrab olganligi haqida dissertatsiyamizning birinchi bobida o'rganildi, tahlil qilindi. Bu uch asosiy guruhga: qipchoq, qorluq, o'g'uz shevalarining o'zaro qo'shilishidan paydo bo'lgan.

Dissertatsiyamizning bu qismida dialekt va shevalarning guruhlarga ajratilishi, qaysi olim shevalarni qay holatda tasnif etgani haqida ma'lumotlar aytib o'tdik.

Ushbu bobning ikkinchi faslida Surxondaryo o'zbek shevalari bo'yicha ilmiy ish olib brogan olimlarimiz haqida batavsil ma'lumot yig'dik va ularning ishlarini qiyosan tahlil ham etdik desak mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, S. Rahimovning "Surxondaryo shevalari leksikasi" nomli ilmiy ishlarini ishimizning mazmun-mohiyatini ochishda asos qilib oldik. Bundan tashqari ushbu bobda adabiy til va shevada shaklan bir xil bo'lib ma'noda farq qiladigan so'zlar, adabiy tilda uchramaydigan faqat shevaga xos so'zlar haqida keltirilgan adabiyotlardagi ma'lumotlar va o'zimizning misollar asosida fikr-mulohaza yuritdik.

## **II.BOB. O‘ZBEK SHEVALARINING LEKSEK XUSUSIYATLARI**

### **2.1 Shevalarda polisemiya va omonimiya hodisasi**

Har qanday til qurulishida bo‘lgani kabi, shevaga oid so‘zlar tarkibida ham ko‘p ma‘nolilik, omonimlik, sinonimlik, antonimlik hodisalari kuzatiladi<sup>21</sup>. Shevalarning shakl va ma‘no-munosabat shakllari yuzasidan rus olimlaridan P. I. Avenesov, L. P. Jukovskiy, V. I. Karpov kabi olimlar tadqiqotlar olib borgan bo‘lsa-da, o‘zbek olimlardan A. Hojiyev, M. Mirtojiyev, S. Isamuhammedova, M. Rahmatullayeva, A. Doniyorov, B. To‘ychiboyev, R. Yunusov, B. Umrqulov kabilar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan<sup>22</sup>. Ma‘no masalasi umuman tilshunoslikda muhim masalalardan biri bo‘lib kelgan. Ma‘no tarmoqlarini tekshirish jarayonida uni oddiy obektlardan izlash mumkin. Polisemantik so‘zlar ham ancha munozarali mavzulardan biridir. XX asrning 60-yillarida polisemiya hodisasi hammaning diqqatini jalb qila boshladi. O‘zbek tilida polisemiya masalalari bo‘yicha tilshunos olim T. Aliqulovning tadqiqot ishlari mavjud.

---

<sup>21</sup> Xolova M.A. O‘zbek milliy shevalari korpusi tadqiqi. -Termiz-2022. 59-bet.

<sup>22</sup> Xolova M.A. O‘zbek milliy shevalari korpus tadqiqi. -Termiz-2022. 60-bet.

Ammo o'zbek tilidagi izohli lug'atda berilgan polisemantik sheva variantlari masalasi dolzarb mavzuligicha qolmoqda<sup>23</sup>.

Ma'lumki, ko'p ma'nolik hodisasi *polisemantizm* hisoblanadi va bunday xususiyatga ega bo'lgan so'zlarga polisemantik yoki ko'p ma'noli so'zlar deb yuritiladi.

Kishilar o'zaro aloqa qilish og'zaki nutq jarayonida bir so'zni bir necha ma'noga qo'llaydilar, natijada ko'p ma'noli so'zlar yuzaga keladi. So'zning leksik ma'nosidagi taraqqiyot natijasida boshqa ma'no tarmoqlari ajralib yasama ma'no paydo bo'ladi. Lekin hayotdagi hamma konkret nomlar alohida ularni o'zlashtirib, ulgurish imkoni bo'lmasdi.

Har bir so'z odatda predmet, belgi kabilarning atamasi sifatida paydo bo'lgan va so'ngra boshqa turdagi predmet, belgilarga tadqiq qilinadi. Predmet va narsalarga berilgan nom shu narsa hamda predmetga va hodisalarga nom berganda o'sha predmet yoki hodisadagi belgilardan biriga asoslanadi. Bir predmetdagi nomni boshqasiga ko'chirishda ham ular o'rtasidagi o'xshashlikni nazarda tutadi.

Masalan: j-lovchi *djalak*, y-lovchi *yalak//yalag'* so'zlari aslida "*itga ovqat beradigan idish, chuqurcha*" ma'nolarini ifodalaydi. Qiyos: ayrim shevalarga molni suyib qonini so'yib oqizadigan chuqurcha ma'nosida ham ishlatiladi. Tadqiq qilingan shevalarda *kiyit // kiyit* so'z to'rt xil ma'noni bildirad:

1) *kelinga to'y arafasida yuboriladigan kiyim kechak*; 2) *o'g'il qiz tuylarida beriladigan sarpo*; 3) *do'stlik ramzi sifatida beriladigan kiyim*; 4) *ta'ziyaga keluvchilarga beriladigan ro'molchalik*.

Ko'rib turganimizdek, bu misollar orasida bir qator yaqinlik mavjud. Shuningdek, shevalarda qo'llaniladigan *bov - bav* so'zini olib ko'raylik. Aslida *bov* (adabiy -orfografik bog') biron narsani o'raydigan o'rama to'n yoki yaktak *bog'ichi, uzunbo, uzuxbov, qolbov* kabi birikmalarda aniqlanish vazifasida kelayotgan *bav* so'zlari o'rtasida funksiyadoshlik va tashqi shakliy o'xshashliklar bor. Polisemantik so'zlardagi yasama ma'no bilan eski ma'no ma'lum

---

<sup>23</sup> Raimnazarova N.X. O'zbek tilining izohli lug'atlarida shevaga oid so'zlarning berilishi. -Termiz-2022 66-bet.

davrlargacha teng yashaydi. Yangisi eskisini inkor etmaydi. Ogʻzaki nutq jarayonida ular aniq talaffuz etilib boradi. Davr oʻtishi bilan oʻsha leksik birlikka alohida ehtiyoj qolmagach, shu soʻz semantik jihatdan eskirib qolishi mumkin. Adabiy til va soʻzlardagi koʻp maʼnolilik koʻproq Xorazm hududida uchraydi, yaʼniki bu hududda oʻgʻuz lahjasining taʼsiri yaqqol sezilib turgan turk, turkman va oʻgʻuz tillariga xos boʻlgan leksik birliklar koʻp uchraydi.

Masalan, *gunash-quyosh, yigʻlayman-yigʻlaram, yoʻrgʻan-koʻrpa*<sup>24</sup>.

Polisemiyalar oʻzaro aloqa jarayonida soʻz maʼnolarini belgilaydigan soʻzlarning tilda yashashini taʼminlaydigan vositadir. Polisemiyalarning maʼno tarmoqlarini adabiy tilda matnda bajarsa, ogʻzaki nutqda soʻzlashuv jarayonini bajaradi. Polisemantik soʻzlarda leksik birliklar maʼno-mazmunini oʻzaro aloqadorlik tashkil etadi. Quyudagi polisemantik soʻzlarni tahlil qilamiz:

“**Badgoʻy**” soʻzi oʻz maʼnosida qoʻllanganda “*Igʻvo qiluvchi, yomon soʻzlarni ishlatuvchi*” degan maʼnoni anglatadi.

Masalan, shu *badgoʻy*, borlarni koʻrolmaydi, yoʻqlarga esa berolmaydi. (Hamza)<sup>25</sup>.

Bu soʻz koʻchma maʼnoda qoʻllanganda “*chaqib oluvchi kishi, yomon feʼlli*” degan maʼnolarni anglatadi. Oʻzbek tilining izohli lugʻatida keltirilgan.

“**Baqaloq**” soʻziga diqqatimizni qaratsak, ushbu soʻz adabiy tilda *hayvonlarning tuyoq bilan ilik oʻrtasidagi boʻgʻini* degan maʼnoni anglatadi.

Sayislarning otga solgan daviri tushadi tarlonning *baqalogʻiga* (“Oysulov”).

“**Boʻtaloq**” soʻzi ham shevada, ham adabiy tilda birdek koʻchma maʼnoni ifodalaydi. Agar shevada qoʻllansa, *ovqat turi* maʼnosida ifoda etiladi:

Soʻngra tugunini ochdi. Rosa ishtaha bilan qoʻyning *baqalogʻini* nonga qoʻshib yeya ketdi.

---

<sup>24</sup> Raimnazarova N. X. Oʻzbek tilining izohli lugʻatlarida shevaga oid soʻzlarning berilishi. -Termiz-2022.-bet.80-82-betlar.

<sup>25</sup> Raimnazarova N.X. Oʻzbek tilining izohli lugʻatlarida shevaga oid soʻzlarning berilishi. -Termiz, 2022-yil. 81-bet.



Tadqiq qilingan shevalar leksek semantikligi ko'p ma'noli so'zlar ham turli yo'llar bilan yuzaga kelgan. Bu holatni shevashunos olimlar S. Rahimov quyidagicha izohlaydi.

1. Voqelikdagi predmet xususiyatini, nomini boshqasiga ko'chirish, o'tkazish orqali sodir bo'ladi. Bunday nomni ko'chirish quyidagi holatlarda yuzaga keladi: a) bir predmetdagi belgi, xususiyat ikkinchi bir predmetdagi xuddi shunday belgi, xususiyatga o'xshashlik asosida ko'chiriladi. Predmetlar orasidagi bu o'xshashlik formal, rang, ichki xususiyati va sifatiiy tomondan bo'lishi mumkin. Masalan, *quydjavu*- 1) qo'y qo'yini qizdirib olinadigan yog', 2) mollarning yarasiga qo'yiladigan mahalliy dori, 3) kir iflos; *shuptur*- 1) suyuq tezak, 2) kir, iflos, 3) qo'lansa hid; b) payt, vaqt, makon va logik nuqtai nazardan bog'liqlik asosida polisemiylar yuzaga keladi. Masalan, *qur*- 1) davra, 2) o'tov kigizlarini bo'g'laydigan ip. *Xelgenchek*- 1) arg'imchoq, 2) osilmoq, 3) sarson bo'lmoq. *Qoramta*- 1) chala yongan yog'och, 2) cho'g' qoldig'i, 3) kuydirilgan paxta; c) so'zlarning ba'zi ma'nolari ba'zan uning emotsional xarakterning yaqinlashishi orqasida ham polesemiylar sodir bo'ladi.

Masalan: *qurch* -1) qatiq, 2) pishiq, puxta; *kermek*-1) o'rik daraxti (Po'stlog'idan olinadigan bo'yoq); 2) achchiq zahar; *uyrim* -1) girdob, 2) muyilish; g) so'z semantikasining yaqinlashishi natijasida polisemiya yuzaga keladi. Masalan: j-lovchi *tuqai* (shohsiz sigir): tuqamlar, kal qizlar, d) vazifadalilik jihatidan ma'noli ko'chirish orqali ko'p ma'noli so'zlar paydo bo'ladi. Masalan: *oshuv*-1) dovon-2) oshmoq fe'li; *chaqmoq*- 1) yashin, 2) chaqmoq fe'li; *toli qolixona* -1) to'y arafasida uzoqdan keluvchi mehmonlarga beriladigan yotoq, 2) cho'ponlar ko'chib qo'nadigan joy; *bel* 1) ish quroli, 2) dovon; *besturma* 1) usti yopiq yo'lak, 2) otlarning ustiga qish paytida yopiladigan jabdug'. e) tashqi shakliy o'xshashlik asosida: *zulpek*-1) xotin-qizlar zulfi, 2) eshik zanjiri; *minchoq* 1) munchoq, 2) qo'y va echkilarning bo'yniga bo'ladigan o'simta; *djiyak* -1) chiroz. 2) kiyim jiyagi, 3) daryo, ariq, yil chechasi; *dexene*- 1) har bir narsaning ochiq joyi, 2) dara, 3) suv taqsimlangan joy; j) so'z ma'nolarining torayish yo'li bilan o'zgarishi natijasida ham ko'p ma'noli so'zlar

hosil qilinadi. Masalan, *buxturma* nafasi qismlarining umumiy holatini ifodalagan bo'lsa, yasamalardan ma'noga ko'chgan, bug'da tovoq yopib pishiriladigan ovqat turida xususiylikni, ya'ni birgina ovqat turini ifodalab ma'no toraygan *do'mnama* (ovqat turi), *djalama* (shovla), *nonto'shama* (nonbosdi) kabi misollarda ham xuddi shunday o'zgarishlar bo'lgan. z) so'z ma'nolarini kengayishi yo'li bilan o'zgarishi ham polisemiyalarga olib keladi. Masalan: "*ebzel*" so'zi adabiy tilda "*aravaga qo'shilgan ot anjomi*", egar, to'qam, ayil, niyat umumiy nomi sifatida ma'lum, lekin shevalarda "*oyoq kiyim, ish qurol*" kabi qo'shimcha ma'nolarda ishlatiladi va ma'no tarmog'i kengayga. J-lovchi tumshug' (odam tumshug'i, tumshug') tena tumshug'i, tumshug'-etik tumshug'i kabilar. Ba'zi o'rinlarda so'z ma'nosining ko'chishi harakatning mohiyati orqali ham namoyon bo'ladi.

Masalan, Bola onasining izidan *izillab* qoldi.

Ushbu misoldagi "*izillab*" leksemasi "*chirqillamoq*", "*chirillamoq*" kabi ma'noda qo'llanyapti. "*Eltmoq*" so'zining o'z va ko'chma ma'nolari orasidagi o'z va ko'chma ma'no harakat-jarayonni ifodalash xususiyatiga ko'ra o'zaro aloqadorlikni tashkil etadi. Bunday birinchi ma'noda "*sig'ish, ketish*" ma'nosida ishlatiladi:

"Qo'lingdagi chelakka bor-yog'i 5kg shakar *ketadi*".

Ikkinchi ma'noda esa "*olib borib qo'yish, birga olib ketish*" degan ma'noda ham qo'llanadi.

Masalan, Tezroq jo'na, akang *eltib* tashlaydi (Xatak).

"**Dimlamoq**" so'zi *-ko'ndirmoqchi bo'lmoq, avramoq, aldamoq* kabi ma'nolarda qo'llanadi.

Masalan, Yodgor seni o'ldirishga ko'p *dimladi* (Hamza asarlaridan)<sup>26</sup>. Aslida, bu so'z faqatgina adabiy nutqdagina ko'chmalik holatini namoyon etadi. Ushbu so'zning adabiy tildagi muqobil variant esa "bo'g'moq, mahkam qilib o'rab qo'ymoq, to'smoq" degan ma'nolarni anglatadi. "*Gulsangi*" so'zi shevada "*katta tosh hovvoncha*" degan ma'noni anglatadi. Lekin bu so'zni ko'chma

---

<sup>26</sup> Raimnazarova N.X. O'zbek tilining izohli lug'atlarida shevaga oid so'zlarning berilishi. -Termiz-2022.82-bet.

ma'noda ham uchratishimiz mumkin. Ko'p ma'noli so'zlar shevada boshqa-boshqa hududlarda qo'llanganda har xil semalarni anglatadi. Lekin shuni unutmashimiz lozimki, polisemiya hodisasi o'zaro bir turkum doirasida kuzatilishini inobatga olgan holda polisemantik so'zlarda ma'no jihatdan o'zaro aloqadorlik sezilib turadi.

### **Sheva omonimiyasi**

Omonimlarning til taraqqiyotidagi o'rni beqiyosdir<sup>27</sup>. So'zlarning leksik-semantik xususiyatlari haqida gap ketganda omonimiya masalasiga ham to'xtalib o'tish lozim. O'zbek tilining umumiy lug'at fondidagi so'zlarning 1,32% gina bir ma'noli dialektizmlar tashkil etishidan ham bilishimiz mumkinki, o'zbek shevashunosligi polisemiya, omonimiya, sinonimiya hodisalarga boy, lug'at fondi rang-barangdir.

Barcha tillarda bo'lgani kabi o'zbek adabiy tilida ham shakli bir xil, lekin ma'nosi har xil bo'lgan leksik birliklar ko'plab uchraydi. Shunga ko'ra o'zbek tilshunosligida ham omonimlar o'rganishga yetarli e'tibor berib kelingan. Mazkur masalani nafaqat darsliklarda keng yoritilganligi, balki uni o'rganishga bag'ishlangan qator ishlarning yuzaga kelganligi shundan dalolat beradi. To'g'ri, bu ishlarning barchasi faqat adabiy til doirasidagi omonimlarni o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, ular leksikologiya va leksikografiyaning rivojiga hissa qo'shdi. Shu bilan birga tilshunoslikda, xususan, dialektologiyada "*shevalar omonimiyasi*" degan tushuncha ham mavjud. Bunday shevaga xos omonimiya hodisasini ham o'rganishi zarur ekanligi ayon bo'ladi. Chunki bu hodisani shevalar materiallari asosida tadqiq etish o'ziga xos leksikologik, leksikografik va dialektologik, dialektografik ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham ayrim shevashunos olimlar dastlab bu masalani yo'l-yo'lakay o'rganishgan bo'lsa, keyinchalik ba'zi ishlarda unda kengroq to'xtalib o'tiladigan shevaviy omonimlarga ko'proq e'tibor bera boshladi.

---

<sup>27</sup> Usmonova.S. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida omonimlar va sinonimlar. -Toshkent- 1959-yil. 86-bet.

Bu o‘rinda A. To‘raqulov, S. Rahimovlarning ishlarini hamda shevashunoslar jamoasi tomonidan yaratgan monografiyani ko‘zda tutamiz. Chunki mazkur malasaga maxsus to‘xtalib o‘tilgan.

O‘zbek adabiy tilida omonim deb hisoblangan ayrim leksemalar Surxondaryo o‘zbek shevalarida ham omonimlik darajasini saqlagan holda ishlatiladi, aniqroq aytganda, bu o‘rinda biror tarzda, masalan, ma’noda farq borligi ko‘zga tashlanmaydi. Adabiy tilda “o‘t” leksemasi omonim sifatida bir necha ma’noda qo‘llansa, shevada ham huddi shu ma’noda ishlatiladi. Fikrimizning dalili sifatida shevada misollar keltiramiz:

*o‘t 1-olov o‘ti, 2-o‘simlik vo‘t, 3-fe‘l o‘t, 4-insonning ichki a‘zosi.*

Shu bilan birga o‘rganilgan shevada omonimlar paydo bo‘lishining xilma-xil usullari mavjud ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Shevashunoslarning shu mavzudagi ishlari bilan tanishib chiqqanimizda ayon bo‘ldiki, ularda shevalarda qayd etilgan omonimlarning tasodifiy fonetik o‘xshashlik va yagona ma’noning ajralib kelishi hamda ulargan tarzda o‘zlashma so‘zning mavjud so‘z bilan mos kelishini aniqlashga harakat qilingan va bu fikrlarni tasdiqlovchi misollar keltirilgan.

To‘plangan materiallar tahlilidan shevada omonim tarzda qo‘llanilayotgan leksemalarning o‘ziga xos xususiyatlari borligi ayon bo‘ldi. Ularni quyidagicha guruhlashtirib o‘rgandik:

1) adabiy til leksemalari bilan sheva leksemalari omonimiyasi; *ertan-ertasi kuni* va *ertalab ma’nolarida, ko‘cha-ad go‘ja (ovqat turi)*.

2) shevaning o‘zidagi leksemalar omonimiyasi.

### **Adabiy til bilan sheva leksemalar omonimiyasi.**

Surxondaryo o‘zbek shevalarining leksik boyligiga kuzatishdan mazkur shevada xilma-xil sabab va omillar ta’sirida omonimlarning yuzaga kelganligi va jonli nutqda tez-tez qo‘llanilib turganligi ayon bo‘ldi. Avvalo, shuni ta’kidlab o‘tish joizki, o‘rganilgan obyektida adabiy tilda qo‘llaniluvchi leksemalar bilan shevada ishlatib kelayotgan leksik birliklarning ayrimlari omonimik qatorlarni tashkil etadi. Mana shu xil omonimlashish esa turli-tuman usul va yo‘llar

vositasida ro‘y beradi. Shundan kelib chiqib, adabiy til va sheva leksemalarining omonimlashuv hodisasini quyidagicha guruhlashtiriladi:

Adabiy tilda biron tushunchani ifodalovchi leksek birlik shevada ham ayni shu shaklda va shu ma‘noda qo‘llanaveradi. Biroq shevada mutloqo boshqa bir tushuncha ham ayni shunday shaklda leksek birlik bilan ifodalanishi mumkin. Ayni shu holat birinchi guruhga mansub omonimiyani keltirib chiqaradi. O‘zbek adabiy tilida zot leksemasi (“bir bobokalondan, ajdoddan tarqalgan nasl-avlod”), (“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” dan) ma‘nosini ifodalaydi. Asosan, kishilarga nisbatan qo‘llanadigan bu so‘z ayni shu ma‘noda Surxondaryo o‘zbek shevalarida ham ishlatiladi. Masalan, yaxshidan zot yomondan dod qoladi (Rabot).

Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalarini tadqiq etgan olim B. Jo‘rayevning ta‘kidlashicha, *zot (zet) zuyret (zurriyot)* so‘zi bilan juftlashib ayni shu ma‘noni reallashtirishda ishtirok etadi<sup>28</sup>.

**Zot** -so‘zining ayni shu ma‘noda Xorazm vohasi shevalarida ham qo‘llanilishi keng arealda tarqalganidan dalolat beradi:

Xular bizerdin, *zotumuzdan* emes<sup>29</sup>.

O‘zbek tilining ayrim shevalarida *zot* leksemasi yana qator ma‘nolarda qo‘llanilganligi qayd etilganki, bu ma‘nolarda adabiy tilda ishlatilmaydi. Masalan, *zot* so‘zi Qoraqolpog‘istondagi o‘zbek shevalarida leksikasida karta o‘yinida ko‘zir ma‘nosida qo‘llanilishi A. Ishayevning ishida qayd etilgan. E‘tibor qilaylik: Bu qallayam *zot* chillikma. Misollaridan ko‘rinib turibdiki, *zot* so‘zi ayni shu ma‘nosida tadqiqot obyektimizda ham qo‘llaniladi. Biroq Surxondaryo o‘zbek shevalarida *zot* so‘zining boshqa ma‘nolarini ham ko‘rish mumkin quyidagi misollarga etibor beraylik: eshitmadim demanglar, endi zotig‘a bir tana (Chilonzor). Attang, shu *zot* Boxtiyar polvonduki ediyov (Beshqo‘ton).

Misollardan ko‘rinib turibdiki, *zot leksemasi “uloq, poyga, kurash”* kabi milliy sport o‘yinlarida g‘oliblarga beriladigan mukofot, yani “*sovrin*” ma‘nosini anglatib kelmoqda. Bu leksemaning ayni shu ma‘noda j- lovchi qipchoq

---

<sup>28</sup> Jo‘rayev B. Qashqadaryo o‘zbek shevalari leksikasi. 2003. -211-bet

<sup>29</sup> Rahimov S. Ko‘rsatilgan aforeferat. 22-bet

shevalarida qo'llanilishini Qashqadaryo o'zbek shevalari materiallari ham tasdiqlaydi. N. Shoimovaning guvohlik berishicha, *zot* leksemasi u o'rgangan shevada ham "*g'olib chiqqanlarga beriladigan sovrin*" ma'nosini ifodalaydi <sup>30</sup>.

Bayon qilinganlarni jamlab Surxondaryo o'zbek shevalarida qo'llanayotgan *zot* leksemasini lug'at shakliga keltirsak quyidagi manzara hosil bo'ladi:

*Zot* 1-nasl, avlod <sup>31</sup>;

*Zot* 2-jins, nav;

*Zot* 3- sovrin.

Adabiy tilda sheva leksemalarining ayni shu tarzda omonimlashganligini yana quyidagi misollar bilan tasdiqlash mumkin. *Tom*-1-adabiy yil va shevada:

*Quyning binoning ustini berkitib turuvchi tepa qismi (Tamg'a etiyat bo'p chiq)* (Rabot).

*Tom* 2-faqat shevada: *uy, hovli-joy* <sup>32</sup>. Bu xil tom somasoq bilmaydi (Beshqo'ton).

***Qo'zilamoq***: 1- adabiy tilda va shevada: tug'moq, tullamoq (qo'y haqida).

***Qo'zilamoq***: 2- faqat shevada: tug'moq bola ko'rmoq (ayol haqida) Hamsiyaning qizi ham joqinda qo'zilab qosa kerak (Chilonzor).

***Chalma***: 1. *Tezak turi*; 2. *Erkaklar to'nining old va atrofidagi ipakdan to'qib bezatilgan bezak*<sup>33</sup>.

To'plangan misoliy materiallardan sheva omonimlarning bayon etilganlardan boshqacha bir xili ham mavjud ekanligi ma'lum bo'ldi.

Bilamizki, adabiy til doirasida qo'llanilayotgan u yoki bu leksema, ayniqsa, j-lovchi shevalarda o'zgacha talaffuz qilinadi. Ayni shu holat ko'plab omonimlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Masalan, adabiy tilda choy tarzda ishlatiladi, natijada choy ma'nosidagi chay leksema bilan omonimlashadi:

1.Dugona bir piyala *chay* ichib keting (Beshqo'ton).

<sup>30</sup> Shoimova N.Qashqadaryo o'zbek-qipchoq shevalari leksikasi. 62-bet.

<sup>31</sup> Tegishli misollar qatoridan keltirilgan.

<sup>32</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomlik. 1-tom. –Toshkent . O'zMU Davlat nashriyoti. 2006. shevada ham keltirilgan.

<sup>33</sup> Fayziyeva X.Q. O'zbek tili Boysun-Sho'rchi guruh shevalarining lug'at xususiyati. –Termiz. -2023y.64-bet.

2. Kirdi yaxshilab *chay* bo'lmasa dog'i qoladi (Jarqo'rg'on).

Keltirilgan misollarimiz adabiy til va shevadagi leksemalar omonimlashuvining bir turidi. Omonimlashuvning yana bir turi borki, bunda adabiy tildagi muayyan talaffuzga ega bo'lgan leksemaga shevada boshqa ma'noni ifodalaydigan, lekin aynan shunday talaffuz qiladigan leksema ishlataveriladi: Masalan, adabiy tilda “*to'g'ri keladigan loyiq, bop*” ma'nosida *mos* leksema qo'llanadi. U shevada ham ayni shu ma'noda ishlatiladi. Bir ko'ylak obedim *mos* kemadi (Qiziriq). Adabiy tilda “*ichkilikdan kayf qilgan, kayfi bor*” ma'nosida *mast* leksema ishkatilishini yaxshi bilamiz, shevada bu leksema *mos* tarzida talaffuz qilinadi, ikki xil ma'noli omonim hosil bo'ladi.

Shevada omonimlarning paydo bo'lishi va nutqda qo'llanishini tasdiqlovchi misollarga ham egamiz. Masalan, “*Urg'ochi qoramol*” ma'nosini ifodalovchi *sigir* leksemasi shevada *siyir* deb talaffuz qilinadi.

Bir *siyir* oldim, desangiz hiyli zottor chiqdi (Qumqo'rg'on).

Molni so'yib *siyirib* onglar (Beshqo'ton).

Misollardan “*siyirmoq*” fe'lining shevada adabiy tildagi “*qirib, tortib tozalamoq yoki to'plamoq, olib tashlamoq*” ma'nosini ifodalovchi yeldirmoq fe'lining talaffuzi oqibatida paydo bo'lgan leksik birlik ekanligi anglash qiyin emas.

### **Shevalarda omonimlikning vujudga kelishi**

1. *Zulp*- 1) o'tovning eshigidagi temir zanjir; 2) soch gajagi<sup>34</sup>;

2. *Yaxtak*- 1) yaktakning variantdoshi (ustki kiyim), 2) yaxtak(muzdek);

3. *Checha*-1) yoshi katta ayollarga murojaat, 2) kelinoyi;

4. *Chaqa*- 1) chaqaloq, 2) pul;

5. *Yit*- 1) yoqotilmoq, 2) o'lmoq;

6. *Daqqi*- 1) mahmadona, 2) chigil;

7. *Boybicha*- 1) murojaat so'zi, 2) 1-xotin. Radlovning ma'lumotiga ko'ra: “Mo'g'ullar katta xotinini *xotin*, tojiklar *bonu*, o'zbeklar *boybicha* deb atashgan”<sup>35</sup>.

---

<sup>34</sup> Fayziyeva X.Q. O'zbek tili Boysun-Sho'rchi guruh shevalarining lug'at xususiyati. -Termiz-2023. 64-bet

8. *Talaq*- 1) ajralish, 2) qora jigar;
9. *Berre*- 1) yangi tug'ilagan qo'zining go'shti, 2) ko'k o'simlik,
10. *Sirg'a*- 1) qo'y-echkilarning bo'yniga, qulog'i ostiga osilib turadigan o'simta, 2) tilla taqinchoq;
11. *Qara*- 1) qoramol sigir, 2) qaramoq;
12. *Chiraz*-1) do'ppining pastki qismiga, kizagiga qo'shib tikiladigan to'qima, 2) lozimning oastki qismiga qo'shib tikiladigan mato (Misollarning ba'zilari X. Fayziyeva ishidan keltirildi).

Leksikasi o'rganilgan shevada ayni shunday yo'l bilan omonimlarning paydo bo'lishini ruscha-baynalmilal o'zlashtirma leksik birliklar misolida tez-tez uchratib turish mumkin. Masalan, o'zbek tiliga rus tilidan *bank* (moliya operatsiyalarini bajaruvchi muassasa) atamasi o'zlashtirilgan. Shuningdek karta o'yiniga "*tikilgan, o'rta qo'yilgan pul*" ma'nosini ham ayni shu so'z bilan ifodalanadi. Shevada esa bu omonim so'zlarning ikkalasi ham banka tarzida talaffuz qilinadi. Rus tilida "shisha yoki metaldan odatda silindrik idish" (O'zbek tilining izohli lug'ati) ma'nosi banka leksemasi bilan ifodalanishi va uning o'zbek adabiy tiliga ayni shu shaklda o'zlashtirib olinganligini yaxshi bilamiz.

3. Endi shevada omonimlar paydo bo'lishining uchinchi bir holati ham borligiga diqqat qaratsak, ba'zida tilda ikki so'z alohida-alohida talaffuz etiladi, lekin ularni shevada o'ziga xos tarzda talaffuz etishimiz natijasida shevadagi omonimlar paydo bo'ladi, misol uchun adabiy tilda *yog'* (moy, jir) so'zi mavjud va *yov(dushman)* so'zlari og'zaki nutqda ikkisi ham *yog'* tarzida talaffuz bo'lib ketadi: *yog'-yog'iy*. Masalan,

Dunyo, dushman turar, g'il odamzod.

Mol bilan ovladi, *yog'iydir*, *yog'iy*.

O'n sakkiz ming derlar, kulli olamni

Gunohi, fasodi *yog'iydir*, *yog'iy*<sup>36</sup>.

---

<sup>35</sup> Fayziyeva X. Q. Keltirilgan adabiyotdan. 64-bet.

<sup>36</sup> Maxdumquli she'ridan namuna



Bundan tashqari “*xeli*” so’zi shevada ikki ma’noda qo’llaniladi: 1) kam, oz degan ma’noda; 2) yomon, ayyor, mug’ombir degan ma’nolarda ham ishlatiladi.

*Tuvra-1-* fonetik *to’g’ri* degan ma’noni anglatadi. Bu leksemaning to’g’rilamoq (fe’l), ya’ni harakat ma’nosi ham mavjud:

Masalan, Uyning *tuvrasida* turibdi.

Masalan, Ovqatga piyoz, go’shtlarni *tuvragin* (adabiy tilda va shevada).

Adabiy tilda qo’llanuvchi *yo’z* (to’rt faslning biri) va *yoy* (yoymoq fe’jining II shaxs, buyruq mayli) so’zlari ham talaffuziga qarab omonimlikni tashkil etadi:

*yo’z-1.* Bo’ltor *yo’z* solqin kevadi (Chilonzor). *yo’z-2.* Dosto’rxondi jozip tur, palabdi suzimiz (Elbayon).

O’rganilayotgan shevadagi so’zlar ham shaklan, ham ma’no jihatidan adabiy tildan keskin farq qilib turadi va ularning shaklan tuzulishi ham, ma’nolari ham boshqacha bo’ladi. Masalan, shevada *elo: uloq* so’zini ko’p eshitib turamiz.

**1.Shoulok** kelin to’yga haydab boriladigan mollarning ichidan ajratilgan uloq (ko’p hollarda kelin tarafga to’y haydab kelayotganda birinchi oldiga chiqqan kishiga shu uloq beriladi).

**2.Elo-uloq** sunnat to’yning birinchi kuni chopiladigan uloq, *elo: uloq* so’zini biz adabiy tilda uchratmaymiz. Bu leksema shevaga xos birlik bo’lib, shakldoshlari bilan birgalikda shevaviy omonimlarni vujudga keltirgan. Yana shunday misollardan birini ko’rib o’tamiz: *oxlo’q-1 tomizg’i* (ko’nargi); *oxlo’q-2 qatiq*, sut, sumalak beruvchining idishiga solinadigan paxta yoki doka; *oxlo’q-3tovuq* tuxumi qo’yadigan joyga belgi sifatida qo’yiladigan tuxum:

Tovixting *oxlo’g’ini* qo’yib boshqa mayaklarni opke (Bandixon);

*Qo’lov-1* pichoq tig’i, masalan, po’choqting ko’lavini oldo’rdo’m. *qo’lov-2* mollarda bo’ladigan burun kasalligini so’yo’ro’ mko’lov bopti (Qumqo’rg’on).

“O’zbek tilining izohli lug’ati” da bir qator dialektik omonimlar berilgan bo’lib, bular: *sari-sariq rang*, *sari-sara*, *yaxshi*; *do’lta*-shakl, hajmni bildiruvchi so’z, *do’lta*-qaymoqni qizdirib yog’ini olgandan keyin qozonda qoladigan qismi; *so’zanak-ninachi*, *so’zanak*-otning peshobi<sup>37</sup>.

---

<sup>37</sup> Raimnazarova N.X. O’zbek tilining izohli lug’atlarida shevada oid so’zlarning berilishi. –Termiz. 2022.

Omonimlik- biz bilamizki, nutqda leksemalar doirasida o'zgachalikni, originallikni tashkil etadi. O'zbek tilining naqadar go'zal va serqirraligi ham aynan shundadir. Bundan tashqari yuqorida ta'kidlaganimiz kabi tilimiz shevaga ham boy tilligi sababli omonimlikning shevada aks etishi bu bizning til bilimlarimiz savodxonligini yanada oshirishimiz lozimligidan dalolat beradi. Negaki, omonimlikning shevada ham aks etishi bir qaragandan, mujmalroq ko'rinishi mumkin, bu holat nutqiy o'zgachalikni ta'minlaydi. Shevadagi omonimlik hodisalari u qadar ko'p bo'lmasa-da, ba'zi o'rinlarda o'z ko'rinishi bilan kisgilar diqqatini tortadi. Ammo original tashbehlarni shevada ham aks ettirilishiga ko'mak beradi.

### **Sheva sinonimiyasi**

O'zbek tilshunosligida shakli bir xil, lekin anglatgan ma'nolari aynan bir xil yoki ma'nolari bir-biriga yaqin leksik birliklarni, ya'ni sinonimlarni o'rganishga bag'ishlangan qator ishlar mavjud<sup>38</sup>. Rus tili leksikologiyasida sinonimlar haqida bir xil, ma'no yoki uslubiy ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan ma'nolar ekanligi ta'kidlanadi. Aynan shu yo'ldan borgan prof. O. I.Blinova shevalar sinonimiyasini:

- 1) absolyut sinonim shevalar-dubleklar, ya'ni aynan bir xil ma'noli;
- 2) semantik sinonim shevalar- yaqin ma'noli;
- 3) uslubiy-ekspressiv sinonim shevalar sifatida ko'rib chiqadi<sup>39</sup>.

Shu bilan birgalikda u yoki bu shevaning leksik qatlamini o'rganishga qaratilgan ayrim ishlarni ham eslab o'tsak: Sh. Abdurahmonov, A. To'raqulov, T. Sodiqov, S. Rahimov kabi shevashunosolimlarning malakalari, nomzodlik dissertatsiyalarini nazarda tutamiz. A. To'raqulovning nomi qayd etilgan dissertatsiyada bu masalaga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib: "Sinonimlarning paydo bo'lishi kishilarning u yoki bu predmet, hodisa, voqea yoki tushunchani ularning xilma-xil belgilarni turli-tuman so'zlar bilan ifodalashga intilishi bilan

---

<sup>38</sup> Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining qisqacha lug'ati. -Toshkent -1963yil. 72-b. Hozirgi zamon o'zbek tili omonimlar va sinonimlar. Nizomiy davlat pedagogika institutining ilmiy asarlari -Toshkent 1959.

<sup>39</sup> Xolova M.A. O'zbek milliy shevalari korpusi tadqiqi. -Termiz-2022 yil.60-b.

bilan izohlanadi”<sup>40</sup>. O‘zbek tilshunoslidida olimlarimizdan Prof. M. Mirtojiyev sinonimlarni dastavval *absolyot va semantik* guruhlariga ajratgan. Keyinchalik *semantik sinonimlarni*- 1) ideografik, 2) emotsional-ekspressiv, 3) uzviy-ta’kidli sinonimlarga ajratadi<sup>41</sup>. Shundan kelib chiqib sinonimlarni to‘rtta guruhga bo‘lib chiqdik:

1. Absolyut sinonimlar shevalar.
2. Semantik sinonimlar shevalar.
3. Uslubiy-ekspressiv sinonimlar.
4. Nofaol sinonimlar <sup>42</sup>.

Uslubiy-ekspressiv sinonimlarda talaffuzda, aniqrog‘i kontekstdagina sinonimik qatorni tashkil etib, matndan tashqarida esa sinonimlikni yoqotuvchi sinonim leksemalar kiradi:

*qulvachcha, qulbachcha, qulvashsha* {xizmatkor (adabiy tilda) qul}<sup>43</sup> ; pamidur, pamodur (adabiy tilda pamidor).

Semantik sinonimlarda sheva doirasida qo‘llanilib sinonimlikni tashkil etgan leksemalarning bittasi o‘z ma’nosida emas, balki ko‘chma ma’noda keladi:

*ye-je (tanavvul qilmoq)*-adabiy tilda). Malasan, U avqotni bir paslga *yeb* qo‘ydi. Ulini so‘ka-so‘ka umrini *jedi* ul.

To‘plangan ma’lumotlardan faqat shevaning o‘ziga xos, adabiy tilda qo‘llanilmaydigan sinonimlar deyarli yo‘q ekanligi ma’lum bo‘ldi. To‘g‘ri, ayrim ishlarda ayni shu holdagi sinonimlar ham mavjudligi qayd etiladi. Lekin keltirilgan misollarga e’tibor berilsa, bu fikr o‘z-o‘zidan rad etiladi. Masalan, To‘raqulov faqat shevaga xos sinonimlar sifatida *kaltakesak, ko‘rchichiq, xo‘ppakalla, chirqildaq, kesartki (biz o‘rgangan shevada ham shu kasartki shakli ishlatiladi)*-kabilarni misol qilib keltiradi. Vaholanki, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da sudralib yuruvchi sinfiga mansub dumi uzun va usti mayda

---

<sup>40</sup> To‘raqulov A. Nomzodlik dissertatsiyasidan, Rahimov S. Ko‘rsatilgan ishidan 70-b.

<sup>41</sup> Xolova M.A. O‘zbek milliy shevalari korpusi tadqiqi. -Termiz-2022.61-b.

<sup>42</sup> Xolova M.A. O‘zbek milliy shevalarida korpus tadqiqi. -Termiz -2022yil 62-b.

<sup>43</sup> Xolova M.A. O‘zbek tili shevalarida korpus tadqiqi. -Termiz-2022yil. 60-64-b.

tangachalar bilan qoplangan jonivor tushunchasi kaltakesak leksemasi bilan ifodalanishi qayd etilgan.

Aniqlanilishicha, A. To'raqulov tomonidan keltirilgan misollarning barchasi adabiy tilda qo'llaniluvchi "*kaltakesak*" so'zi bilan ma'nodoshlikni hosil qiladi. Shu sababli ishimizda asosiy e'tibor adabiy tildagi leksemalarning Surxondaryo o'zbek shevalari bilan sinonimlashuvi hodisasiga qaratildi.

Ba'zi ishlardan ma'lum bo'lishicha, bu hodisa adabiy-dialektal sinonimlar<sup>44</sup> deb atalganligi qayd etiladi. O'rganilgan shevada bunday leksemalar tez-tez uchrab turadi. Bu kabi sinonimiyada adabiy tilda qo'llanilgan u yoki bu so'z bilan biror tarzda ma'nodoshlik munosabatga kirishadi. Fikrimizni dalillar bilan tasdiqlashga urinib ko'ramiz.

Adabiy tildagi so'z bilan o'rganilgan shevalarning sinonimik munosabatga kirishuvchi "*Urg'ochi qoramol*" tushunchasini ifodalovchi leksemalar misolida ham ko'rish mumkin. Ma'lumki, o'zbek adabiy tilida bu tushuncha O'rta Osiyo va sharqiy qipchoq oralig'idagi tarqalgan sigir (fonetik farqlar bilan) so'zi bilan ifodalanadi:

Masalan: *qoraqal, suyur, qirg'iz: so'yo'r, no'g'ay, qo'miq: siyir, tatar: so'yer, uyg'ur: sigir.*

Surxondaryo o'zbek shevalarida *siyir* (qipchoq misolida) "Urg'ochi qoramol" ma'nosida ishlatiladi:

Hamsiyaning sigiri yegiz tuvipt (Qiziriq).

Shu bilan birga, tekshirilgan obektda mazkur tushuncha **inak** leksemasi bilan ham ifodalanadi.

Masalan: Murot *inaklardi* doyradan suvlap ket (Rabot).

Inak o'zbek tilining boshqa shevalarida ham turli fonetik variant bilan ifoda tiladi. Chunonchi, enek (o'zbek xalq shevasi lug'ati).

Biroq bu atama "O'zbek tilining izohli lug'ati" da o'z ifodasi topmagan. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da shu narsa qayd etiladiki, mol atamasi "yirik

---

<sup>44</sup> Rahimov S. Ko'rsatilgan avtoreferat. 23-bet

shohli uy hayvonlari” (sigir, ho’kiz va boshqalar ma’nosini ifodalaydi: mol olasi tashida, odam olasi ichida).

Shevada *mol* so’zi sigirga va ho’kizga nisbatan ishlatilishi mumkin. Bu hol adabiy tilda shevalardagi sinonimik qatorning ko’payishiga olib kelgan, natijada “*Urg’ochi qoramol*” tushunchasi siyir “*inak*” (adabiy tilda ishlatilmaydi) mol atamalari bilan ishlatilishi hammaga ma’lum.

O’zbek adabiy tilida sigirning tug’ilgan kunidan olti oygacha bo’lgan bolasi *buzok* deb atalishini yaxshi bilamiz. Shevada ham mazkur so’z j-lovchi, “*buzav*” y-lovchi buzoq shaklida ishlatilyotganligi aytib o’tilgan.

Masalan, *siyirimiz* chiroyli buzoq tuvipti (Qumqo’rg’on).

Shu bilan birga tadqiqot obyektimizda bu so’zning yana ikkita sinonimi borligi ham aniqlandi. Uning birinchisi *o’jak* bo’lib, u shevada (ko’p hollarda katta yoshli kishilar nutqida) tez-tez uchrab turadi. Bu ikki sinonim so’zga biz “*go’sala*” atamasini ham qo’shsak bo’ladi. Mazkur leksema haqida adabiyotlarda bu so’zning fors-tojik tilidan kirib kelganligi va vaqt o’tishi natijasida o’zbek adabiy tiliga o’zlashganligi aytiladi. Hozirgi kunda ham bu so’z o’zbek adabiy tilining ko’pgina dialektlari va shevalarida faol qo’llanadi<sup>45</sup>.

Olimning bu fikrini o’rganish obyektimizda *buzov*, *o’jak* atamalari bilan sinonim tarzida ishlatilayotgan *go’sala* leksemasi to’la tasdiqlaydi.

Misol keltiramiz: *Go’salani* soyaga o’chuvoq chushipti.

Go’sala leksema Alisher Navoiy asarlarida ham ham qo’llanilgan:

Anga g’amza bo’lsa shaxon sohiri

Manga bo’ldi *go’sala* yuz somirib.

Demak, sigirning olti oygacha bo’lgan bolasini ifodalash uchun shevalardagi *o’psak* va *go’sala* atamalari adabiy tildagi *buzoq* (*buzov*) atamasi bilan sinonimik munosabatga kirishadi<sup>46</sup>.

---

<sup>45</sup>Навойий асарлари луғати. -Тошкент. 1972. 171-б.

<sup>45</sup> Вафоев Б. Кўҳна сўзлар тарихи. –Тошкент. 1991. 92-93-б.

<sup>46</sup> Shoimomova N. Qashqadaryo o’zbek qipchoq shevasida ham aynan shu ma’noda ishlatiladi. Qashqadaryo o’zbek qipchoq shevalari leksikasi. 2008. 49-b

Shu tipdagi sinonimlar jumlasiga “rayhon” va uning shevadagi dubletlarini ham kiritishimiz mumkin.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da *rayhon* leksemasiga shunday ta‘rif berilgan: “oshko‘k uchun ekiladigan bir yillik hushbo‘y o‘simlik”. Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida “rayhon” faqat osh-ko‘k uchun ekilmaydi, balki har bir xonadan oldida ushbu o‘simlik manzara uchun ham ekiladi. Bundan tashqari, rayhonning hushbo‘y hidi va hashoratlardan asrashi ham koni-foydadir. Ushbu hududlarda rayhon leksemasining “*nozvoy*” (*nozboy*) variant ham mavjud.

Masalan, *nozboy*ni to‘rg‘ab sho‘rbag‘a solamiz, tami chig‘adi (Qumqo‘rg‘on).

Hududlarni o‘rganish asnosida biz “*ko‘nargi*” leksemasi ham mavjudligini bildik. Ushbu so‘z sutni uyitish uchun solinadigan qatiq yoki uning suvi ma‘nosida qo‘llaniladi.

Bolam sutga *ko‘nargi* soldim (Sherobod, Qorabog‘).

Ushbu leksemaga sinonim tarzda “*qo‘rluq*” so‘zi uchraydi.

Masalan, “Sutka jo‘lilo‘g‘ida *qo‘rluq* somasang sovo‘p qoladi” (Boysun, Chilonzor).

Aynan, yuqoridagi leksemalarga sinonim tarzida *oxlik*, *uyitqi*, *tomizg‘i* so‘zlari ham ishlatiladi. Bu shevalar viloyatning turli hududlarida turlicha qo‘llanadi. Ayrim qishloqlarda ushbu sinonimik dialektal leksemalarining ikki-uchtasi barobar qo‘llanadi. Shu bilan birga *oxliq*, *ko‘rlik*, *ko‘nargi* leksemalari ham ishlatiladi. Kuzatishlar natijasida “*tomizg‘i*” leksemasi boshqa sinonimlarga nisbatan kamroq ishlatilishini guvohi bo‘ldik. O‘zbek adabiy tilida *taxir* leksemasi “*ta‘mi og‘izni burishtiradigan kakra, talxa*” ma‘nosini ifodalaydigan mahsulot.

Masalan, Ovqatga kuvrak *pomadur* sog‘anga o‘xshaysan, pichi *taxir* bo‘p qoptimi deyman (Bandixon).

Misollar *taxir* leksemasi shevada “*nordon*” ma‘nosini anglatayotganligini bilishimiz mumkin. Shu bilan birga, shevada ayni shu ma‘noni ifodalash uchun “*sho‘rtak*” so‘zidan ham foydalaniladi.

Masalan, Dovchani maydaligida jesangiz *sho'rtak* bo'ladi. Sal kattarsa toni jep bo'lmaydi. Sho'r bo'p ketadi (Angor).

Demak, shevada *taxir* va *sho'rtak* leksemalari "nordon" ma'nosini anglatib sinonimik qatorni hosil qiladi.

Adabiy tilda "yopmoq", "berkitmoq" kabi leksemalar ishlatiladiki, ular eshikka nisbatan ham qo'llaniladi (Eshikni yopib qo'y; eshikni berkitdingmi?) Shevada ham o'rni bilan bu so'zlardan foydalanib turiladi (Tabiiy, fonetik, moslashtirilgan holda):

Qo'zim, eshikni qotiroq *joyip* ke, shamol izillap kiryapti (Angor).

Shu bilan bir qatorda, shevada ayni shu ma'noda "qo'shirmoq" so'zi ham ishlatilyotganligining guvohi bo'ldik. Masalan, Ulim necha marta aytdim: kirgandayam, chiqqandayam eshikni asta *qoshir* deb (Munchoq).

Quyidagi misollarga e'tibor beraylik:

1. *Tuvri* odam hech qachon o'trik gapirmaydi (Kofurun). Salima chechamiz *o'trikting* stasi, uning chin gapirganiniyam bilip bo'lmaydi (Chilonzor).

2. Bachalar, endi men silarha bir o'shokti aytib beray, o'ni *tuvri* diysilarmi, o'shak diysilarmi ixtiyar o'zlaringda (Sho'rchi).

Matnlardan *o'trik* hamda *o'shak* leksemalarining "Haqiqatga zid, to'g'ri kelmaydigan, noto'g'ri, "uydirma" (ham ot, ham sifat vazifasida) ma'nosini anglatishi va bir-biriga sinonim ekanligi ayondir. Tilda bu vazifani yolg'on leksik birligi bajaradi.

Haqiqatdan, ba'zi ziyolilar, o'qimishli insonlar yolg'on so'zini ham yo aynan shunday, yo yolg'on tarzida ishlatishadi. Ba'zi hollarda bu leksema u yoki bu shaklda qo'llanishiga guvoh bo'lamiz.

Shuning bilan birgalikda, bu sinonimlarning har biriga *-chi affiksi* qo'shilib, shaxs nomlari yasaladiki, ular xam bir-biri bilan sinonim bo'ladi. Masalan, o'tkinchiga qo'shilma, *chin* so'zingdi dashirma (Angor). O'shanchidan el bo'lmas (Muzrabot).

Adabiy til leksemalari bilan shevada so'zlarning sinonimik munosabati, sinonimik qatorlarni hosil qilishni yana quyidagi misollar namunasida ko'rish mumkin.

Adabiy til ba hech (sira) shevada (*year*) kabi leksemalardan foydalaniladi:

Ko'lik ketaylik hech ko'nmaydi. Shu Karimnikiga *year* borgim kemiyaptida (Qumqo'rg'on).

Shevada ayni shu ma'noda, tez tani leksemasidan foydalanilar ekan:

Op, jen turing, *toni* tortinman (Beshqo'ton). Dugonamga tur To'rmizga borip ketaylik desam *tani* ko'mmadi (Bandixon).

Shevada *kiyping* leksemasining adabiy va shevaviy *g'ilay* leksemasi bilan sinonimik qatorni tashkil etishini quyidagi misollar tasdiqladi:

Halima hola kenjangizning chap ko'zi *qiypingmi* diyman (Angor).

Bandixondagi jiyan picha *g'ilay* bo'sayam o'zi hushro'yginaikan, kelin qisa bo'ladi (Muzrabort).

Shevalar bilan adabiy til nuqtai nazaridan nafaqat polisemiya, omonimiya, sinonimiya hodisalari mavjud ba'zi o'rinlarda paronimlik holatlari ham mavjud: *pud-* gilam arqog'; *put-*sonning oyoqqacha bo'lgan qismi. 1. Sonning oyoqqacha bo'lgan qismi; 2. *Baldag'* (baldag' sirg'a); *baldaq* (idish dastasi). 3. *Bog'*-boglar, *bov-*o'ram.

### **Bob bo'yicha xulosa**

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tili shevalarga boy tillardan biri. Shu qatorda Surxondaryo o'zbek shevalari ham tabiiyki, bu boylikdan foydalanib keladi. Shu bois shevada umumadabiy tilga xos leksema birliklar faol qo'llanilib turiladi, ammo tadqiqotimizda o'rganilganda shevada adabiy tilda ishlatilmaydigan ko'plab so'z va terminlar borligiga ishonch hosil qilindi. O'zbek adabiy tilida va affikslarida uchrovchi omonimiya, sinonimiya, polisemiya kabi holatlar ona tilimizning qay darajada serjiloligini anglatadi. Lekin o'zbek tili shevalarida ham



ushbu holatlarning namoyon bo'lishi tilimizdagi murakkabliklar va boy til zaxira manbasiga ega ekanligidan dalolat beradi. Shu qatorda o'zbek adabiy tili ham shakldoshlik, ma'nodoshlik, ko'p ma'nolilik o'rinlarini o'zida namoyon etgan o'rinlarga biz siz bilan yuqorida guvohi bo'ldik. Adabiy til bilan bir qatorda shevalarimizda ham so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari mavjudligi, albatta, barchamiz uchun qiziqarlidir. Biz bunday holatlardan kundalik muloqot jarayonida foydalanamiz, faqatgina e'tibor qilmasligimiz mumkin.

Shevalardagi omonimlik holatlari shevadagi so'z va adabiy tildagi so'z doirasida, shevadagi so'z va shevadagi so'z (shevaning o'z ichida) bo'lishi mumkinligi yokida og'zaki so'zlashuv jarayonida shevadagi so'z va umuman boshqa so'zni og'zaki talaffuzda shakldosh bo'lib qolgan holatlarga ishimiz davomida e'tibor qaratdik, misollar yordamida fikrimizni aniqlashtirishga urindik.

Surxondaryo, xususan, Boysun shevasida so'zlarning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra ko'ra turlarini ko'rib chiqish mobaynida shevalarning ma'noviy ko'lami kengligiga guvoh bo'ldik. Bu holat esa ona tilimizning til zaxiirasi boyishida shevalarning naqadar ta'siri kuchliligidan dalolat beradi.

Bilamizki, til bevosita shevalardan oziqlangan holatda rivojlanib, sayqal topib boradi. Boysun shevasida so'zlarning shakl va ma'nosiga ko'ra turlarida, ayniqsa, sinonimiya munosabati misolida ko'rib chiqib o'zbek shevalarining ma'noviy ko'lami kengligi -bu o'zbek adabiy til qo'llanish imkoniyatlarini darajasi ichki manbasi hisobiga ham tengsizligidandir dalolatdi. Bundan tashqari etnik aholi badiiy asarlarda keltirilgan so'zlarning ma'nosini kuchaytirib, uslubiye-ekspressiv ma'noda qo'llashi milliy madaniyatimizning bir bo'lagi va ushbu so'zlar nafaqat shevashunosliknuqtai nazaridan, balki boshqa aspektlarda (masalan, etnopsixolingvistik, lingvokulturologik) tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi <sup>47</sup>.

---

<sup>47</sup> Xolova M.A. O'zbek milliy shevalari korpusi tadqiqi. -Termiz, 2022-yil. 115-bet

Surxondaryo o'zbek shevalarining leksik-semantik sathida, leksik-semantik qatlam doirasida o'rganilishi kerak bo'lgan hodisalar mavjud bo'lgan o'rinlarga siz bilan to'xtalib o'tamiz.

### **III BOB. Surxondaryo o'zbek shevalarining leksik qatlami**

#### **3.1 Surxondaryo o'zbek shevalarida umumturkiy leksik qatlam**

Markaziy Osiyo hududida yashovchi mahalliy turkiy xalqlar tillarining leksik qatlamidagi asl turkiy so'zlar orasida ko'p jihatdan o'xshashlik bor. Bu o'xshash so'zlar eng muhim tushunchalarni ifodalaydi va bir xil vazifada

ishlatiladi. Lekin ba'zi so'zlar turkiy tillarning o'z fonetik talaffuz me'yorlariga bo'ysunga holda biroz boshqacharoq talaffuz qilinadi. Demak, biz turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan so'zlar haqida fikr yuritar ekanmiz bunda fonetik o'zgarishlar emas, tup va tipologik o'zgarishlarni nazarda tutish darkordir.

Agar shevalar leksikasining lug'at boyligiga nazar tashlasak, uning tarkibiga tub o'zbekcha so'zlar asosiy o'rinni egallaydi. O'zbek adabiy tili va o'zbek shevalari uchun umumiy bo'lgan o'zbekcha so'zlarni faqat bitta turkiy tilning o'zigagina xos deb bo'lmaydi, balki bunday so'zlar ko'pchilik turkiy xalqlarning lug'at boyligiga oid so'zlar bo'lib, ular shu turkiy tillar leksikasining negizini tashkil qiluvchi asosiy manbadir.

Umumiy o'zbek tilining asosini tashkil etuvchi tub o'zbekcha so'zlar shevalar singari Surxondaryo o'zbek shevalarining ham asosini tashkil etadi. Bunday so'zlar ba'zi fonetik farqlar bilan boshqa qardosh turkiy tillar uchun ham umumiylikka egadir.

Masalan, Surxondaryo o'zbek shevalarida *og'a, ag'a, ove, ag'uz, arqa, bavo'r, tish, qash, burun, yomg'ir* (turkman); *aga, ago'z, arka, bag'ur, dash, gash, burun, yalo'sh: ag'a, auo'z, bao'o'z, bao'o'r, yagush* va yana shu singari so'zlar.

Bunday umumturkiy so'zlar odatda aniq hayotiy tushunchalarni ifodalaydi va yasalishi uchun zaxira bo'lib xizmat qiladi. Bunday so'zlarni biror dialekt yoki faqat o'zbek adabiy tiliga mansub bo'lgan so'zlar deb aytish mumkin emas.

Surxondaryo o'zbek shevalari leksikasidagi so'zlarning asosini umumxalq o'zbek tili va uning shevalaridagi kabi qadimgi turkiy yozma obidalarga xos bo'lgan so'zlar tashkil etadi. Buni XI asrning mashhur olimi, tilshunosi Mahmud Qoshg'ariy o'zining "Devoni lug'atit-turk" asari bilan solishtirganda yana ham yaqqolroq ko'ramiz. Surxondaryo shevalarida quyidagi so'zlarni Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atut-turk" asaridagi so'zlar bilan qiyos qilamiz:

j-lovchi *alqo'ndi*, y-lovchi *olqune*-sovun qoldig'i, *alqindi*-tamom bo'ldi; j-lovchi avradi-*ovradi* y-lovchi; *Anduz*-tog' piyozi, *anduz* -yerdan qazib olinadigan

o'simlik ildizi: j-lovchi. *Axo'r-oxur*: j-lovchi, *ovro'ndi* y-lovchi, *og'rindi-xafa* bo'ldi, *og'rindi*-alamlandi ("Devoni lug'atut-turk").

Yuqorida qayd etilgan "Devoni lug'ati-turk" asaridagi so'zlar, ayrim fonetik o'zgarishlar bilan bizgacha yetib kelgan. Surxondaryo o'zbek shevalari bo'yicha keltirilgan mazkur qiyosiy misollar dialektolog A. Ishayevning "XI asr yozma yodgorligi bo'lgan devondagi til faktlarining asosiy qismi hozirgi o'zbek adabiy tiliga nisbatan o'zbek tilining qarluq, qipchoq, o'g'uz lahjalariga mansub shevalarda ko'proq saqlangan"<sup>48</sup> degan fikrni to'la tasdiqlaydi.

Biz tekshirayotgan mazkur shevalarning leksik sistemasidagi ko'pgina so'zlar qadimgi yozma obidalardan bizgacha fonetik, semantik o'zgarishlar bilan yetib kelgan. Bunday so'zlar vaqt o'tishi, tilning ravnaq topishi va rivojlanishi natijasida yangi ma'no hosil qilib, bora-bora shakli va ma'nosidan uzoqlashadi.

Masalan: *alang -yalang*, *tekis* ("Devoni lug'atut-turk" 1.154 keyingi o'rinlarda) *eleng*-ariq bo'yiga chiqarilgan tuproq; *alchaq*-yumshoq tabiatli ("Devoni lug'atut-turk"1,162), *engere*-ekini yig'ib olingan maydon ("Devoni lug'atut-turk" 1.120), *oeloq*-uloq (Devoni lug'atut-turk"1,141), *suyel*-sugal; *sogal*-kasal (Devoni lug'atut-turk"1,375); *Tag'a*-amaki ("Devoni lug'atut-turk"256), *tag'a*-tog'a kabi.

Agar shunday so'zlarga xronologik jihatdan nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning fonetik qiyofasi va semantik holatiga ko'ra qadimgi ma'nosidan ancha uzoqlashganiga guvoh bo'lamiz. Professor Sh. Shoabdurahmonov aytganidek "Fonetik va ma'no jihatdan uzoqlashish eski sifat elementlarining paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan"<sup>49</sup>.

Surxondaryo o'zbek shevalarining leksik qatlamida shunday so'zlar mavjudki, ularning anchagina qismi hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanmaydi. Lekin ko'pgina turkiy adabiy tillarda ishlatiladi.

---

<sup>48</sup> Ишаев А. Девони луғотит-турк ва ўзбек шевалари. 1971, 66-67-б.

<sup>49</sup> Ш. Шоабдурахмонов. Таянч шевалар лексикасидан.,1961. 285-б.

Masalan: j-lovchi: *Bo'ldo'r-o'tgan yil, buldo'r* (“Devoni lug’atut -turk”), 1425-bet), qozoqcha bo’ldo’r, tatarcha -bildir, *shaxal-shoxal* (chiya bo’ri) qiyoslaylik: qoraqalpoqcha- shag’al, no’g’aycha-shakal kabi.

Umumxalq o’zbek tili, uning shevalari, shuningdek, Surxondaryo o’zbek shevalari leksik tarkibi bilan adabiy turkiy tillar leksik tarkibi orasida ma’lum bir mushtaraklik saqlangan bo’lsa ham, o’zbek tilining faqat o’ziga xos bo’lgan so’zlar ham shevalar lug’at tarkibidagi so’zlarning anchagina miqdorini tashkil etadi. Ba’zan bir qancha turkiy tillarning lug’at boyligida bo’lishi mumkin, ma’no hajmiga ko’ra o’zaro biri ikkinchisini qoplamaydi.

Masalan, Surxondaryo o’zbek shevalaridagi “*basalqa*” so’zi oldin-keyin tug’ilgan bolalar ma’nosini anglatadi. *Qozoq tilidagi “basalqa”* so’zi esa “*aql o’rgatish*” ma’nosida ishlatiladi<sup>50</sup>. Ammo bunday so’zlar ma’no jihatidan qanchalik farq qilmasin, umumturkiy leksik qatlamning lug’at boyligi bo’lib qolaveradi.

Surxondaryo shevalarida uchraydigan ayrim umumo’zbek tilining o’z qo’shimchalari yoki boshqa tillardan olingan qo’shimchalarni qo’shish va ikki so’zning birikuvidan yangi ma’no kasb etadigan shevalarga xos bo’lhan so’zlar ham yuzaga kelgan.

1.O’zbek tilining o’z o’zak so’zlariga o’zbek tili qo’shimchalarini qo’shish orqali yuzaga kelgan shevaga xos so’zlar: *buro’-m-bur-im*(muyulish), *yenchi-yenche*:(uloq, qo’zilarga en soluvchi shaxs), *uyrim-uyur-im*(girdob): quligich (odam yuzidagi kulgich), *achguch-achg’och* (kalit), *qirg’o’ch-qir-go’ch* (kapgircha), *xekkelik-xekke-lik* (sezgirlik).

2.O’zbekcha o’zak so’zlarga tojik tili qo’shimchalarini qo’shish orqali paydo bo’ladigan shevaga xos so’zlar: *orqador-orqa-dor* (achchig’i tez chiqadigan odam), *emchekdesh* (emakdosh), *doyrebent*(to’g’on), *telpakdo’z-telpak-do’z* (telpak tikuvchi), *arqatarash* (tarashla fe’lidan).

---

<sup>50</sup> Ш. Шоабдурахмонов. Таянч шаҳар шевалар лексикасидан., Ўзбек тили ва адабиёти. 1961. 285-б.

3. Ikki soʻzning birikuvidan yuzaga keladigan shevaga xos shunday birliklar borki, ularning har bir komponenti oʻzbek adabiy tiliga maʼlum boʻlsa-da, lekin oʻsha komponentlarning qoʻshilishidan hosil boʻlgan soʻz adabiy tilda uchramaydi.

Masalan, *yeryoge-kerosin*, *qolagʻoch-qoʻlyogʻoch* (oxirda biror narsani yanchish uchun ishlatiladigan choʻqmor), *xoppasu* (chippakka chiqmoq), *ochatoli* (molning son goʻshti) kabi leksemalar shevalarning oʻzida hosil boʻlgan soʻzlar boʻlib ulardan ayrimlari boshqa oʻzbek shevalarida hamda baʼzi turkiy tillarda ishlatiladi.

4. Umumturkiy soʻzlarning shevada sohalar boʻyicha tarqalishi:

Surxondaryo oʻzbek shevalaridan sohaga oid toʻplangan leksik materiallar qarab chiqilsa, hozirgi zamon oʻzbek adabiy tili lugʻat tarkibi mazkur shevalar uchun ham xos ekanligini koʻrish mumkin. Bunday soʻzlar tabiat hodisalari, mavjudotlarni ifodalovchi ot kategoriyalaridagi yer, suv, yomgʻir, daryo, bugʻdoy, shamol, non, chaqmoq va boshqalar, sifat kategoriyasidagi oq, qizil, katta, kichik, yosh, qari, uzun va boshqalar, asosiy harakat va holatni ifodalaydigan feʼllardagi: tur, oʻtir, kel, yur, chop, sur, hayda, qara, toʻqi va boshqalar, shuningdek, son, olmosh, ravish kabi turkumlar kategoriyasidagi soʻzlar va jamoat joylarida soʻzlashuvchi jamoa uchun muhimdir.

Barcha shevalarda, shu qatorda, Surxondaryo shevalarida sheva vakillarining hayoti va faoliyatining turli sohalariga oid boʻlgan soʻz va terminlar uchraydiki, bu leksik xususiyatlar turli sohalarga oid soʻz va terminlarning juda mayda ishlatilishida yaqqol koʻrinadi. Jumladan, 1. Qarindoshlikni bildiruvchi soʻzlar: Surxondaryo j-lovchi qipchoq shevalarida:

*Ata (ota), yene (ona).*

*Bala (bola).*

*Nevere (nabira, nevara).*

*Chevere (chavara).*

*Dubere (chevaraning bolasi).*

*Serbere (duvaraning bolasi).*

*Evere* (sevaraning bolasi).

*Zuvola* (evaraning bolasi).

*Begene* (zuvolaning bolasi)<sup>51</sup>

2.Odam uzvini ifodalovchi so'zlar:

*Taka, xevich* (qoshig'ich), *bavur* (jigar), *baldo'r* (boldir), *iyal* (engak), *djelka* (iyin); ye-lovchi *egin* (yelka), *muro't* (mo'ylov); manglay, ye-lovchi *maxlay* (peshona)

Mazkur shevalarda qo'l barmoqlarining ifodalanishi quyidagicha<sup>52</sup>:

j-lovchi shevalarda *bashbarmoq* ye-lovchi shevalarda *bashmalog'* adabiy nutqda *bosh barmoq; ato' djoq barmoq-shodat barmoq-ko'rsatko'ch barmoq; bortan barmakette barmoq-orta barmoq; chuldur chumek-uzuk barmoq-tortinch barmaq; cho'nachaq (kichkine), buvek (jinjaloq), beshinch barmoq(jimjaloq).*

3.Uy-ro'zg'or buyumlarining nomlarini ifodalovchi so'zlar kishilik taraqqiyotining juda qadim zamonlar bilan bog'liq bo'lib, jamiyat a'zolarining kundalik ehtiyojini moddiy va madaniy hayotining o'sib borishi davomida yuzaga keladi.

Uy-ro'zg'or buyumlarini bildiruvchi o'roq, bolg'a, bolta, qozon, toboq, qoshiq, cho; mich kabi so'zlarqadimdan turkiy turkiy tillarda mavjud bo'lib, ular turli ma'nolarda qo'llangan. Turmush uchun zarur bo'lgan har bir buyumning o'z qo'llanish o'rni, nomi, shakli mavjuddir.

“**Idish**” so'zi qadimiy yozma yodgorliklarda turli ro'zg'or buyumlari ma'nosida qo'llangan bo'lsa, O'rxun-Enasoy yodgorliklarda idish-chelak ma'nosida ifodalangan. Biz hozirda qo'llovchi aniqlovchi gap bo'lagimiz o'sha davrda uy-ro'zg'or buyumlarining qanday materialdan ishlanishi bildiruvchi so'z vazifasi o'rnida kelgan.

Masalan: *cho'p tavaq* (yog'och tovoq), *cho'p qosheq* (yog'och qoshiq), *tash taboq* (sapol tovoq), *taltoboq*(yog'och tovoq), *tal qoshiq* (yog'och qoshiq), *temir qoshiq* (alyumin qoshiq).

---

<sup>51</sup> Fayziyeva X.Ch. O'zbek tili Boysun-Sho'rchi shevalarining lug'at xususiyati,- Termiz-2023.71-bet.

<sup>52</sup> Misol: Rashidov S. Nomzodlik dissertatsiyasidan olindi.76-bet.

Hajmi va shakliga ko'ra: *qoresi, shokese, jemkese, chovgum* (mis yoki cho'yanda ishlangan choy qaynatish uchun qo'llaniladigan idish). Boshqa shevalarda qo'llanayotgan *chaydish-choydush* so'zi esa ana shu chovgum so'zining sinonimidir. *Movl* (xo'l novdadan to'qilgan cho'mich) "Devoni lug'atut-turk" asarida esa "*chovli*" deb yozilgan.

4.Oziq-ovqatga oid so'zlarning ko'pchiligi o'zbek adabiy tilida, shuningdek, yondosh turkit tillar leksik qatlamida qo'llanadi. Lekin oziq-ovqat nomlarini ifodalovchi ba'zi so'zlar borki, ular adabiy tilda va boshqa shevalarda kam uchraydi.

Masalan, *umach* (ugra osh), (yovg'on atala), *qog'anak* (yangi tuqqan sigir sutuni pishirib tayyorlanadigan ovqat), *go'ja* (yo'rma osh), *chunchla* (bug'doyni qaynatib qatiq qo'shib ichiladigan ovqat) kabi sodda, *djala* (shovla), *tonterme* (go'sht, yog' va nonni qozonga solib ustiga tovoq to'ntarib bug'ga piririladigan ovqat), *qaqash* (qoqoni maydalab qatiqqa aralashtirib tayyorlanadigan ovqat) kabi qo'shma terminlardan bo'lgan dialektal so'zlar uchraydi.

### **3.2 Shevada o'zlashma leksik qatlamning o'rni**

O'zbek adabiy tilida ham uning barcha shevalarida ham boshqa tillardan o'zlashtirib olingan leksik birliklar ancha qismni tashkil etadi. Mana shu uchun ham o'zbek tilshunosligida so'z va atamalarni o'zlashtirish bilan bog'liq masalalarga katta e'tibor berib kelinadi. A.B. Borovkov, B.B. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov, U. Abdullayev, M. Mirzayev, S. Ibrohimov, A. Ishayev va boshqa umumtilshunos va shevashunos olimlarning ishlari ana shular jumlasidandir.

Sh. Shoabdurahmonov o'zining ishlaridan birida shunday deb yozadi: "Bu leksik qatlam (o'zlashtirma leksik qatlam) ning o'zak tayanch shevalari lug'at sastavining boyish prosessidagi roli va o'z tili sostavidagi hozirgi holatini yoritish juda muhimdir. Bunday tekshirish ishlari o'zbek tili lug'at sostavining hozirgi



holatini va uning asosiy xususiyatlarini chuqur va yaxshi bilish imkoniyatlarini beradi”<sup>53</sup>.

Muayyan sheva arialining boshqashevalardan farqlaydigan lisoniy qirralari uning leksik qatlamida ko’proq ko’zga tashlanadi<sup>54</sup>.

Yuqoridagi fikrlarga qo’shilgan holda, shuni aytamizki, o’zbek tilining faqat tayanch shahar shevalari leksikasi emas, balki turli-tuman hududdagi shevalarda qo’llaniladigan o’zlashtirma leksik qatlamni o’rganish ahamiyatga molikdir. Tayanch shahar shevalaridagina emas, balki viloyat va tuman lardagi xilma -xil shevalarning yasalashi va semantikasi da silkishlar ro’y berishi ma’lum. Mana shu sabablar tufayli Surxondaryo shevalarining leksik qatlamini o’rganishga urinishlar boshladik.

O’zbek xalqi qadim -qadimdan tojik xalqi bilan bir hududda yashab, o’zaro quda-andachilik, savdo-sotiq munosabatlarini yo’lga qo’yib, turmush tarzi, an’ana va qadriyatlari nuqtai nazaridan bitta xalq bo’lib shakllanib ketganligi barchamuzga ma’lum. Shu sababdan bu ikki millat turli munosabatlarda umumiy mu shtaraklikka egadir. Bu jarayonni til hodisalarining bir-biriga almashinishida ham ko’rish mumkin.

Fors-tojik tilidan o’zlashgan so’zlar faqat o’zbek adabiy tilida emas, balki uning shevalariga ham faol o’zlashgandir. S. Rahimov Surxondaryoning shimoliy va shimoli-g’arbiy hududlari, shu jumlada, Boysun tumani markazi ikki tilda (o’zbek+tojik) so’zlashishi haqida aytib o’tadi<sup>55</sup>. Xususan, Gaza, Bog’bola qishloqlarida *blingvizm-ikki tilda so’zlashuvchi* kishilar istiqomat qiladi. A. Navoiyning “Muhokamat ul-lug’atayn” asarida ham fors-tojik tilining “turklar” orasida keng tarqalganligidan ma’lumot beradi<sup>56</sup>. Masalan, osh (tojikchada-palov) meho’rem? Ikki tilni qo’shib so’zlashuvchi aholi leksemasida quyidagi holatlar kuzatiladi:

---

<sup>53</sup> Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. -Тошкент.1962. 213-б

<sup>54</sup> Дарвешов И. Жанубий-Ғарбий Наманган ўеваларининг фонетик-фонологик хусусиятлари. Монография. Toshkent. Fan 2019. 32-bet.

<sup>55</sup> Раҳимов С. Сурхондарё вилояти ўзбек шевалари. -Toshkent. 1985. 78-б

<sup>56</sup> Fayziyeva X.Ch. Ko’rsatilgan adabiyotdan.32-bet.

1. Shevada sonor undoshdan keyin kelgan ch o'zining jarangli jufti j ga almashadi: *tinch-tinj*;

2. X tovushi so'zlarning barcha bo'g'inlarida uchraydi va o'zbek tilida bu tovushdan oldin e harfi kelsa, tojik tilida yoki o'zbek+tojik tilini aralash so'zlovchilarda x tovushidan oldin i qo'llanadi: *mix-mex; mexcha, gulumex*.

3. Mana bu, ana bu, ana shu kabi olmoshlar *manavi, aynovi, anavi* tarzida talaffuz etadi.

4. Ishonch bildiruvchi modal so'zlar quyidagicha talaffuz etiladi: *ehtimol-eytimol, aptidan, maboda, magaram*<sup>57</sup>.

Bundan tashqari, o'zbek tilining lug'at tarkibiga arablar hukmronligi davrida va arab tili ta'sirida bir talay arabcha so'zlar o'zbek tili leksikologiyasining ajralmas qismi bo'lib qoldi. Fors-tojikcha leksik birliklar faqatgina o'zbek adabiy tiligagina emas, balki uning barcha shevalariga ham kirib kelgan. Shuning uchun ham o'zbek dialektologiyasida shevalar tarkibidagi forsiy-tojikcha leksik qatlamni o'rganish masalalariga e'tibor berib kelindi va ayni shu bo'yicha yaxlit bir monografiyalar ham yaratilgan. Fors-tojik tilidan o'zbek shevalariga o'zlashgan so'zlardan misollar keltiramiz: *chorzona-chordana* (shevada *mulla bachcha* bo'lib o'tirish, (adabiy tilda) oyoqni yig'ib o'tirmoq); *chopon-to'n, kallayi-pocha- kallapocha* (ovqat nomi), *girdixona-ko'rpacha, palav (palov) -osh* (ovqat);

B. B. Reshetov, Sh. Sh. Abdurahmonov, B. Jo'rayev, M. Mirzayev, S. Rahimov, T. Sodiqov, N. Shoimov kabi olimlarning ishlarida ham shu mavzular ko'tarilgan bo'lib, ularda shevalar tarkibidagi forsiy-tojikcha so'zlarning leksik xususiyatlari, fonetik o'zgachaliklari kabi masalalarga e'tibor berilgan.

Yuqorida forsiy-tojik tilida va o'zbek tilida birdek ishlatiluvchi leksemalardan misollar keltirib o'tdik. Ularning orasida bizga anchayin tanish bo'lgan so'zlar mavjud, Bundan ko'rinib turibdiki, Surxandaryo o'zbek shevalari leksikasida ham forsiy-tojikcha o'zlashmalar o'ziga xos o'rinni egallaydi. Biz o'z

---

<sup>57</sup> Fayziyeva X.Ch. O'zbek tili Boysun- Sho'rchi guruh shevalarining lug'at xususiyatlari,- Termiz-2023. 32-33-bet

tadqiqotimizda bir qator shevashunos olimlarimiz ishlariga suyangan holda tadqiqot obektimizdagi ana shu boylikning u yoki bu xususiyatlarini baholi qudrat yechishga urunib ko'rdik.

Qashqadaryo o'zbek shevalari tadqiqotchisi, shevashunos B. Jo'rayev shunday deb yozadi: "Yuqori Qashqadaryo shahar shevalarini kuzatish shunday xulosaga olib keldiki, bu sheva vakillari qadimdan fors-tojik xalqi vakillari bilan yaqin joyda istiqomat qilgan va ular bilan uzviy aloqada bo'lganlar. Biz tekshirayotgan sheva vakillari tojik tilini bilmasalar ham, ular so'zlashayotgan tilning leksikasi fors-tojik tilidan kirgan so'z va terminlarga boy. Ishimizning lug'at qismida berilgan shevaga xos iboralar, so'z va terminlarning o'ttiz foizdan oshig'i fors-tojik tiliga xosdir. Bu so'zlar qandaydir sohaga, bir mutaxassislikka doir yoki torroq doirada qo'llaniladigan so'z va terminlardan iborat bo'lmasdan, balki ular kishilar faoliyati bilan uzviy bog'liq ravishda barcha sohalarga oid va nihoyat darajada o'zlashib, singib qolgandir"<sup>58</sup>.

Yuqorida olimning fikri bevosita Surxondaryo o'zbek shevalari uchun ham xos va mosdir desak mobolag'a qilmagan bo'lamiz. Negaki, Qashqadaryo va Surxondaryo voaha shevalari o'zaro yaqin va o'xshashdir.

Garchi juda aniqlik bilan ayta olmasakda, to'plangan lisoniy materiallarning ko'rsatishiga ko'ra Surxondaryo viloyatida istiqomat qiluvchi o'zbek shevasida muloqot qiluvchi vakillarning nutqidagi so'zlarning anchagina qismini fors-tojikcha leksemalar tashkil ertadi. Nafaqat leksemalar, ya'ni so'zlar, balki fonetik talaffuzga ham bu narsa o'z ta'sirini ko'rsatgan. Tojik millatiga mansub kishilar nutqiga e'tiborimizni qaratsak, ular o'zbek tilida gapirganida unllilarni cho'zib talaffuz qilish holatlari yaqqol sezilib turadi. Unllilardan "i" unllisini cho'zish holati ayniqsa, ko'p uchraydi.

Masalan, Po'lot, qandoy, zo'rmiy, yaxshiyimi? Qachon munday o'yga kelasiiz? (Denov, Daxana qishlog'i shevasi).

Ular esa mahalliy aholini jamiyki faoliyati bilan bog'liq so'z va atamalar yoki iboralardan iboratdir. Sheva leksikasini kuzatishdan shu narsa ayon bo'ldiki,

---

<sup>58</sup> Жўрайев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари, -Тошкент. 1967. 167-б.

tadqiqot obektimizda, ayniqsa, uy-rozg'or buyumlari (tog'ora), oziq-ovqatlar (chuchvara- *tushvara*, non, qant(qand), *paluv-palov*, sho'rva-*sho'rbo*, *chalap-chalob*, *objish-objo'sh*, *xolva-xolvo* va hakovolar), kiyim-kechak, poyafzallar (*mahsi-maxi*, *kovsh-kavish*, *yaxtak-yaktak*, *jilop-churop*, *poytaba-poytava* va boshqalar kiradi), o'simliklar ularning shevalari (zordoli-*zordolu*, karam-*koram*, piyoz-*piyaz*, kumjit-*kunjut*, kadi-*kadu*) kabilarni bildiruvchi birliklar keng ko'lamda foydalaniladi.

Masalan, Bachem, to'yga keech keldiik, hich bir *avqot*: *sho'rbo*, *palo'v* qolmabdi (Termiz).

Misollardan o'zbek adabiy tiliga ham, uning shevalari, xususan, Surxondaryo o'zbek shevalariga ko'proq aniq ma'noli leksik birliklar o'zlashtirilganligi ko'rinib turibdi. Bu hol A.K. Borokovning quyidagi fikrining isbotidir: "Tojik tilidan kirgan so'zlarning ko'pchiligi ma'lum real narsalarga bog'liq so'zlardir, shuning uchun ular o'zbek lug'atiga kirib mahkam o'rnashib qolgan"<sup>59</sup>.

O'rganilgan shevalar tarkibidagi fors-tojikcha leksik qatlam haqida aniq tasavvur hosil qilish maqsadida ularni quyidagi guruhlariga ajratib ko'rsatish kerak deb o'yladik:

1.O'zbek adabiy tilida ham, tadqiqot obektimizda ham baravar qo'llanilayotgan umumiy harakterdagi leksik birliklar. To'g'ri, bunday umumxarakterdagi leksemalarning barchasini aniqlash va ular xususida to'xtalib o'tish, birinchidan, ishimizning hajmiga ta'sir etgan bo'lar edi, ikkinchidan esa bunga ayni shu ishimiz doirasida unchalik hojat ham sezmadik. Ammo biz o'tkazgan bir eksperiment, to'g'rirog'i, adabiy tilda va shevadagi so'zlarning qo'llanilishini aniqlash borasidagi ayrim hisob-kitoblar bu haqida muayyan tasavvur hosil qiladi. Biz "O'zbek tilining izohli lug'ati" dan "s" harfiga kiritilgan so'zlar ayni shunday tovush bilan boshlanuvchi shevaviy so'zlarni bir-biriga qiyoslab ko'rdik. Natijada lug'atning 157 ta va shundan 39 tasi, ya'ni qariyb 25%

---

<sup>59</sup> Боровков А. К. Ўзбек тилининг лексикасидаги ўзлаштиришлар ва янги алфавит, Ўзбекистон Фанлар Академияси. 112-б.

sheva vakillari nutqida ham ishlatilayotganligi ma'lum bo'ldi. Bunday xarakterdagi leksik birliklar jumlasiga biz quyidagi leksik birliklarni misol qilib keltirishimiz mumkin, albatta, bu leksemalar talaffuzda shevaga xos talaffuz etildi:

*sabzavot* (sabzovot), *sabzi* (sabzi), *Sebil-sebilqog'ir* (sabil), *sebat* (savat), *sovda* (savdo), *sovdagor* (savdagar), *sadqa* (sadaqa), *soza* (sazo), *sorak* (sorak, mayak-uchisinmagan, butuntuxum), *sargardan* (sargardon), *soray* (saroy), *sarpa* (sarpo), *sorsan* (sarson), *serjan* (serjon), *soz* (yaxshi, tuzuk, *durust* (sust), *so'pi* (so'fi) aslida fors-tojik tiliga arab tilidan ko'chgan).

Keltirilgan misollar yuqoridagi fikrimizni bir tomonlama tasdiqlaydi. Negaki, biz misollarni je-lovchi sheva vakillari nutqidagi so'zlardan oldik. Ayrim Surxondaryo o'zbek shevalarida ushbu leksemalar adabiy tildagi kabi qo'llanaveradi. Bu holni ko'proq ye-lovchi o'zbek shevalarida ko'ramiz. Misollar bir yoqlama bo'lib qolmasligi uchun yana quyidagilarni har ikki manbada, ya'ni adabiy tilda va shevada barobar qo'llanilayotgan so'zlarni misol qilib keltirdik:

<b>Adabiy tila</b>	<b>shevada</b>
Tana	tana
Tana	tona
Tang	tong
Tarang	tarang
Xazon	xozan
Xalta	xolta
Xas	xos
Chakka	chakki
Chaka	chola
Chiroy	chiray
Shanba	shamba
Shisha	ishsha

Surxondaryo o'zbek shevalarida kelib chiqishi fors-tojikcha, shunday leksik birliklar ham ishlatiladiki, ularning hozirgi kunga qadar adabiy muqobili

mavjud emas. Fikrimizning isboti uchun aniq misollarga murojaat qilamiz. Surxondaryolik dehqonlar nutqida “*payanab*” ye-lovchi “*payonob*” leksemasini uchratamiz. Bu soʻz, shubhasiz, adabiy tilimizda uchramaydi. Surishtirishlar natijasida bu soʻz sugʻorilgandan soʻng sizib chiqadigan suv tushunchasini ifodalashiga amin boʻldik<sup>60</sup>.

Shuni taʼkidlash lozimki, tadqiqot obektimizda ishlatilayotgan “*payanob*” (poyon -oxir, ob-suv) suvning oxiri degan maʼnoni bildiradi. Mana shu xildagi shevaga xos, lekin adabiy tilga xos boʻlmagan leksik birliklar jumlasiga yana quyidagilarni misol qilib keltiramiz:

*Bodi*-olifta, oʻzini boshqalardan ustun deb biluvchi, gerdaygan; *sirajam*-kundan kunga bodi boʻlib boryapti (Termiz). Senga *bodichilik* jarashmaydikan (Muzrabod).

Shevada soʻzga *-lik* affiksi qoʻshilib, yangi soʻz ham hosil qilingan. Bizga Baxromning *bodiligi* ketmaydi (Shoʻrchi).

**Daliz** – aslida fors-tojikcha *daxliz* boʻlib, “*xonalarga kirish va xonalarning oʻzaro aloqasi uchun xizmat qiluvchi binoning ichidagi yoʻlak*” maʼnosini ifodalaydi.

Ulim, eshikni qattiqroq jovup ke, *dalizga* shamol kirsam tomom sobib ketadi (Rabot).

**Poytaba** – oyoqqa oʻraladigan latta (Machay). *Bavur*-jigar, *digar*-boshqa, begona. Oʻzbek-tojik leksemalarini qorishtirib maqollar ham tuzilgan. Masalan, *Jigar – jigar, digar – digar* (Maqol).

**Daskala** (qiyos Qashqadaryoda kachkort)<sup>61</sup> – “asosan, novdalarni novdasimon narsalarni kesish uchun ishlatiladigan, kesish qismi uzunroq, kengligi ikki, uch barmoq keladigan asbob”. *Pilla* maxaliyam joqinlashayapti, daskalani Tilob bogʻaga chorxlatip kenglar (Muzrabot); *trama* (tirama: tiroma) maʼnosida *tramai* olma: jozning ovzayigʻa qorap oytadigʻon boʻlsak, bu jil *trama* soz keladi (Angor)

---

<sup>60</sup> Ayni shu maʼnoda izama, izova leksemalari ham ishlatiladi.

<sup>61</sup> Shoimova.N. Qashqadaryo oʻzbek qipchoq shevalari leksikasi.2000-y.88-bet.

**Dashsho'y** (*Dast*-qo'l, *sho'y*-yuv) -asosan, qo'l yuvish uchun ishlatiladigan qopqog'i teshik -teshik jomsimon mis idish.

Qiyos: Jizzax(*dashi*), (*dashuva*), (*daxvi*). *Dashshuidi* tezroq opkengnar meimonlar qo'lini juvip osin. (Boysin).

### **Arabcha leksik qatlam**

Markaziy Osiyo, shu jumladan, hozirgi O'zbekiston hududi arablar tomonidan istilo qilingandan so'ng nafaqat ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayotda, balki diniy hayotda jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Avvalombor, bu joylarda arab tili negizida yaratilgan islom dini tarqatildi, qator ilmiy, adabiy, diniy asarlar arab tilida yaratildi, madrasa va maktab darslarining juda ko'p qismi arab tilida olib borildi. Bu omillarning barchasi o'zbek tiliga ham bir qancha arabcha so'zlarning kirib kelishiga yo'l ochdi. Biz "O'zbek tilining izohli lug'ati" dagi "S" harfida o'z ifodasini topgan va aslida arab tiliga mansub bo'lgan leksik birliklar hisoblab chiqildi. Aniqlanishicha, mazkur harf tarkibida 360 ta arabcha va ularning boshqa tillar so'zlari hamda yasovchilar bilan hosil qilingan leksema qayd etilgan. Bu "S" harfiga kiritilgan jami so'zlar (2396) ning 6,8% demakdir. Shunday leksik birliklar jumlasiga quyidagilarni misol keltirishimiz mumkin: sabab, sabo, sabot, sabr, savdo, savlat, savod, savol, savr, sadaqa, said, sayyora, sayyoh, sayil, says va boshqalar. Bu o'rinda quyidagi holatlarni e'tiborga olish lozim:

1. Keltirilgan arabcha so'zlar "O'zbek tilining izohli lug'ati" dan joy olgan boshqa leksemalar ham o'zbek adabiy tiliga xosdir.

2. Bu kabi leksemalarning bir qismi shevalarda, jumladan, Surxondaryo o'zbek shevalarda ham qo'llab kelinmoqda (tabiiy, ularning ko'p qismi shevaning fonetik talaffuziga moslashtirilgan bo'ladi).

Misollarga murojaat qilamiz: *savir* ("sabir" ma'nosida): shu deyman, Xatcha xola pichi *savir* qisa bo'laydi. (Angor);

*sovaq* ("Saboq" ma'nosida): Rayim piyanistaning qiliyn hammamizga sobaq bo'sin (Angor);

*suval* (“savol” ma’nosida); Xali to’rtgayam kirmagan Xalim bacha enasiga shunday *suval* beribdi;

*jer* aylansa, osmong’a uchib ketmaymi? (Jarqo’rg’on);

*saratan* (“Saraton” ma’nosida); Polvon, esingizdami?

*bultir* saroton oncha soqin kebidi (Muzrabot).

Sh. Shoabdurahmonov shunday deb qayd etadi: “O’zbek adabiy tilidan kirgan so’zlar grammatik jihatdan ot, sifat, ravish, yordamchi so’zlar va ba’zi qo’shma fe’llarning ayrim komponentlaridan iborat bo’lsa, shevalarda esa arab tilidan kirgan so’zlar (ammo, lekin, balkim kabi) ba’zi bir yordamchi so’zlardan tashqari, asosan, ot, turkumiga xosdir”<sup>62</sup>.

O’rganilgan shevadan to’plangan materiallar bu fikrni to’la tasdiqlaydi. Masalan, *oqil* (adabiy - orfografik aql; qiyos: Toshk.; aqil); *opat* (adabiy-orfografik, ofat); *kakil* (adabiy-orfografik kokil); *sog’ir* (adabiy-orfografik sigir); *tavip* (adabiy-orfografik, tabib, Toshk. tayip); *poxir* (adabiy-orfografik, faqir); *ishpa* (adabiy-orfografik shifo, Toshshipo).

3. Kuzatuvlarimizdan shu holat ayon bo’ldiki, leksikasi o’rganilgan shevada, o’zbek adabiy tilida (“O’zbek tilining izohli lug’atida”) qayd etilmagan qator leksik birliklar tez-tez ishlatilib turadi. Bunday leksemalar jumlasiga quyidagilarni misol keltirishimiz mumkin:

**Zambir** <sup>63</sup>(adabiy tilda – ari); *Zombirding* inini buzma chog’ib oladi (Muzrabod).

Qiyos: ye-lovchi shevalarda *zambur*. Yana shuni aytishimiz kerakki, zambir hasharotining hajm jihatdan yirikrog’i “*govzambir*” deb ataladi. Bundan tashqari, “*sariq zambir*”, “*afg’on zambir*” deb atalish ham mavjud (Termiz). Zambir so’ziga sinonim tarzida “binggak” leksemasi ham ishlatiladi.

**Xayla** (ad, tilda -ana, xov ana): Bolam Karim chobag’anding uyi qaysi? Xayla, ko’rinib turg’an to’badagi birinchi uy (Rabot).

---

<sup>62</sup> Shoabdurahmonov Sh. O’zbek adabiy tili. 157-bet

<sup>63</sup> Shoimova N. Qashqadaryo o’zbek shevalarida ham ishlatiladi. Ko’rsatilgan adabiyot.



**Xeynavi** (ad. ana u, mana bu): Xeynavi do'pni (ad tilda- to'p, ya'ni ko'ptok) tepib yubor (Denov).

**Xuyda-xuyda** leksik birligi o'zbek adabiy tilida ishlatilmaydi. Aslida, arab tili so'zlari negizida hosil bo'lgan bu leksema "*oraga tinchlik-jimlik*" degan ma'noni anglatadi: "Bolani xatna qilish paytida uni tinchitish, ovutish maqsadida ishlatiladigan o'ziga hos undov so'z ma'nosida ishlatiladi. U ayni shu shaklda Qashqadaryo va Surxondaryo o'zbek shevalarida keng qo'llaniladi.

Masalan, bachchaning qo'lini xolalayapkanda "*xuyda-xuyda*" demasangiz bo'lmaydi, bo'lmasa bacha ishlap jo'taveradi (Rabot).

Surxondaryo shevalarida qayd etilganlardan tashqari arab tilidan o'zlashtirilgan, biroq adabiy tilda ishlatilmaydigan, yana quyidagi leksemalar tez-tez qo'llanilib turiladi: *mashrapa* (shishasimon katta idish), *mo'mal* (lapashang, uquvsiz kishi), *patofat* (vayron-talqon bo'lgan joy, vayrona, xaroba).

Ma'lumki, tillarning ko'pchiligida boshqa tillardan o'zlashtirilgan leksemalarning bir qismi, til qonuniyatlariga muvofiq, ma'nolari o'zlashtirilgan holatda qo'llanadi. Arab tilidan o'zlashgan leksik birliklar haqida ham shunday deyish mumkin. Bunday holda o'zbek adabiy tilida va uning shevalarida ham tez-tez uchrab turadi. Mazkur fikrlar tog'ri ekanligini tadqiqot obektimiz orqali yaqqol ko'rishimiz mumkin: *ayir* leksemasi o'zbek adabiy tilida "birovni ko'ra olmaydigan, rashq qiladigan qizg'onadigan, yomonlik qilishni hohlaydigan, ichi qora"<sup>64</sup> ma'nosini anglatib, odamlarga nisbatan ishlatiladi. Surxondaryo o'zbek shevalarida *g'ayir* leksemasi shu ma'noda qo'llanishi bilan birga, itlarga nisbatan ham ishlatilib, "qopadigan, qopog'on, qopang'ich ma'nosida qo'llaniladi. Masalan, Kuchikning shuvashmas, g'ayiri yaxshi bo'ladi deyishadi. (Boysun). Qashqadaryo o'zbek shevalarida ham *g'ayir* leksemasining itlarga nisbatan ayni shu ma'noda ishlatilishi haqida N. Shoimomov "Qashqadaryo o'zbek shevalari leksikasi" asarida ta'kidlab o'tgan (91-bet).

Qashqadaryolik dialektolog olim B. Jo'rayev nomi qayd etilgan asar (Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari lug'ati, 287-bet) da *hayot* leksemasi qayd

---

<sup>64</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati, 11, 648-bet

etilgan bo'lib, unda *hovliga tutash devor bilan o'ralgan bog'* ma'nosini ifodalashi ko'rsatib o'tilgan. Surxondaryo shevalarida ham u hayot shaklida ishlatilib, ayni shunday ma'noni ifodalaydi.

Masalan, Sorotanda *hojatimizda* ot ko'p boladi (Rabot).

Adabiy tilda esa arab tilidan o'zlashgan hayot leksemasi boshqacha ma'noda ishlatiladi. 1. Kishi va hayvonlarning fiziologik mavjudligi, yashashi, yashash". 2. Kishi va jamiyatning faoliyati va yashash yo'sini; turmush tirikchilik (O'zbek tilining izohli lug'atida) ma'nosini ifodalaydi. Rostan, shevada ham mazkur leksema ayni shu ma'nodasida, biroq talaffuzi boshqacharoq, ya'ni "*hojat*" shaklida qo'llaniladi.

Masalan, shu chinor bovamning bovasi *hojatligida* ekilganakan (Sho'rchi).

Ko'rinib turibdiki, adabiy tilda mavhum (*hojat*) ma'nosida ishlatilgan so'z shevada hojat, hayot shaklida konkret ma'noli so'zga aylangan.

5.O'zbek adabiy tilida bo'lganidek, uning shevalari, xususan, tadqiqot obektimiz leksikasida ham arabcha so'zlar negizida yangidan yangi leksik birliklar hosil qilinganligiga guvohi bo'ldik. Bunday so'zlar arabchadan o'zbekcha, arabchadan tojikcha so'zlar yoki buning aksi bo'lishi mumkin. Ya'ni affiks arabcha so'zdan tojikcha affiks qolipida bo'lishi mumkin. Fikrimizning dalili uchun quyidagi misollarni keltiramiz:

*belaqam* (bedan -arabcha laqab)- "*asov*" ma'nosida, *kavishdo'z*- "kavush tikuvchi" ma'nosida; *birnovi* (baxornavi)- "yaxshi hamki, har tugul" ma'nosida; *nazangir*- "nazarga ilinmaydigan, ko'rimsiz" ma'nosida, *sezgir*- "sezuvchi, oldindan biluvchi", *saxargir*- "erta saxar, vaqti ma'nosida" va boshqalar shular jumlasidandir.

### **Rus tili va u orqali boshqa tillardan o'zlashgan leksik qatlam.**

Boshqa regionlardagi shevalarda bo'lganidek, Surxondaryo o'zbek shevalarida ham rus tilidan va uning vositasi boshqa tillardan o'zlashtirilgan leksemalar o'ziga xos o'rinni egallaydi.

O'zbek tiliga ruscha-baynalminal leksik birliklarning o'zlashtirishi XIX asrning ikkinchi yarmini, hozirgi Markaziy Osiyo tasarrufiga o'tgandan keyin boshlandi. Bu jarayon 1917-yilning oktabridan keyin, bizning hududimizga ham sovet hukumati o'rnatilgandan keyin jadal tus oldi. Mana shu asnoda nafaqat o'zbek adabiy tiliga, balki uning barcha shevalariga ham ruscha so'zlar va terminlar o'zlashtirila boshlandi. O'zbek tilshunosligida bunday leksik birliklarning o'zlashtirilishi masalalariga bag'ishlangan qator tadqiqotlar mavjud. A. K. Zarovkov, Sh. Sh. Shoabdurahmonov, M. Mirzayev, U. Kamolov, U. Tursunov, A. Ishayev kabi olimlarning ishlari shular jumlasidandir.

Bu ishlarning barchasida ruscha-baynalmilal leksik birliklarning o'zbek adabiy tiliga o'zlashish jarayoni o'rganilgan. Sh. Shoabdurahmonovning monografiyasida o'zbek tilining tayanch shevalari leksik tarkibidan "mustahkam o'rin olgan va o'zlashgan so'zlarning sakkizta tematik guruhi doirasida tegishli misollar keltiriladi"<sup>65</sup>.

B. Jo'rayevning ishlaridan birida *boshpo't* (passport), *dakimut* (document), *gazit*(gazeta), *aptik* (apteka), *kamput* (konfet), *kansit* (konsert) so'z va terminlarning Qashqadaryo (yuqori) o'zbek shevalaridan mustahkam o'rin olganligi haqida fikr yuritiladi<sup>66</sup>.

Toshkent viloyati o'zbek shevalarini o'rganishga bag'ishlangan kollektiv monografiyasida ham o'zbek tili shevalarida qo'llanilayotgan so'z va terminlar yuqoridagi kabi sakkiz tematik guruhga bo'lib chiqilgan va transkripsiyada tegishli misol keltirilgan<sup>67</sup>.

Bundan tashqari, Surxondaryo hududi doirasida ruscha so'zlardan bir qanchasi o'zlashgan bo'lib, jumladan, "*karoche*" (qisqasi), "*davay*" (boshladik), "*zontik*" (soyabon), "*kotyol*" (issiqlik ta'minoti) kabi so'zlar ham mavjuddir.

Biroq, A. Ishayevning mazkur masalani o'rganishga bag'ishlangan bir maqolasi mavjudki, unda o'zbek tilining mang'it shevasiga (Xorazm) o'zlashgan

---

<sup>65</sup> Shoabdurahmonov Sh. O'zbek adabiy tili. 222-224-betlar.

<sup>66</sup> Jo'rayev B. Yuqoro Qashqadaryo o'zbek shevalari leksikasi.173-175-betlar.

<sup>67</sup> Тошкент вилояти ўзбек шевалари. -Тошкент, 1976. 99-101-б.

ruscha -baynalmilal soʻz va terminlar keng va atroflicha tahlil etib berilgan. Shuning uchun ham maqolaga maxsus toʻxtalib oʻtamiz.

Maqolada taʼkidlanishicha, xilma-xil siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohadagi aloqalar va boshqa omillar oʻzbek tiliga va uning shevalariga ham ruscha-baynalmilal leksik birliklarni adabiy tilga hamda shevalarga oʻzlashtirilishiga olib keladi. “Biroq -deb uqtiradi muallif, ruscha- baynalmilal leksik birliklarni adabiy tilga va shevalarga oʻzlashtirilishida oʻziga xos qonuniyatga amal qilinadi. Bu holatni olim quyidagicha sharhlaydi: Adabiy tilimizda rus tilidan kirayotgan soʻzlar, koʻpgina siyosiy, badiiy, ilmiy asarlarini tarjima qilish orqali oʻzlashtiriladi. Shevada bunday holat uchramaydi”. Shevada bugungi kunda nafaqat ruscha soʻzlar, balki inglizcha soʻzlar ham faol ravishta qoʻllanilmoqda. Bu soʻzlar ommaviy axborot vositalari, har xil saydlar telegram, Instagram, facebook va hakoza) yokida shu til oʻrganuvchilar nutqi orqalimi bizning nutqimizga kiradi va qoʻllaniladi.

Rus tilidan kirgan har qanday soʻz shevaga qoʻllanilib ketavermaydi. Faqat ehtiyoj uchun zarur boʻlgan, shevaning lugʻat sastavida turgʻun turkiy ekvivalenti boʻlmagan soʻzlarga kirib oʻzlashadi<sup>68</sup>

Tadqiqot obektimizda ham shunday holni koʻrish mumkin. Fikrimizning tasdigʻi uchun mazkur maqolada keltirilgan quyidagi misollarni keltiramiz:

Rus tilida	Adabiy tilda	Surxondaryo oʻzbek shevasi(qipchoq)
Odyalo	adyol	adyal
Shyotka	choʻtka	choʻtka
Krovat	karavat	koravat
Kartofel	kartoshka	kartishka
Botinki	botinka	batinka(patinka)
Konservoʻ	konserva	kansirva
Konfeta	konfet	kampit
Morojenoe	marojniy	marojni

<sup>68</sup> Ишаев А. Манғит шевасига рус тилидан ўзлаштирилган сўслар. -Тошкент, 1961, 364-б.

Kotleta	kotlet	katlit
Papirosa	papiros	popras(popo'rs)

Ko'rib chiqilgan maqolaning yana bir ahamiyati tomoni shundaki, unda shevaga "rus tilidan va rus orqali boshqa tillardan kirgan so'zlarning ijtimoiy hayotimizning turli sohalariga mansub ekanligi nuqtai nazaridan qator tematik guruhlariga bo'lib chiqilganki, ayni shunday holatni tadqiqot obektimizdagi materiallar ham shu holatni tasdiqlaydi:

1. Ijtimoiy -siyosiy va ma'muriy boshqaruviga oid so'zlar: deputat(deputat), zapxoz, nachalnik(nachaynik)...

2. Qishloq xo'jaligiga oid so'zlar: sapxoz(sapko'z).

3. Ish qog'ozlari, savdo va hisobotga oid bo'lgan so'zlar: metrika, po'ropuska(propiska), bo'raq bo'lgan tovarlar (brak bo'lgan tovarlar)

4. Transport, sanoat, aloqa va boshqa sohaga oid so'zlar: vakzal, aeraport, samalyot, matatsikl, pasulka...

5. Ijtimoiy hayot va sog'liqni saqlash ishlari bilan bog'liq bo'lgan so'zlar: gazet, kiyna, balnsa (banisa);

6. Fizkultura-sport, harbiy sohagaga oid so'zlar: kamando'r, saldat, aptamat;

7. Uy asbob-anjomlari, oziq-ovqat va kiyim-kechak nomlari: samovar, po'lash, ko'rtka;

8. Kalendar, astronomiya va har-xil o'lchovlarga oid so'zlar: yanvar, miyto'r.

Shevalarga o'zlashtirilgan ruscha- baynalmilal so'z va terminlarni yuqoridagi tasnifdan farqli o'laroq olim N. Shoimova ikkita yirik guruhga bo'ladi <sup>69</sup>

1. Adabiy tilda ham shevalarda ham ishlatilayotgan o'zlashma leksik birliklar.

2. Adabiy tilda ishlatilmaydigan, biroq shevada o'nashib qolgan ruscha - baynalmilal leksik birliklar.

Hozirgi bosqichda o'zbek adabiy tilida va shevalarida aynan bir xil ma'noni ifodalaydigan o'zlashtirma leksik birliklar qatlami tarkib topdi. Ammo, bu

<sup>69</sup> Shoimova N. Ko'rsatilgan adabiyot. 99-bet.

o'rinda shuni e'tiborga olish kerakki, o'zbek adabiy tilida imlosi rus tilidagidek bo'lishi qat'iyashtirilgan ruscha-baynalmilal so'z va terminlar har bir shevaning o'ziga xos qonuniyati asosida talaffuz qilingan bo'ladi.

Rus tilida pomidor aslida italyan tilidan kirib kelgan (italyan "pomodoro oltin olmalar" degan ma'noni anglatadi.

O'zbek tilining izohli lug'atida bu leksemaning pomidor shakli adabiy til uchun norma ekanligi, uning Toshkent shevasidagi pomildori shakli esa so'zlashuv tiliga xosligi qayd etilgan. Mazkur leksema Surxondaryo o'zbek shevalarida (qipchoq) pamadr tarzida talaffuz qilinadi:

Siynim, pamaduringiz nechi so'm? (Angor).

O'zbek adabiy tilida me'yor sifatida olingan ruscha -baynalmilal va shevalarda, ma'nolarida farq qilmaydigan umumiy leksik qatlamga quyidagilarni misol keltiramiz:

Adabiy orfografiya	Toshkent shevasi	Surxondaryo o'zbek (qipchoq) shevasi
Militsioner	milisa	minisa(milisa)
Bulka	bo'lka	po'lka
kino kiyno	(ki:no)	k:no
kostyum	kastum	kastum
buxgalter	bugalter	bug'alto'r
bank	bonka	banka
kanal	kanol	kanang

Yuqoridagi misollardan yaqqol ko'rinib turibdiki, Surxondaryo shevalarida ham ruscha-baynalmilal leksik qatlam o'rinlari mavjud.

Atoqli olim shunday yozgan ekan: "Sheva doirasidagi o'zlashtirmalar qatoriga barcha joylarga ham qo'llanavermasligi bilan xarakterlanadidan, bir yoki bir guruh shevalarda qo'llanishda bo'lgan va dabiy tilga xos bo'lmagan, kelib chiqishi ajnabiy hisoblanadigan so'zlarni qo'shamiz". Shundan kelib chiqib qaraganda Surxondaryo o'zbek shevalarida o'zbek adabiy tiliga olib kiritilmagan

ko'pgina ruscha-baynalminal (sof ruscha) so'zlar qo'llanayotganligining guvohi bo'lamiz.

O'zbek adabiy tiliga ham, Surxondaryo o'zbek shevalariga ham o'zlashtirilgan va yuqorida ko'rib chiqilgan leksik birliklardan quyidagi tahlil etiladigan leksik birliklarning farqi shundaki, keyingi guruh leksemalar adabiy tilda ishlatilmaydi, ular "O'zbekcha-ruscha lug'at", "O'zbek tilining izohli lug'ati" da ham qayd etilmagan. Bunday so'zlar kam savodlilar nutqida, jamiyatning ilmi kishilari nutqida ham ishlatilaveradi. Ular tilshunoslikda varvarizmlar deb ataladi. Bunday leksemalarning sheva vakillari nutqining ajralams bir elementi sifatida yashayotganligini tasdiqlaydigan misollarni keltirib o'tamiz.

Adabiy tilda "*tush vaqtida yeyiladigan ovqat*" tushunchasi *tushlik* so'zi orqali ifodalanishini yaxshi bilamiz. Biroq shevada ruscha "obed" leksemasining nutqqa moslashtirilgan abet (abit) shaklini qo'llashni qulay ko'rishadi.

Masalan, Bugun abitti Bobirlarnikida qilayik (Denov).

Bundan tashqari *zaynit, istalovoy, banisa, sapsim, to'lka, ogarat, vafiln, obsho, garantiya, zakaz, astanofka* kabi leksemalar Surxondaryo o'zbek shevalarida faol nutqda qo'llanilib kelingan. To'plangan materiallar tahlilidan yana shunday holat ma'lum bo'ldiki, ayrim ruscha-baynalmilal so'zlar shevalarda ayni ma'nosida qo'llanishi bilan birga, boshqa o'rinlarda, ya'ni boshqa ma'nolarda ham ishlatiladi.

Rus tilida aslida nemis tilidan o'zlashtirilgan kran(kchan)atamasi ishlatilgan bo'lib, u og'ir yuklarni ko'taradigan va bir joydan ikkinchi joyga ko'chiradigan mexanizm ma'nosini ifodalaydi. Mazkur termin ayni shu ma'nosida o'zbek adabiy tilida ham ishlatilmoqda (O'zbek tilining izohli lug'ati). "Toshg'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on" temir yo'l qurilishiga ellikga yaqin yuk tashuvchimashinalar va ko'tarma kranlar keltirildi. "*kran*" leksemasi sheva vakillari nutqida ham *yuk tashuv texnikasi* nomini anglatadi. Ammo rus tilida aslida golland tilidan o'zlashtirilgan va ko'rib chiqilgan misolga omonim bo'lgan kran atamasi ham ishlatiladi.

Ulum Kranti jovip qo'y, suv isrop bo'masin (Angor).

“O'zbek tilining izohli lug'ati” daruscha-svet (Elektr toki) so'zi qayd etilmagan. Biroq *svet* leksemasi tekshirilgan shevada *so'bo't(suvit)* shaklida talaffuz qilinishi kuzatdik. Quyidagi misollarga e'tibor beraylik:

To'y endi qizigan palla *suvit* o'chib qoldi (Angor).

Rus tilidan suvi tarzida o'zlashtirilgan bu leksema “*Elektr toki quvvati bilan yonadigan lampa*” ma'nosini ifodalab kelmoqda.

Ko'p hollarda, chorva mollari, ayrim o'simliklar urug'i, guli va mevasidan olinadigan, balki shevalarda ham ko'plab fors-tojikcha so'z va tereminlar o'zlashtirilib ishlatilishini bilamiz. Arablar istilosi natijasida tilimizda, shuningdek, uning shevalarida qator adabiy leksik birliklarning mustahkam o'rin olishiga sabab bo'ldi. Boshqa shevalarda bo'lgani kabi, Surxondaryo o'zbek shevalarida ham ma'lum sabablar tufayli ko'plab ruscha-baynalmilal leksik birliklar ishlatiladigan bo'ldi. Muhimi, o'zlashtirma leksik qatlam o'rganilgan shevada ham, birinchidan, ayni o'z ma'nosida, ikkinchidan, asli yoki biror ma'no o'zgartirilgan holda ishlatiladi.

1. Surxondaryo o'zbek shevalarining leksik tarkibi, asosan, umumturkiy so'zlardan, ya'ni o'zbekcha so'zlardan tashkil topadi.

2. O'zlashtirilgan so'zlar fors-tojik, arab, ruscha so'zlar bo'lib, ularning talaffuzi shevaning fonetik qonuniyatlariga bo'ysunadi.

3. Shevaning o'ziga xos bo'lgan leksemalari ham ishlatiladi, ular boshqa o'zbek shevalaridan farqlanib turadi.

4. Shevada o'zlashtirilgan so'zlarning qo'llanilayotganligi sababli ko'pgina sinonimik qatorlar vujudga kelgan: buzov-ojek-go'sala-adabiy qo'llanishi esa buzoq tarzida.

5. Sheva leksik tarkibidagi adabiy tilda uchramaydigan so'zlar, ayniqsa, chorvachilik, g'allachilik va shu kabi Surxondaryo shevalarida juda noziklik bilan ifoda etiladigan so'zlar adabiy tilga qabul qilinsa, uni yanada boyitadi.



6. Shevada ko'plab uchraydigan sinonimlar (ularning adabiy tilda muqobil bo'lsada) qabul qilinsa, adabiy tilning uslubiy vositalarini boyitishga xizmat qiladi.

7. Ayrim tarixiy so'zlar borki, ularning ma'nolari davrlar o'tishi bilan o'chib ketgan.

Keltirilgan so'zlarning ba'zilari shevalarda saqlanib qolgan bo'ladi. Bu singari so'zlar til tarixini o'rganuvchilarga muhim manba, vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Quyida hududlarda kundalik turmush tarzida foydalaniladigan ba'zi so'zlardan yana misollar keltirdik.

### **Dialektal so'zlar**

O'rta Machay qishlog'ida kundalik-maishiy so'zlar:

*Qo'sh*-faoliyat-jarayon nomi, yerga urug' ekish jarayoni,  
*omoch*-qo'sh haydash asbobi, bo'yinturuq, tirchak, bo'yinchak,  
*quloq*-hammasi qo'sh anjomlari,  
*g'albur*-elakdan ko'zi kattaroq elak turi,  
*chig'il*-galburdan ko'zi kattaroq elak turi,  
*chalg'i*-uzun dastali o't o'rish quroli,  
*galagev*- xirmon yanchish marosimi (ho'kiz va eshshak yoki yilqilar bilan) bajariladi,  
*shoxa* tashlash-yanchilgan xirmonni don va somonga shamol yordamida ajratish,  
*bo'yinsa*-tengdosh, oshna, tengqur,  
*cho'psa*-yog'ochni silliqlab beruvchi qurol,  
*chapar*-daraxt shox-shabbasidan tayyorlangan devor,  
*davuchcha*- zardoli; -adabiy-go'ra,  
*darvesh oshi*, *darveshona*-mahalliy aholi marosimi;  
*o'bo*-balo, qirg'in, *Yo pakasam*, *Parvardigor*- yo tovba qildim Xudoyim,  
*qaro osh*-aza kuniga qilinadigan taom;  
*qirchin* - bir boshdan qirish, katta-kichikka qaramay barini qirish;  
*jul*- qo'm;

*ayl-* eshakning anjomlari;  
*no'xta-* eshak-mollarda bog'lab qo'yish moslamasi;  
*tarrak, tuynuk-* pishib yetilmagan qovun, tarvuz;  
*alqundi, arqindi-* sovunning kichik qoldig'i;  
*talqon-* meva qoqidan kelida tuyib tayyorlanadi;  
*lali* (Machay), *tovoq* (Denov), *tarelka* (Termiz) -lagan,  
*shungila, sunbula, tarin, andiz, roba, haron, ipar(upor), chukuri-tog'*  
o'simliklari.

### **Ovqat nomlarining shevada aks etishi:**

*Palav-osh*(ad-orfografik),  
*sho'xi* (Machay)-yalama,  
*shulla* (Machay, Denov)-ad-orf -mastava (qatiq va guruch solib qilinuvchi taom),  
*keskan osh* (Machay, Termiz) -xamir kesib qatiq bilan qilinadigan taom (Denov-keskan),  
*xomsho'rbo* (Machay)-qaynatma,  
*shirbirinch-* ad. shirgurunch sut vaqatidan tayyorlanadi.  
*sho'rbo-*ad sho'rva,  
*shirkadi* (Machay) -kadining qattiq po'sti archiladi va sut, moy bn qaynatiladi;  
*to'ppa* (Denov)-ad beshbarmoq,  
*is, chalpak-*ad so'zma,  
*bo'g'irsoq* yoki *bo'virsoq* (Denov)- pirashka,  
*palla-*qo'y, sigir, echki birinchi sutidan qilinadigan taom,  
*kelagay-*yangi bolalagan hayvon sutidan taom,  
*cho'qqaymoq, qatqaymoq* - qozonda pishirilgan sut yuzidagi qaymoq cho'p bilan olinib shamolda quritiladi,  
*dumbul-* xom no'xotdan pishiriladi,  
*gungila-*qaynatilgan bug'doy,  
*quvurmach-* no'xot yoki bug'doyni qozonda qizdirish,

*ko'gan*-uloqlarni bog'lab qo'yish joyi,  
*pechak*-uloqlar onasini emmasligi uchun echki yo'liniga tapi bilan bog'lanadigan latta,

*tuvcha*- 2 yoshdan oshgan bolalashi mumkin uloqdan katta echki bolasi,  
*shishak*- qo'yning 3 yoshli erkak,  
*chori*-4yoshli qo'y yoki boshqa hayvon,  
*olish*-ad kurash,  
*bo'rdoqi*-so'yish uchun bog'lab maxsus semirtiriladigan mol,  
*ganjak, gang* -bolalar o'yini nomi nomi,  
*koza*-ovchilarning kakliklar suv ichish joylari yaqinida toshlardan terilgan pistirma joyi,

*tavushqon*-quyon (ad),  
*mekajin* yoki *megajin*- cho'chqaning urg'ochisi (ayrim hollarda ayollarni haqoratlash uchun ham aytiladi),

*jilob*-paypoqinaskining shevadagi variant,  
*o'rmak*-gilam to'qish jarayonining umumiy nomi, halloji-paxta chigitlagich moslama, qoqma gilam-oddiy, gulsiz to'qilgan gilam; terma qilam-gul sotib, naqsh to'qilgan gilam,

*kamat, seruv, sepayon*- gilam to'qish jarayonida ishlatiladigan anjomlar,  
*parron*-haddan ziyod, ko'p,  
*bel bo'lmoq*-kafil bo'lmoq,  
*xeli*-ko'p, ancha,  
*qo'lay*-qulay,  
*chagona*-boshqa bir hududdan boqish uchun olib kelingan mayda mol,  
*qo'shxona*-cho'ponning yashashi uchun tog'da olib yuradigan kerakli anjomlari,

*alpos gap*-yomon gap,  
*tos tepa*-peshonaning naqd markazi,  
*jela*-ovchining kaklik tutish qo'lqopi,  
*panji*- besh yoshli hayvon (beshinchi farzandga ham shu nom qo'yiladi),

*g'o'chqor, qo'chqor-qo'yning erkaki.*

### **Bob bo'yicha xulosa**

Agar o'zbek shevalariga nazar tashlasak, uning tarkibidagi so'zlarning barchasi ham sof o'zbekcha so'zlar emasligiga, ko'pgina so'zlar fors-tojik, arab, rus va boshqa tillar bilan birgalikda umumiy bir qatlamni tashkil etganligini bilamiz. Ishimizning bu qismida biz ko'proq shevadagi turkiy leksik qatlam, nafaqat turkiy leksik qatlam, balki o'zlashgan leksik qatlamdagi so'zlarni ham o'rgandik. Umumiy o'zbek tilining asosini tashkil etuvchi tub o'zbekcha so'zlar shevalar singari Surxondaryo o'zbek shevalarining ham asosini tashkil etadi, bunday so'zlar ba'zi fonetik farqlar bilan boshqa qardosh turkiy tillar uchun ham umumiylikka egadir. Masalan, Surxondaryo o'zbek shevalar og'a, ag'a, ove, ag'uz, arqa, bavo'r, tish, qash, burun, yomg'ir va hokazolar. Bunday umumturkiy so'zlar aniq hayotiy tushunchalarni ifodalaydi va yasalishi uchun zaxira bo'lib xizmat qiladi. Keltirilgan so'zlar bizga turli manbalar orqali yetib kelgan bolib, bunday ilmiy adabiyotlarning eng asosiysi M. Qoshg'ariyning "Devoni lug'atuturk" asaridir. Yana ko'pgina olimlar, jumladan, A. B. Borovkov, B. B. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov, U. Abdullayev, M. Mirzayev, A. Ishayev kabi olimlar dialektologiya sohasiga bir qator hissalarini qo'shgandir.

Dialektologik so'zlarni biror dialekt yoki faqat o'zbek adabiy tiliga mansub bo'lgan so'zlar deb aytish mumkin emas. Bu bo'limda o'zbek tiliqo'shimchalarini qo'shish orqali yuzaga kelgan shevaga xos so'zlar, umumturkiy so'zlarning shevadan sohalar bo'yicha tarqalishi, uy-ro'zg'or buyumlarining nomlari ifodalovchi so'zlar, oziq-ovqatga oid so'zlarning ko'pchiligi o'zbek adabiy tilida, shuningdek, yondosh turkiy tillar leksik qatlamida qo'llanishi haqida gap boradi.

Bu bobda "O'zbek tilining izohli lug'ati" dan "s" harfiga kiritilgan so'zlar ayni shunday tovush bilan boshlanuvchi shevaviy so'zlarni bir-biriga qiyoslab o'rganilgan. Adabiy til va shevada foydalanilayotgan leksemalar lug'ati tuzildi. Arabcha leksik qatlamga oid, rus leksik qatlamiga oid so'zlar misol tariqasida olinib tahlil qilindi. Fors-tojik so'zlarning nutqimizga ta'siri o'rganildi. Tojikcha so'zlarning kelib chiqish o'rinlari o'rganildi. Blingvizm hodisasiga uchragan

hududlar aniqlanib, bu hudud tilining o'ziga xosligi, qanday o'zgarishlar aks etishi misollar vositasida aytib o'tildi. Hududlar kesimida shevaga oid so'zlar yig'ib olindi va mavzu-mavzu qilib aytib o'tildi.

### **Umumiy xulosalar**

1. Hozirgacha to'la lingvistik sathda o'rganilmagan Surxondaryo o'zbek shevalari ham umumo'zbek tili leksikasining bir tarmog'i sifatida asriy taraqqiyot natijasida yuzaga kelgan lug'at tarkibiga ega bo'lib, unda mazkur shevalardan so'zlovchi aholining tarixiy rivojlanishi, moddiy va madaniy turmushini aks ettiruvchi so'z boyligi o'z ifodasini topgan.

2. Qadimdan Surxondaryo hududida yashab kelayotgan turli etnik va qabilalar tarixan o'zbek xalqi tarkibiga kiruvchi qarluq va qipchoq lahjasining vakillaridan iborat. Shunga ko'ra, Surxondaryodagi o'zbek shevalari ikkita katta y-lovchi (qorluq) tip hamda j-lovchi (qipchoq)shevalariga bo'linadi. Bulardan tashqari qorluq va qipchoq shevalarining aralashuvi tufayli vujudga kelgan qorluq-qipchoq, qipchoq-qorluq tip oraliq shevalar, shuningdek, tojik tili ta'siriga uchragan o'zbek -tojik shevalari mavjud.

3. O'rganilgan shevada bir guruh so'zlar fonetik tuzilishi ma'no jihatdan adabiy tilda qo'llanmaydi. Bu holat xalq shevalarining leksik dialektizmlariga boy ekanligidan dalolat beradi.

4. Umumxalq o'zbek tilining bir tarmog'i bo'lgan Surxondaryo o'zbek shevalari lug'at tarkibining asosini umumturkiy so'zlar tashkil etadi. Mazkur shevalar leksik sistemasidagi so'zlarning ko'pchiligi qadimgi turkiy yozma obidalar va eski o'zbek tiliga xos leksik birliklar tashkil etib, ularning ba'zilari fonetik o'zgarishlar, semantik taraqqiyot natijasida og'izdan og'izga o'tib kelgan.

Bundan ko'rinadi, shevalar qadimiy so'zlarda yuruvchi va o'zida saqlovchi vositadir.

5. Mazkur shevalarda leksik omonimlar, asosan, adabiy tilda so'zlar bilan tasodifiy fonetik mosligi va ko'p ma'noli so'zlar taraqqiyoti tufayli vujudga kelgan. Shevada adabiy dialektal sinonimlar (bunday sinonimlar o'zbek adabiy tilini va mazkur shevalar leksik sistemasidagi so'zlardan tashkil topgan) o'zlashtirilgan so'zlar bilan sinonimik qatorni tashkil etuvchi so'zlar hamda dialektlararo yuzaga kelgan sinonimlar mavjud.

6. Shevalarda omonimlik, antonimlik, sinonimlik, polisemiya hodisalari bilan bir qatorda paronimlik hodisalari uchrashiga ham guvoh bo'ldik.

7. Shevalar lug'at tarkibining boyishida va umumturkiy so'zlardan tashqari arab, fors-tojik, rus tilidan o'zlashtirilgan so'zlar ham ma'lum darajada rol o'ynaydi.

8. Tadqiqot natijasida shunga amin bo'ldikki, Surxondaryo va Qashqadaryo o'zbek (qipchoq) shevalarida anchagina o'xshashlik mavjud ekan. Ushbu xulosamizni ikki viloyat shevalarini tadqiq etgan dialektolog olimlarning ilmiy ishlari ham to'la tasdiqlaydi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

### **1. Normativ hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar**

1. “Узбекистон республикаси давлат” ги Конуни. Тошкент, Узбекистан, 1989-йил.
2. Узбекистан Республикаси Президентининг 2017-йил 7-февралдаги ПФ-4947-сон Узбекистон Республикасини янада ривожланиши буйича “Харакатлар стратегияси тугриси” ги Фармони.
3. Узбекистан Республикаси 2019-йил 21-октабридаги пф-5850-сон “Узбек тилининг давлат тили сифатида нуфузи ва мавкеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тугрисида” ги Фармони.
4. Узбекистон Республикаси Президентининг 2019-йил 4-октябрдаги ПК-4479-сон “Узбекистон Республикаси “Давлат тили тугрисида” ги Конун кабул килинганлигининг уттиз йиллигини кенг нишонлаш хакида” ги Карори.
5. Узбекистон Республикаси Президентининг 2020-йил 20-октабридаги ПК-6084-сон “Мамлакатимизда узбек тили янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлар тугрисида” ги Фармони.

### **II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar.**

6. Абдиев М. “Ўзбек тилида шахс номларини ясовчи аффикслар характеристикаси”. -Тошкент. 1990. 233-бет.

7. Абдуллайев Ф. “Ўзбек тили лексикологиясининг баъзи бир масалаларига доир ЎзФА тил ва адабиёт институтининг асарлари. - Тошкент. 1949. 7,8-бетлар. 213-бет.

8. Абдуллайев Ф. “Ўзбек тилининг қипчоқ шеваси” Ўзбек диалектологиясидан материаллар. -Toshkent.1957. 367-бет.

9. Абдуллайев Ф. “Хоразм шевалари лексикаси”. -Тошкент. 1966. 18-120-бетлар. 201 б.

10. . Абдуллайев Ф., Сафаров М. “Қорақалпоғистондаги Ўзбек шевалари” ЎТА. 1978, 3-сон, 82-бет.

11. Абдурахмонов Д. “Бишкент раён шевалари лексикасидан материаллар”, “Ўзбек диалектологиясидан материаллар”. -Toshkent. 1961. 228-бет.

12. Алиев А. “Наманган диалекти лексикасидан кузатишлар”, “Ўзбек шевалари лексикаси”. -Toshkent. 1966. 381-б.

13. Аширбоев С. “Ўзбек тили Сурхондарё ўзбек шевалари”. -Тошкент. 1985. 167-б

14. Вафоев Б. “Кўҳна сўзлар тарихи”. -Тошкент. 1991. 151-б.

15. Дониёров Х. “Ески ўзбек адабий тили ва қипчоқ диалектлари”. 1976. 140-б.

16. Дониёров Х. “ Қипчоқ диалектларининг лексикаси” -Тошкент. 1979. 156-бет.

17. Fayziyeva X. “O'zbek tili Boysun-Sho'rchi guruh shevalarining lug'at xususiyatlari”. Termiz. 2023-yil.

18. Жўраев Б. “Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари лексикаси” -Toshkent. 1966. 249-бет.

19. Жуманазарова Ю. “Ўзбек тили жанубий Хоразм (ўғуз) диалектининг синтактик қурулиши. -Тошкент. 1976. 145-б.бнп

20. Зафаров С. “Сайрам шевасининг лексик хусусиятларидан”. (Тилшунослик ва адабиётшуносликка оид тадқиқотлар). -Тошкент. 1967-йил. 205-бет.



21. Иброҳимов С. “Миришкор шевасига оид қўшимча материаллар”, “Ўзбек диалектологиясидан материаллар”. -Тошкент. 1961. 200-бет.
22. Иброҳимов С. “Ўзбек тили касб-ҳунар лексикаси тадқиқи tadqiqotlari”, “Ўзбек шевалари лексикаси”. –Тошкент.1966. 159-бет.
23. Ўзбек Андижон шеваси. Тошкент. 1967. 259-бет.
24. исомухаммедов С. С. “Синонимларнинг вужудга келиш йўллари хақида баъзи мулоҳазалар”. “Тилшунослик масалалари”. -Тошкент. 1960. 319-б
- 25.Исмоилов И.А. “Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари”. - Тошкент. 1966. 150-б.
26. Ишаев А. “Манғит шевасида рус тилидан ўзлаштирилган сўзлар”. “Адабиётшунослик масалалари”. -Тошкент.1961. 3-китоб. 373-б.
27. Ишаев А. “Халқ дostonлари лексикасига оид кузатишлар. Ўзбек тили ва адабиёти”. 1970 .56-63-б. 234-б
28. Ишаев А. “. Ўзбек шевасидаги метрологик сўзлар. Ўзбек шевалари лексикаси ”. -Тошкент. 1966.-376-б.
29. Ишаев А. “қорақалпоғистондаги ўзбек шеваларининг қипчоқ группасидаги тилга муносабати”. Луғат. -Тошкент. 1997.175-б.
30. Ишаев А. “Ўзбек диалектал лексикографияси”. -Тошкент. 1990.140-б.
- 31.Йўлдошев Б . “Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бтрикмаларнинг функционал-услубий хусусиятлари” автореферат. - Тошкент. 1993. 233-бет.
32. Йўлдошев Т. “Тожикистон ССР жанубидаги ўзбек шевалари лексикасидан”. -Тошкент. 1966. 446-447-б. 546-б.
33. Камолов Ф. “Лексикология. Ҳозирги замон ўзбек тили”. -Тошкент. 1957. 36-б 344-б..
34. Karimov S.A. “O'zbek tilining badiiy uslubi” Samarqand.1993-yil. 293-bet.

35. Мирзаев М. “Бухоро ўзбек ва тожик шеваларининг ўзаро муносабати тўғрисида ўзбек диалектологиясидан материаллар”. –Тошкент. 1961. 177-б.
36. Мирзаев М. “Диалектал сўзлар, Ўзбек шевалари лексикаси”. - Тошкент. 1966. 326-бет.
37. Мирзаев М. “Ўзбек тилининг Бухоро группа шевалари”. -Тошкент. 152-б.
38. Мирзаев Т. 3 “Ўзбек тиллилар қирқ шевасидан, Ўзбек диалектологиясидан материаллар. -Тошкент. 1957. 261-б.
39. Миртожиев М. “Бошқа тиллар билан муносабат орқали омонимларнинг вужудга келиши. -Тошкент,1961. 404-бет.
40. Миртожиев М. “Ўзбек тилида полисемия”. -Тошкент. 1975 .239-б.
41. Муҳаммаджонов Қ. “Жанубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари”. – Тошкент .1983. 166-б.
42. Навоий асарлари луғати. -Тошкент. 1972-б. 234-б.
43. Нафасов Т. “Ўзбекистонимларининг изоҳли луғати ”. -Тошкент. 1988. 288-б.
44. Носиров Ш. “Қўқон шеваларининг баъзи бир хусусиятлари”. - Тошкент. 1966. 415-бет.
45. Ражабов Н. “қароқ шевасининг лесик хусусиятлари”. -Самарқанд . 1960-йил .59-74-бетлар .
46. Ражабов Н. “узбек диалектологияси куланма”. -Самарқанд. 1974.135-бет.
47. Раджабов Н., Валиев М “Ўзбек шевалари лексикасидан материаллар”. -Самарқанд .1976. 189-б.
48. Раҳимов С. “Сурхондарё ўзбек шевалари луғати ”. -Тошкент. 1991. 122-б
49. Раҳимов С. “Ўзбек тили. Сурхондарё шевалари”. -Тошкент.1985. 96-бет.
50. Raimnazarova N. “O'zbek tilining izohli lug'atlarida shevaga oid so'zlarning berilishi”. Termiz-2022y. 175bet.

51. Раҳматуллаев Ш . “Луғавий бирликларнинг замонавийлиги жихатидан гуруҳланиши ва номланиши масаласига доир.1962. 46-47-б. 256-б.

52. Раҳматуллаев Ш. “Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати” - Тошкент. 1984. 278-б

53. Решетов Б. ., Шоабдураҳмонов. “Ўзбек диалекталогияси”. -Тошкент. 1978. 232-б.

54. Содиқов Т. “Тошкент шеvasидаги баъзи сўзларнинг маъноси”. - Тошкент. 1966. 451-бет.

55. Xolova M. “O'zbek milliy shevalarda korpus tadqiqi” -Termiz.2022.

56. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент. 2 томлик. 198. 631-б.

57. Ўзбек тили халқ шевалари луғати. -Тошкент. 1971. 407-б.

58. Shoimova N. “Qashqadaryo o'zbek qirchoq shevalari leksikasi”. Qarshi. 2000-yil.

59. “Ўзбек шевалари луғати”. Ўзбекистон. “Фан” нашриёти. - Тошкент,1974. 456-б.

#### **INTERNET MANBALARI**

60. <http://www.kitab.uz/cms/q=node/223o1.04.08>.

61. [www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)

62. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)

63. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)

64. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)

## ILOVALAR

### O'rta Machay qishlog'ida kundalik-maishiy so'zlar:

*Qo'sh*-faoliyat-jarayon nomi, yerga urug' ekish jarayoni,  
*omoch*-qo'sh haydash asbobi, bo'yinturuq, tirchak, bo'yinchak,  
*quloq*-hammasi qo'sh anjomlari,  
*g'albur*-elakdan ko'zi kattaroq elak turi,  
*chig'il*-galburdan ko'zi kattaroq elak turi,  
*chalg'i*-uzun dastali o't o'rish quroli,  
*galagev*- xirmon yanchish marosimi (ho'kiz va eshshak yoki yilqilar bilan)  
bajariladi,  
*shoxa* tashlash-yanchilgan xirmonni don va somonga shamol yordamida  
ajratish,  
*bo'yinsa*-tengdosh, oshna, tengqur,  
*cho'psa*-yog'ochni silliqlab beruvchi qurol,  
*chapar*-daraxt shox-shabbasidan tayyorlangan devor,  
*davuchcha*- zardoli; -adabiy-go'ra,  
*darvesh oshi*, *darveshona*-mahalliy aholi marosimi;  
*o'bo*-balo, qirg'in, *Yo pakasam*, *Parvardigor*- yo tovba qildim Xudoyim,  
*qaro osh*-aza kuniga qilinadigan taom;

*qirchin* - bir boshdan qirish, katta-kichikka qaramay barini qirish;  
*jul*- qo'm;  
*ayl*- eshakning anjomlari;  
*no'xta*- eshak-mollarda bog'lab qo'yish moslamasi;  
*tarrak, tuynuk*- pishib yetilmagan qovun, tarvuz;  
*alqundi, arqindi*- sovunning kichik qoldig'i;  
*talqon*- meva qoqidan kelida tuyib tayyorlanadi;  
*lali* (Machay), *tovoq* (Denov), *tarelka* (Termiz) -lagan,  
*shungila, sunbula, tarin, andiz, roba, haron, ipar(upor), chukuri-tog'*  
o'simliklari.

### **Ovqat nomlarining shevada aks etishi:**

*Palav*-osh(ad-orfografik),  
*sho'xi* (Machay)-yalama,  
*shulla* (Machay, Denov)-ad-orf -mastava (qatiq va guruch solib qilinuvchi taom),  
*keskan osh* (Machay, Termiz) -xamir kesib qatiq bilan qilinadigan taom (Denov-keskan),  
*xomsho'rbo* (Machay)-qaynatma,  
*shirbirinch*- ad. shirgurunch sut vaqatidan tayyorlanadi.  
*sho'rbo*-ad sho'rva,  
*shirkadi* (Machay) -kadining qattiq po'sti archiladi va sut, moy bn qaynatiladi;  
*to'ppa* (Denov)-ad beshbarmoq,  
*is, chalpak*-ad so'zma,  
*bo'g'irsoq* yoki *bo'virsoq* (Denov)- pirashka,  
*palla*-qo'y, sigir, echki birinchi sutidan qilinadigan taom,  
*kelagay*-yangi bolalagan hayvon sutidan taom,  
*cho'qqaymoq, qatqaymoq* - qozonda pishirilgan sut yuzidagi qaymoq cho'p bilan olinib shamolda quritiladi,  
*dumbul*- xom no'xotdan pishiriladi,

*gungila*-qaynatilgan bug'doy,  
*quvurmach*- no'xot yoki bug'doyni qozonda qizdirish,  
*ko'gan*-uloqlarni bog'lab qo'yish joyi,  
*pechak*-uloqlar onasini emmasligi uchun echki yo'liniga tapi bilan bog'lanadigan latta,  
*tuvcha*- 2 yoshdan oshgan bolalashi mumkin uloqdan katta echki bolasi,  
*shishak*- qo'yning 3 yoshli erkak,  
*chori*-4yoshli qo'y yoki boshqa hayvon,  
*olish*-ad kurash,  
*bo'rdoqi*-so'yish uchun bog'lab maxsus semirtiriladigan mol,  
*ganjak, gang* -bolalar o'yini nomi nomi,  
*koza*-ovchilarning kakliklar suv ichish joylari yaqinida toshlardan terilgan pistirma joyi,  
*tavushqon*-quyon (ad),  
*mekajin* yoki *megajin*- cho'chqaning urg'ochisi (ayrim hollarda ayollarni haqoratlash uchun ham aytiladi),  
*jilob*-paypoqinaskining shevadagi variant,  
*o'rmak*-gilam to'qish jarayonining umumiy nomi, halloji-paxta chigitlagich moslama, qoqma gilam-oddiy, gulsiz to'qilgan gilam; terma qilam-gul sotib, naqsh to'qilgan gilam,  
*kamat, seruv, sepayon*- gilam to'qish jarayonida ishlatiladigan anjomlar,  
*parron*-haddan ziyod, ko'p,  
*bel bo'lmoq*-kafil bo'lmoq,  
*xeli*-ko'p, ancha,  
*qo'lay*-qulay,  
*chagona*-boshqa bir hududdan boqish uchun olib kelingan mayda mol,  
*qo'shxona*-cho'ponning yashashi uchun tog'da olib yuradigan kerakli anjomlari,  
*alpos gap*-yomon gap,  
*tos tepa*-peshonaning naqd markazi,

*jela*-ovchining kaklik tutish qo'lqopi,  
*panji*- besh yoshli hayvon (beshinchi farzandga ham shu nom qo'yiladi),  
*g'o'chqor*, *qo'chqor*-qo'yning erkaki.

